

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-4/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
 Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.
 Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
 Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
 Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
 Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
 Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.
 Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
 Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
 Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
 Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
 Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
 Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
 Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
 Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.
 Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
 Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
 Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc
 Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
 Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
 Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
 Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
 Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
 Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
 Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.
 Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
 Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
 Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
 Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
 Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
 Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
 Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
 Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
 Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
 Сирожов Ойбек Очилов, с.ф.д., проф.
 Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
 Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик
 Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
 Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
 Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
 Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
 Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
 Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.
 Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
 Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
 Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
 Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.
 Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/3 (100), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. — 165 б. — Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими — Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА ТАРИХ ФАНЛАРИ

Abdullayev R. 1946-1480 yillarda Markaziy Farg‘Ona cho‘li hududlarida Yozyovon tumanining tashkil etilishi	5
Karimov U. Turkiy xalqlar turmushida kulolchilik san‘atini ahamiyati	7
Kazakova M. O‘zbekistonda ayollar huquqlarining himoya qilinishi masalasi	10
Qarshiyeva Sh.A. Akademik Aziz Qayumov – qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqotchisi	13
Rahmonova Sh. Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Xiva va Buxoro xonliklarining o‘zaro munosabatlari tarixidan	16
Raxmanqulova O.A. Adabiyot sohasining rivojida xotin-qizlarning o‘rni	18
Ro‘ziboyev D.A’. Chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash siyosati	21
To‘raeva M. Ikkinchi jahon urushi yillarida qishloq xo‘jaligi	24
Xolikulov P. Ta‘lim islohotlari: ikki yillik akademik litsey ta‘limining shakllanish jarayoni	27
Бурхонова С.Т. XIX аср охири – XX аср бошларидада халқ таълими, маънавий-маърифий ҳаракатлар	30
Жалилов М.Б., Нарзуллаев У.О. Қизилқумнинг “Олтин” шаҳри - Навои	33
Жўраева Д.Ж. Архивлар -тарих кўзгуси	36
Маматалиев А. Р. Фарғона водийси моддий маданиятининг ўрганилиши	39
Нуруллаева Н.К., Эркинова Д. Историография истории культурного сотрудничества Хорезмской области и Каракалпакстана в 1960-1970-х годах	44
Сапарбаев Б.Х. Муҳаммад Раҳимхон I (1806-1825) даврида Хива хонлигининг ташқи сиёсий ва иқтисодий алоқалари	46
Суюнов С. Ғузур воҳасидаги “Кориз” ер ости сув иншооти тўғрисида	49
Тошбоев Ф. Қадимги Уструшонада бронза даври ёдгорликларининг ўрганилишга доир	55
Тўраева М. БХСРда соғлиқни сақлаш соҳасининг йўлга қўйилиши: муаммо ва ечимлар	59
Ҳайитов У.Я. Файзулла Ҳўжаев – Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси раиси лавозимидаги фаолияти	63
Чориев Ш.Ш. Ўзбекистонда бир марталик солиқ йиғимлари тарихига оид архив ҳужжатлар таҳлили	66
Шукурова Ҳ.С. Тожиқ халқи заргарлик маданиятидаги ўзига хосликлар	70
Якубов Т.Ё. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органларининг ҳудудларни ижтимоий ривожлантиришдаги роли	72
Яркулов А. Археология музей, парк ва қўриқхоналарини бошқариш	75
ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
Abdukadyrova G., Saydaxmetova X. Pros and Cons of Technology in Higher Education	80
Abdullayeva L.T. Methods of teaching foreign languages in enhancing sociolinguistic competency	83
Akhmedova M.M. Using ict together with innovative methods in teaching the russian language in non-linguistic higher education institutions	87
Anvarova S.M. Syntactic-semantic characteristics of exocentric compound words in english	89
Azizjonova S. Effective techniques of teaching reading in efl senior class	92
Bo‘taev A.A. Uzluksiz ta‘lim tizmida shaxs qiziqishini shakllantirishning uzviyligidagi pedagogik va psixologik omillar	94
Djamaldinova Sh.O. Muammoli ta‘lim orqali – o‘quvchilarni mantiqiy tafakkurini rivojlantirish	97
Farkhodova G.E., Ermetova J.I. Modern technologies for children with disabilities	100
Galiakberova A.R., Khoshimova N.A. Principles of teaching terms by specialty in higher education	102
Gulyamova N.X. The significance of pragmatics in language teaching	105
Joniqulov A.Z. Formation of students' grammar skills as a component of speech skills	108
Kamalova D.A. Diachronic investigation of phonetic terms in english language	111
Khaydarova N.G. The importance of lesson panning in teaching- learning system	114
Narbekova R., Narbekov F. The importance of vocabulary in language learning and how to be taught	116
Qurbonova R.E., Kasimova Z.H. The role of artificial intelligence in modern education	120

Sagdullaeva F.B. Pedagogical requirements for the training of petroleum engineers in the system of higher and secondary specialized education	122
Sharif Kh.N. Organizing classroom for students with special needs	125
Sherjanova M.B. How to teach English to beginners	128
Shoazizova A.Sh. Development of grammatical competence in language learners	129
Shoazizova A.Sh. Improvement of grammar teaching methodology in the conditions of innovative educational institutions of higher education	132
Sirojiddinova D.B. Muloqot va madaniyat	135
Sodikova Yu.F. Formation of socio-cultural competence of students through the interpretation of an authentic literary text	138
Xamdamova V.A. Texnologiya fanidan elektron o'quv adabiyotlarini yaratish jarayonini tashkil etish	140
Xo'jamberdiyeva Sh.K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirishning mazmuni	143
Yusufxodjayeva F.M. Texnologiya fanidan o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratishga qo'yiladigan didaktik va uslubiy talablar	146
Абдуллаева С.Б. Методы и подходы обучения говорению на уроках английского языка в высших учебных заведениях	149
Володько О.М. Профилактика информационного стресса у будущих менеджеров	152
Мусаева Е.К. Психолингвистические факторы семейных отношений	155
Хайдарова Ш.Р. Некоторые рекомендации по проведению внеклассных мероприятий по русскому языку	157

САНЪАТШУНОСЛИК ФАНЛАРИ

Kasimova A.B., Mukhammadieva I.M. Study of preferred silhouette shapes of women's clothing models for middle weight groups	161
---	-----

UO'K 93/94

1946-1480 YILLARDA MARKAZIY FARG'ONA CHO'LI HUDUDLARIDA YOZYOVON
TUMANINING TASHKIL ETILISHI*R.Abdullayev, mustaqil izlanuvchi, Namangan Davlat Universiteti, Namangan*

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1946-yildan, 1980-yilgacha Markaziy Farg'ona cho'li yerlarida tashkil etilgan tumanlar, xususan, Yozyovon tumani tashkil etilishi va rivojlanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yozyovon, Markaziy Farg'ona cho'li, Kolhoz, Sovхоз.

Аннотация. В данной статье приведены сведения о становлении и развитии округов, образованных в Центральной Ферганской пустыне с 1946 по 1980 годы, в частности, Ёзёвонского района.

Ключевые слова: Ёзёвон, Центральная Ферганская пустыня, колхоз, совхоз.

Abstract. This article provides information on the establishment and development of the districts established in the Central Fergana desert from 1946 to 1980, in particular, the Yozyovon district.

Key words: Yozyovon, Central Fergana desert, collective farm, state farm.

Markaziy Farg'ona cho'lining katta qismi Farg'ona viloyati hududlariga to'g'ri keladi. Bu viloyatda cho'l hududlariga to'g'ri keluvchi Yozyon tumani tashkil etilgan. Shuningdek, viloyatning to'rt tumanida cho'l hududlaridan paxta yer maydonlari bo'lib berilgan. Bular sirasiga Buvayda, Bag'dod, Oltiatiq, Uchko'prik, hamda Qo'shtepa tumanlari tasarrufida yerlar mavjud.

Yozyovon cho'li — Farg'ona vodiysining Markaziy qismidagi cho'l. Qo'qon, Marg'ilon, Andijon va Namangan vohalari bilan o'ralgan. Shimoldan Sirdaryo oqib o'tadi, zamini paleozoy jinslaridan tarkib topgan, yer yuzasi to'rtlamchi davr allyuvial va prolyuvial yotqiziqlari bilan qoplangan. Relefi, asosan, tekis. Balandpast qum tepalari, ko'llar, sho'rxoklar va botqoqlashgan yerlar uchraydi. Iqlimi kontinental: yozi issiq va quruq, qishi qisqa, bir oz sovuq. Iyulning o'rtacha temperaturasi 25-27°, yanvarniki -3°, vegetatsiya davri 220-240 kun. Yillik yog'in 170-200 millimetr. Yozyovon cho'lini o'zlashtirish maqsadida bir qancha kanal (Usmon Yusupov nomli katta Farg'ona kanali, Oxunboboyev nomli kanal va boshqalar) va kollektorlar (Yozyovon, Sarijo'ga, Sariqsuv, Qiziltepa, Fapbiy Yozyovon kollektorlari) qazilgan. Cho'lda yantoq, qamish, sho'ra, shuvoq, yulg'un o'sadi, kanal hamda ariqlar bo'yiga terak, tol, qayrag'och, tut, jiyda, chinor, akasiya va boshqa ekilgan. Yer osti suvi 0,5—1,2 metr chuqurlikda. Qiziltepa massivida va Jomasho'yda yer ostidan issiq shifobaxsh suv topilgan. Yozyovon cho'li deyarli o'zlashtirilgan. Cho'l orqali Farg'ona—Namangan, Marg'ilon—Qo'qon, Qo'qon—Shaxrixon, Yozyovon—bo'z, Yozyovon—Baliqchi avtomobil yo'llari o'tgan. [1;3,8.] Yozyovon tumani o'tgan asrning 60-yillarida bir necha bor Marg'ilon va Toshloq tumanlari bilan birlashib va qayta tashkil etilib turgan. Dastlabki paytlarda tumanning ma'muriy idoralari ham ushbu tumanlarda bo'lgan. Yozyovon tumani rahbarlaridan Mamajon Rahimov davrida tumanda ma'muriy idoralar qurilgan va tumanning o'ziga ko'chirilgan. [3;10,115]

1975-yilda Yozyovon shaharchasiga asos solingan. Bu paytda tuman partiya komitetini Po'latjon G'ulomov boshqargan. Yozyovon shahrida 4000 aholi yashagan. Tumanda jami 1992-yilga kelib 62 ming aholi mavjud edi, ulardan 42 mingdan oshig'I o'zbeklar, ya'ni aholining 70 foizi, 11 ming aholi tojiklar, ya'ni 19 foizi, 5 ming qirg'izlar, yani aholining 8 foizi, qolgan qismini esa qozoq, rus va boshqa millatlar tashkil etgan. Tumanda 12 ta kolhoz, 3 ta qishloq va bitta shahar sho'rosi mavjud edi. 1992-yil 12 ta kolhozga tegishli ekin ekiladigan yer maydonlari 16 ming gektarni tashkil etgan. Ulardan 9 ming gektariga paxta ekilgan. Ushbu ekin ekiladigan yerlarning chorak qismi 75-80-yillarda o'zlashtirilgan. SSSR Ministrlar Soveti 1952 yil 2 sentyabrida "Paxtachilikni kelgusida rivojlantirish uchun O'zbekiston SSRning Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlaridagi yerlarni sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida"gi Qaror qabul qildi. Unga ko'ra, yaqin 4-5 yil ichida, ya'ni

1953 yildan boshlab, Markaziy Farg'onadagi 65 ming ga qo'riq yerlarni (shu bilan birga irrigatsiya tarmog'ida mavjud bo'lgan 15 ming ga qarovsiz qoldirilgan yerlarni) o'zlashtirish masalasi ko'rib chiqilgan edi. Shuning o'ziyoq sovet hukumatining vodiya paxta yakkahokimligi siyosatining yanada avj oldirganligidan dalolat berar edi. [4;42.] Markaziy Farg'ona hududlarida yangi paxtachilik tumanlari o'tgan asrning 50-yillarida tuzila boshlangan. Mana shunday tumanlardan biri Farg'ona viloyati tasarrufidagi yerlarda 1952-yil 16-aprelda tuzilgan Yozyovon tumani hisoblanadi. Ilk bor tashkil etilganda qo'shni Oxunboboyev tumanidan Yozyovon va Xonobod qishloqlari, Toshloq tumanidan esa Qoratepa qishlog'i Yozyovon tumani tarkibiga kiritilgan. Keyingi yillarda Yozyovon tumani hududlari yangi o'zlashgan yerlar hisobiga yangi qishloqlar bilan boyitib borilgan. 1990-yilga kelib tuman hududi 30 ming gektarni tashkil etgan, ulardan 16 ming gektariga ekin ekilib, ekilgan ekinlarning 60 % ini paxta tashkil qilgan. Yozyovon tumanida 1980-yilgacha 4 ming gektar yangi yer o'zlashtirilgan.

Yozyovon tumani tashkil etilgan dastlabki vaqtda uning markazi 1952-yil 16-apreldan to 1952-yil 29-maygacha Xonobod qishlog'i tuman markazi hisoblangan. 1952-yil 29-maydan boshlab Yozyovon tumani markazi Yozyovon qishlog'iga ko'chirilgan. 1975-yil Yozyovon qishlog'i shahar maqomini oladi. Yozyovon tumani yangi tashkil etilgan kezlarda uning rahbarligiga I.Yusupov va A. Rajabovlar tayinlangan. Bu kadrlar 1952-yil Toshkentdan yuborilgan. Dastlabki kezlarda tumanda ishlagan rahbarlar ta'kidlashicha, Yozyovon tumanida barcha sohalarda shart-sharoitlar umuman mavjud bo'lmagan. Hattoki, tuman rahbarlari yashaydigan xonadonlarning ham uylaridan yog'ingarchilik mavsumlarida uylarining tomlaridan chakka o'tib turgan. Tumanda harakatlanish uchun deyarli ravon yo'llar bo'lmagan eng yaqin Marg'ilon shahriga borish uchun ikki uch kun vaqt talab etilgan. [3;10,115]. Keyinchalik tumanda respublika va viloyat miqiyosidagi 169 ta mahalliy ahamiyatga ega 159 km yo'l qurilgan. Tumanda 1952-yilgacha mavjud bo'lgan 8 ta kolxoz yoniga yana bir nechta yangi kolxozlar tuzilib, ularning soni 21 taga yetkaziladi. Mazkur kolxozlar davlatga, asosan, paxta va pilla yetkazib bergan. 1952-1955-yillarda Yozyovon tumani davlatga paxta topshirish rejasini bajarmagan. Ammo, 1955-yildan boshlab paxta rejasini uzluksiz ravishda bajarilib, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab davlatga rejadani ortiqcha paxta sotish yo'lga qo'yilgan. Yozyovon tumani davlatga dastlabki yillarda yiliga 14-15 ming tonna paxta bergan bo'lsa, keyinchalik bu ko'rsatkich 20 ming tonnagacha oshirilgan. Yozyovon tumani davlatga yiliga 100 ming tonnadan ortiq pilla yetkazib bergan. Yozyovonda yiliga 7-8 ming quti ipak qurti boqilgan. Bu pillalarni yetishtirish uchun ariq va dalalar qirg'oqlariga tut daraxtlari ekilgan.

Yozyovon tumanida bir necha qishloq xo'jalik jamoalari mavjud bo'lgan. Ulardan Yozyovon tumani hayotida muhim rol o'ynagan xo'jaliklarga Alisher Navoiy 1961-yildan Voroshilov, Qoratepa, Qatortol, Guliston, Oxunboboyev, Cho'liguliston kabi xo'jaliklarni aytish mumkin. Ushbu xo'jaliklar davlatga go'sht, sut, tuxum, teri, uzum, g'alla, pilla, paxta va boshqa mahsulotlarni yetkazib berishgan. Yozyovon tumani tashkil etilgan vaqtda undan ikkita MTS (Mashina-traktor stansiyalari) bo'lib, ularning moddiy texnik bazasi nochor ahvolda bo'lgan. 1954-yildan boshlab bu MTS larga yangi texnikalar olib kelina boshlangan. Keyinchalik tumanda yana bir nechta MTS lar tuzilgan. Bu paxtachilik tumanlari MTS larida kadrlar salohiyati past bo'lgan. Dastlabki vaqtlarda bu MTS larda faqatgina bir dona oliy ma'lumotli kadr bo'lgan, xolos. [2;23]. Tuman qurilish ishlari ham 1954-yildan boshlab yo'lga qo'yila boshlangan. Tumanga respublikadan bir necha tajribali quruvchilar yuborilgan. Mazkur quruvchilar guruhi tumanda davlat va jamoat binolari aholi turar joylari va yo'llar qurilishida ishtirok etganlar.

Yozyovon tumani tuzilganda uning aholisi kamchilikni tashkil etgan bo'lsada, keyinchalik aholi soni 30 ming kishiga, 1992-yilda esa ikki barobar ortadi. Ammo, aholining ijtimoiy ahvoli va ijtimoiy xizmat ko'rsatish past darajada bo'lgan. Jumladan, Yozyovon tumanidagi 10 ga yaqin maktablarda ishlovchi 320 ta pedagogning atiga 3 nafari oliy ma'lumotli bo'lgan, xolos. Bu esa umumiy o'qituvchilarning 1% ini ham tashkil etmagan. Shuningdek, tumanda atiga 3 ta kasalxona bo'lib, ularda 1 ta doktor va 2 ta feldsher bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I. Yozyovon cho'llari // O'tmishga nazar, 2017. - №4 – B.3-8.
2. Saidov K. Partiya agrar siyosatining tantanasi // Partiya turmushi, 1965. B.23.
3. Xalilov I. Yozyovonnoma. – Marg'ilon: Marg'ilon nashriyoti, 1992. – B. 10-115.

4. [Yozyovon Cho'li \(Milliycha.Uz\)](http://Yozyovon.Cho'li(Milliycha.Uz))

5. Комилов О. Фаргона водийсида суғориш ишларининг пахтачиликни ривожлантиришга // Ўтмишга назар, 2020. - №1-3-жил. - Б.42.

UO'K 738.2

TURKIY XALQLAR TURMUSHIDA KULOLCHILIK SAN'ATINI AHAMIYATI

U. Karimov, o'qituvchi, Ma'mun Universiteti, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqolada amaliy san'atning shakllanishi, uning eng keng tarqalgan turlaridan bir kulolchilikning turkiy xalqlar turmushida tutgan o'rnini va ahamiyati tarixiy ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, kulolchilik, amaliy san'at, loy, charx, Eron, Iroq, Farg'ona, Xorazm, Toshkent, Quva, ko'zagar.

Аннотация. В данной статье на основе исторических данных освещается становление прикладного искусства, одного из самых распространенных его видов, роль и значение гончарного дела в жизни тюркских народов.

Ключевые слова: ремесла, гончарство, прикладное искусство, глина, круг, Иран, Ирак, Фергана, Хорезм, Ташкент, Кува, гончар.

Abstract. In this article, the formation of practical art, one of its most widespread types, the role and importance of pottery in the life of Turkic peoples, is highlighted based on historical data.

Key words: crafts, pottery, practical art, clay, wheel, Iran, Iraq, Fergana, Khorezm, Tashkent, Kuva, potter.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida xalq ma'naviyatining ko'zgusi bo'lgan tarixiy yodgorliklar, jumladan, hunarmandchilik tarixini o'rganish, asrash va yangi asoslarda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Mustaqillik yillarida xalq hunarmandchiligi tarixini o'rganish va uning andozalarini avlodlarga yetkazish bo'yicha katta amaliy ishlar qilinmoqda.

Hunarmandchilik geografik sharoit va yashash tarzi bilan bog'liq. Misol uchun vodiylarda joylashgan hududlarda ko'proq tosh va metall bilan ishlash sohalari, Xorazm kabi sahro zonalarida loy va yog'ochdan buyumlar ishlash sohalari keng tarqalgan. Shuningdek o'troq aholi va ko'chmanchilarning o'ziga xos hunarlari mavjud bo'lgan. Ana shunday amaliy san'at hunarlaridan biri so'zsiz kulolchilik hunaridir.

Kulolchilik hunari X-XII asrlarda Movarounnahrda hukmronlik qilgan Qoraxoniylar sulolasi zamonida ham Somoniylar davrida ham rivojlangan davri bo'lgan. Buning o'ziga xos bir qancha omillari mavjud bo'lib, shulardan biri musulmon ahlini sopol idishlarda taom tanovvul qilishi lozimligi hadislarida o'z ifodasini topgan edi. Shu sababdan Movarounnahrda sopol idishlarga o'zgacha munosabatda bo'lib kelganlar. Movarounnahr kulolchiligining bu davrlarda naqadar taraqqiy etganligi sabablari xususida misrlik olim, doktor Kavsar Abul Futuh al-Laysiy shunday yozadi:

“Kulolchilik ilm-fan, madaniyat va san'at taraqqiyotining bosqichlarini aniqlashda xizmat qiladigan qimmatli yodgorliklar ishlab chiqarishning sir-sinoatini o'rganish bilan bog'liq eng muhim amaliy san'at turi hisoblanadi. Bunga qo'shimcha sifatida yana shuni aytish mumkinki, u - inson ruhiga eng yaqin hunarmandchilik va amaliy san'at turidir. Kulolchilik islom ustuvordin hisoblangan davrlarda boshqa san'at turlariga nisbatan alohida mavqega ega bo'lgan. Buning boisi sopol va chinni idishlarning tilla yoki kumushdan yasalgan idishlardan ko'ra afzal ko'rilganidadir. Chunki tilla yoki kumush idishlardan yeyish-ichishda foydalanishning harom yoki makruhligiga ishora qiluvchi bir necha nabaviy hadislar mavjud [1]. Masalan, quyidagi hadisi sharifda “Tilla va kumush idishlarda yemanglar va ichmanglar. Chunki bunday idishlar bu dunyoda ular (kofirlar) uchun, oxiratda esa bizlar (musulmonlar) uchundir”, deb marhamat qilingan.

Islom taraqqiy etgan davrlarda hunarmandchilikning boshqa turlari bilan bir qatorda, kulolchilik san'ati ham keng rivojlandi. Bu sohada ildizlari uzoq moziyga borib taqaladigan Eron, Iroq, Shom va Misr kabi ko'pgina mamlakatlarning yagona nizom ostida faoliyat ko'rsatuvchi islom davlatiga bo'ysunishi mazkur mamlakatlarning kulolchilik san'atiga taalluqli tajribalarini o'zaro

almashishga imkon berdi. Bu hol islom fathidan avval mazkir o'lkalardagi yalpi tartibsizliklar oqibatida asta-sekin yo'qolib borayotgan kulolchikning rivojlanishi va gullab-yashnashiga sabab bo'ldi.

Islom fathidan so'ng kulolchilik yanada taraqqiy eta boshladi. Buni ayniqsa qadimiy an'analariga ega bo'lgan Eron va Iroqdagi kulolchilik san'atining gullab-yashnashida ham ko'rish mumkin. Hammamizga ma'lumki, Ajam diyori sopol buyumlarga bir yoki bir necha rang-bo'yoqlar bilan ishlov berishda yetakchi o'rinda turgan. Keyinchalik mazkur uslubda sopol buyumlarni yasaydigan shaharlarning soni ko'payib borgan.

Ajam shimolidagi Samarqand (Afrosiyob) va Toshkent (Shosh), Eron markazidagi Sus, Sava va Ray shaharlari shular jumlasidandir.

Bir guruh qadimshunoslar Samarqandda qidiruv ishlarini olib borib, ajamiy uslubda ishlab chiqarilgan sopol buyumlarning bo'laklarini topib oldilar. Ularni yasashda va bezashda chiroyli rang-bo'yoqlar ishlatilgan. Mazkur namunalar tahlilidan ayon bo'lishicha, ularni bezashda qora, yashil, va sariq ranglar ustuvorlik qilgan. Bu namunalarda doira shaklidagi naqshlarni, bo'yalgan qismining pastki tomonida esa o'simliklarning tasvirlarini ko'rishimiz mumkin. Lekin ular yaqqol ko'zga tashlanmaydi, chunki yuqori qismidagi turli jozibador ranglar beixtiyor e'tiborimizni o'ziga tortadi. Milodiy VIII asrning oxiri va IX asrning boshlarida kulolchilikning naqshli turi Movarounnahr shaharlarida keng yoyilib, IX - X asr davomida sifat jihatidan yuksalib bordi [2]. Birinchi navbatda Samarqand, so'ngra Toshkent kulolchilikni san'at darajasiga yetkazgan markazlarning birinchi safidan o'rin egallab, shuhrati butun dunyoga tarqaldi. Bu o'lkalarda ishlangan idishlar o'simlik tasviri tushirilgan bezaklari, naqshga o'xshatib ishlangan arabcha harflari, geometrik va jadvalli naqshlar solinishi bilan alohida ajralib turadi.

Samarqand va Toshkentda yasalgan laganlar va idishlar ishlanishi va bezak berilishi, ya'ni o'ta nafisligi va ziynatlari bilan ajralib turadi. Bu esa mohir kulollar bilan iqtidorli rassomlarning yelkama-elka turib xizmat qilganidan dalolat beradi. Bu hududlarda ishlangan idishlar doira shaklida va oq rangda bo'lib, o'rtasiga arabiy harflardan qushlarga o'xshatib nafis rasm chiziladi, chetlarini esa jimjimador qilib yozilgan bir necha ibratli so'zlar bezab turadi. Ayrim hollarda tovoqlarning sathi oqligicha qoldirilishi ham ularga o'ziga xos go'zallik baxsh etadi.

Milodiy X asrga tegishli Afrosiyob idishlari ham yashil, och yashil, jigarrang, qizil, qora va sariq ranglari hamda ramziy ma'no anglatuvchi qushlar va baliqlarning tasviri tushirilgan naqshlari bilan yer yuzining boshqa o'lkalarida ishlangan idishlardan yaqqol ajralib turadi. Samarqandda mohir ustalar tomonidan ishlab chiqilgan bu idishlar kulolchilik san'atining noyob va benazir durdonalari hisoblanadi.

Qohiradagi Islom san'ati muzeyi Movarounnahr diyorida keltirilgan sopol va chinni idishlarning bir majmu'asini asrab-avaylab saqlab kelmoqda. Ushbu e'zoz-e'tiborga molik bo'lgan majmuani o'rganish asnosida alohida ta'kidlaymizki, biz yuqorida keltirgan Movarounnahr kulolchilik san'ati tarixining muhim davri (403/1009)ga tegishli xususiyatlar va o'ziga xos jihatlarni olimlar, mutaxassislar va tarixchilar ham e'tirof etishgan" [3].

Qadimshunos olimlar Qoraxoniylar hukmronligi ostida bo'lgan Farg'onaning qadimgi shaharlari hududlaridan ko'plab xumdon va kulolchilikka doir asbob-uskunalar topganlar. Bu borada G.P.Ivanovning qadimgi Qubo (Quva) kulolchiligi borasida keltirgan fikrlari diqqatga sazovordir.

Markaziy Osiyodagi chorvador-ko'chmanchi aholining moddiy madaniyatga ta'siri ko'plab kuzatilgan. Bu narsa VI-VIII asrlardagi Quva va vodiylar kulolchiligiga ham ta'sir etgan. Bu jarayon asta-sekin sopol idishlardagi turk-so'g'd xillarining paydo bo'lishida seziladi. Qolaversa, VI asrdan e'tiboran sifatli Farg'ona angobi kamayib ketadi va har xil dastali idishlar (yog'log'i va boshqalar) paydo bo'ladi. Quvadagi ko'plab idishlar metall va yog'ochdan yasalgan idishlarga taqlidan kulolchilik idishlari tayyorlangan.

Markaziy Osiyoda IX asrdan boshlab sirlangan sopol idishlar paydo bo'ladi. Bu narsa Farg'ona vodiysini ham chetlab o'tmadi. Sopol tayyorlashdagi bu yangi usul vodiya juda tez tarqaldi. Odatda geometrik va o'simlik naqshlari, ba'zida bir oz murakkab motivlar ham paydo bo'ladi. X-XII asrlarda Quvada tayyorlangan sopol idishlar o'zining nafisligi, chiroyliligi va sifati bilan ajralib turgan.

Quvanning sirlanmagan kulolchilik idishlari ham juda sifatli bo'lgan. Ularga kesib, tirnab yoki o'yib turli gullar solingan" [4].

Sopol idishlarning ba'zilariga afsonaviy va yirtqich hayvonlar hamda xonaki qush tasvirlari tushirilgan. Axsikent hunarmandlari bu davrda sirli sopol idishlarni bezash va sirlash borasida o'ziga xos maktab yaratdi. Buning mahsuli bo'lgan ajoyib naqshindor va chinnidek jiloga ega idishlarning namunalari Yevropaning eng nufuzli muzeylarida, jumladan Parijdagi Luvr Davlat muzeyida saqlanmoqda [5].

Kulolning dastgohi tepada bir tuynukchasi bo'lgan qorong'i uyga o'rnatilgan edi. Dastgohning o'zi esa yog'ochdan qilingan va o'zaro ma'lum masofada turgan ikkita charxdan va ularning markazlaridan tikka bo'lib o'tgan o'qdan iborat [6]. Uning ostidagi katta charx oyoq bilan aylantirilsa, ustidagi kichik charx ustiga qo'yilgan loy ham aylanar va kulol ikki qo'li bilan ushlab turib, unga istalgan shakl berardi.

XIX asrga kelib O'rta Osiyoda kulolchilik juda keng rivojlanib, G'ijduvon, Samarqand, Toshkent, Rishton va Xorazmda kulolchilik markazlari paydo bo'ladi. Ular sopolidishlarni sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ko'pgina kulolchilik ustaxonalari, artellar tashkil etildi. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimtir, qizil loykor turlari bo'ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o'zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi:

Loyi guldon - sershirali loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo'lib, jusha loyi qo'shilgan bo'ladi.

Chinni loy yoki oq loy – yarimfoyans bo'lib, qoramtir loy, oqtosh va ishqor qo'shib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan va boshqa buyumlar tayyorlanadi.

Kesma koshin loy – o'tga chidamli qoramtir loydan tayyorlanadi. Undan har xil mozaikali koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy – shirachli loyga kvars qumi qo'shib, undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

Kosagar loy – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog' tuproqqa qamish qozg'og'ini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

Ko'zagar loy – 60-70% plastik yog'li loy va 30-40% sog' tuproqdan iborat bo'ladi. Undan xum, guldon, ko'za va boshqalar tayyorlanadi.

Barcha kulolchilik idishlari vertikal, tik o'qqa joylashtirilgan, ikkita aylana yog'och g'ildirakdan iborat kulolchilik dastgohi - charxda shaklga kiritilgan. Charx asosiy qurol bo'lib, u katta va kichik yog'och g'ildirakdan iborat bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kulolchilik hunari asosan o'troq turmush tarzi bilan kun kechiradigan aholi orasida keng taraqqiy qilgan bo'lib, asosan tosh va shunga o'xshash qattiq materiallar tanqis bo'lgan xududlarda bu kasbni rivojlanganiga guvoh bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулахатов Н., И.Тошпўлатов, У.Носирова, У.Жўрабоева. Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. Т., “Янги аср авлоди”, 2013, -Б. 59.
2. Абдулахатов Н., И.Тошпўлатов, У.Носирова, У.Жўрабоева. Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. Т., “Янги аср авлоди”, 2013, -Б. 60.
3. Доктор Кавсар Абул Футуҳ ал-Лайсий. Мовароуннаҳрда кулолчилик. Арабчадан Фарида Ходжаева таржимаси // Имом ал-Бухорий сабоқлари. Тошкент, 2007. – № 1. 52-53-б.
4. Иванов Г.П. Қадимги Кува шаҳри // Фарғона водийсининг қадимий шаҳарлари. Т.,2008. 90-91-б.
5. Анорбоев А. Қадимги ва ўрта асрларда Ахсикент // Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. –Т.: “Фан”, 2001. 22-б.
6. Абдулахатов Н., И.Тошпўлатов, У.Носирова, У.Жўрабоева. Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. Т., “Янги аср авлоди”, 2013, -Б. 64.

O'ZBEKISTONDA AYOLLAR HUQUQLARINING HIMOYA QILINISHI MASALASI (BUXORODAGI “OYDIN NUR” IJTIMOY-HUQUQIY HIMOYALASH MARKAZI MISOLIDA)

M. Kazakova, mustaqil izlanuvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatidagi “Oydin nur” ijtimoiy- huquqiy himoyalash markazi, uning faoliyati, mamlakatimizda gender tenglik, ayollar huquqlari masalasiga bo'lgan e'tibor, buxorolik olim Salixova Mavlida Narzullayevna haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: “Oydin nur”, ijtimoiy-himoya, ayollar huquqlari, zo'ravonlik, tazyiq, huquqiy himoya.

Аннотация. В данной статье представлена информация о центре социально-правовой защиты «Ойдин Нур» в Бухарской области, его деятельности, внимании к вопросу гендерного равенства, прав женщин в нашей стране, бухарском ученом Салиховой Мавлиде Нарзуллаевне.

Ключевые слова: «Ойдын Нур», социальная защита, права женщин, насилие, притеснение, правовая защита.

Abstract. This article provides information about the "Oydin Nur" social and legal protection center in Bukhara region, its activities, attention to the issue of gender equality, women's rights in our country, Bukhara scientist Salihova Mavlida Narzullayevna.

Key words: "Oydin Nur", social protection, women's rights, violence, oppression, legal protection.

Kirish. Gender tenglikni ta'minlashga nisbatan hozirda mamlakatimizda qo'llanilayotgan yangicha yondashuvning o'ziga xos jihati institutsionalizatsiya jarayonining jadallashuvi bilan bog'liq. Bu bejiz emas. Chunki bu o'rinda gender sohasida aniq vazifalar yuklatilgan yangi tuzilmalarni shakllantirish barqaror faoliyat yurituvchi va o'z oldiga qo'yilgan muhim maqsadlarni og'ishmay, izchil amalga oshiruvchi institutlarning butun bir yaxlit tizimga birlashishiga olib keladi. Bu esa qisqa muddatlarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi real tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida kichik tadqiqot sifatida o'rganilayotgan ushbu mavzuning mazmunini ochib berishda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro hujjatlar va konvensiyalar, “Oydin nur” ijtimoiy markazi asoschisi va ishchi xodimlari bilan bo'lgan ushrashuv, suhbatlar bayoni, jurnal va gazetalardagi maqolalar, shuningdek, internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, obyektivlik, xolislik, ma'lumotlarni analiz va sintez qilish usul va metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ayol huquqlari inson huquqlari sohasidagi ko'plab xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar va harakatlar dasturlarida kafolatlangan asosiy inson huquqlaridan biridir. Xotin-qizlar huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnoma Birlashgan Millatlar Tashkiloti(BMT)ning ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyasi [2] (CEDAW) va uning Fakultativ protokoli hisoblanadi. Bundan tashqari, ayollar huquqlari BMTning boshqa shartnomalarining, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Irtiy kamsitishga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya singari muhim hujjatlardir.

O'zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim himoya qilish va ta'minlashga alohida e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib, 1995-yil 6-mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyasiga a'zo bo'lib kirgandi [3]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Onalikni himoya qilish to'g'risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to'g'risidagi Konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

XX asr so'nggi o'n yilligida mustaqil O'zbekistonda hali faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar u qadar ko'p emas edi. 1999-yil 14-aprelda 763-I-son Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi [4] O'zbekiston bo'ylab ko'plab markazlarning tuzilishiga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Ko'p o'tmasdan ayollarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil qonunchilik va boshqa chora-tadbirlar tufayli ularning o'z huquq va erkinliklarini, tadbirkorlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va ijtimoiy-siyosiy sohalaridagi faoliyatlariga yordam beruvchi **“Nihol”**, **“Qalb nuri”** (Jizzax), **“Istiqbolli avlod”** (Xorazm), **“Fuqarolik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash markazi”** (Farg'ona), **“Oydin nur”** (Buxoro) va shu kabi boshqa markazlar faoliyati yo'lga qo'yildi [5].

Oilada sog'lom muhitni shakllantirish, xotin-qizlarning psixologik-huquqiy bilimlarini oshirish, ijtimoiy muammolarni asoratsiz yechishga ko'maklashish orqali barkamol oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishni o'z oldiga maqsad qilgan **“Oydin nur”** oilani ijtimoiy, huquqiy himoyalash markazi 1999-yil avgustda Buxoroda tashkil etildi.

“Oydin nur” nodavlat notijorat tashkiloti zo'ravonlik yoki tazyiqqa duch kelgan aksariyat ayollarga huquqiy va psixologik yordam ko'rsatib, vaqtinchalik boshpanaga ega bo'lish hamda kasb-hunar egallashiga yordam berishni o'zining asosiy vazifasi deb belgiladi. Markaz xodimlari ish bilan band bo'lmagan ayollarni, hattoki ishga joylashtirishda ham amaliy yordam berishdi va ushbu xayrli vazifani hamon davom ettirib kelmoqda [6].

Xalq manfaatiga xizmat qiluvchi ushbu tashkilot Salixova Mavlida Narzullayevna boshchiligidagi Buxoro davlat universiteti va Buxoro muhandislik texnologiya institutining bir qator faol ayol o'qituvchilari tashabbus bilan tashkil qilindi. Oilani ijtimoiy himoya qilish markazi rahbarligiga ham keyinchalik Mavlida Salixova tayinlanadi.

Buxorolik faol va jamoatchi ayollaridan biri sifatida aholi orasida tanilgan Salixova Mavlida dono, zukko, ijtimoiy va huquqiy jihatdan yetuk va barkamol, kreativ yondashuvlarga intiluvchan ayol bo'lib, 1984-yil Kiyev (Ukraina)da **“Matematika o'qitish metodikasi”** mavzusida pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan. Olima 1985-1992-yillarda Buxoro davlat pedagogika instituti (hozirgi BuxDU)da dotsent, 1992-1999-yillarda Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasida kafedra mudir sifatida faoliyat yuritgan. **“Oydin nur”** ijtimoiy markazini tashkil qilingandan so'ng, jamoa ishlariga sho'ng'ib ketib uning faoliyati rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan va 1999-2015-yillarda markaz rahbari lavozimida samarali faoliyat yuritdi.

2001-yil Buxoro viloyati **“Oydin nuri”** xotin-qizlar krizis Markazi nomi ostida Nodavlat notijorat tashkiloti(bundan keyin NNT) ustavini ro'yxatga olganligi to'g'risidagi 46-raqamli guvohnomasiga ega bo'lgandan so'ng, faoliyatini kengaytirishni boshladi. Viloyatdagi iqtisodiyotning rivojlanishi jarayonida ayollarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oilaviy va ijtimoiy muammolarni hal qilish masalasini asosiy vazifa sifatida belgiladi. 2004-yilda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini o'rganish maqsadida tuzilgan ishchi guruh o'rganishlari va amalga oshirilgan ishlar samaradorligi, davlat tomonidan ajratilgan moddiy rag'batlantirishlarning maqsadsiz sovrilgani, belgilangan nizom va maqsadlariga muvofiq sa'y-harakatlarni bajarmaganligi sababli 60 foizga yaqin tashkilotlar faoliyatlariga chek qo'yildi. Xotin-qizlarning haq-huquqlari va ijtimoiy muammolarini bartaraf etishga harakat qilib kelayotgan **“Oydin nur”** markazi esa 2004-yilda 125-raqamli guvohnoma asosida **“Oydin nuri”** xotin-qizlar inqiroz markazi sifatida faoliyatini davom ettirdi. Demak **“Oydin nuri”** xotin-qizlar tashkiloti avval boshdanoq o'z faoliyatini aniq va to'g'ri yo'lga qo'yganligini tarixiy jarayonlar isbotladi.

“Oydin nuri” xotin-qizlar inqiroz markazi 3 yil davomida viloyat miqyosida oilada sog'lom muhitni shakllantirish bo'yicha seminar, treninglar, o'quvlar, davra suhbatlari, bir qancha lohiya va tadbirlarni tashkil etib, 4 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatladi, shuningdek, yuridik, psixologik maslahatlar berildi.

2007-yil 27-sentabr kuni Mavlida Salixova rahbarligidagi Buxoro viloyat **“Oydin nur”** oilani ijtimoiy himoyalash markazi nomi bilan Adliya vazirligi ro'yxatidan 125-π tashkilot raqamli guvohnomasi olindi. Aynan shu sanadan boshlab markaz faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi [7].

2008-2009-yillarda jami 5 ta respublika va xalqaro tanlovlarda o'z loyihalari bilan ishtirok etgan markaz **“Oiladagi nizolarni bartaraf etish yo'llari”** va **“Ayollarni qo'llab-quvvatlash”** loyihalari

ekspertlar tomonidan ijobiy baholanib, grant sohibiga aylandi. 2012-yilda O'zbekistondagi hududiy NNT larning ijtimoiy ahamiyatli loyihalarini qo'llab-quvvatlash grant dasturi doirasida "Ijtimoiy ko'mmakka muhtoj oilalarga xizmatlar ko'rsatish jarayonlariga NNTlarni jalb etish" granti sohibiga aylandi. Hatto lohiya BMT taraqqiyot dasturi doimiy vakili o'rinbosari Yako Silliers tomonidan alohida e'tirofga sazovor bo'ldi [8].

2012-yil PROLON va USAID xalqaro tashkilotlari tomonidan ham "Oydin nur" ijtimoiy markaziga grantlar ajratilib, boshpanasiz xotin-qizlar, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni turar-joy bilan ta'minlash ishlariga yo'naltirildi.

2015-yil "Oydin nur" ijtimoiy himoya markaziga Buxoro shahri markazidan joy ajratildi [9]. Bu uyushma boshpanasiz og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, oilaviy, maishiy tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rayotgan, odam savdosi qurboni, mehnat muhojirlariga xizmat ko'rsatadi. Hozirgi kunda ushbu ijtimoiy himoya markazida 23 kishi yashamoqda.

Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Tanzila Norboyeva 2018-yil 9-sentabrda "Zo'ravonlik to'g'risida ochiq aytilmoqda" mavzusida Facebook tarmog'ida post e'lon qilingandan so'ng bu masalaga yuqori darajada e'tibor kuchaydi [10]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi «Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5116 sonli qarori bilan 1 ta Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha Respublika markazi, 14 ta hududiy markazlar va 14 ta namunali tumanlararo markazlari hamda zo'ravonlik qurbonlari murojaat qilishi mumkin bo'lgan 1146 qisqa raqamli «Call-center» tashkil etildi. Xususan, statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, "Oydin nur" markaziga ayollardan 2020-yilda hafta davomida 10-12 kishi, 2022-yilda esa 20-30 tagacha murojaat kelib tushdi.

2019-yil 2-sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi [11]. Qonunda "jins bo'yicha bevosita kamsitish" va "jins bo'yicha bilvosita kamsitish" tushunchalariga ta'rif berildi, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning loyihalarini majburiy huquqiy ekspertizasi, gender statistikasi yuritilishi joriy etildi. "Oydin nur" ijtimoiy himoyalash markazi ham ushbu qonun ijrosini ta'minlash borasida o'z xizmatlarini yangi bosqichga davom ettirib kelmoqda.

Xulosa. Mushkul ahvolga tushgan, zo'ravonlik va tajovuzdan aziyat chekayotgan, odam savdosi qurboniga aylangan, ijtimoiy turmush sharoiti o'ta og'ir, jabr ko'rgan ayollarga har tomonlama yordam, yuridik va psixologik maslahatlar berish bilan "Oydin nur" markazi 23 yildan buyon beminnat xizmat qilib kelmoqda. Bugunga qadar 18 ming 130 nafar xotin-qiz "Oydin nur" tashkilotiga murojaat qilgan bo'lsa, 9 ming 968 tasiga yuridik maslahat, 5 ming 150 nafariga ijtimoiy yordam, 3 ming 12 kishiga psixologik maslahat xizmatlari ko'rsatilgan. 2007-yildan 2022-yil noyabrgacha 1 ming 200 nafar xotin-qiz markaz yordamida boshpanaga ega bo'ldi. Xullas, "Oydin nur" ijtimoiy markazi Buxoro xotin-qizlari muammolarini hal etishda sog'lom ijtimoiy muhitni yuzaga keltirishda o'zining samarali hissasini qo'shib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/ayollarga-nisbatan-zoravonlikning-oldini-olish-tahlillar-nimani-korsatmoqda>
2. <https://lex.uz/docs/-2685528>
3. <https://advice.uz/oz/document/2699>
4. <https://lex.uz/acts/-11360>
5. <https://ijtimoiy.uz/1804/>
6. <http://ngo.uz/uz/oydin-nur-begaraz-yerdam-nodavlat-notizhorat-tashkiloti>
7. Кудратов А. "За счастье каждой женщины"//Бухарский вестник, 2019 йил 15 июн, №47, С.3.
8. Salixova Mavlida Narzullayevna bilan bo'lgan suhbatdan, Buxoro, 2022-yil 15-oktyabr
9. Vazirlar Mahkamasining 2011-yildagi 146-son Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun yer uchastkalari berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi ijrosi natijasida
10. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/09/09/ayollar/>
11. <https://lex.uz/docs/-4494849>

AKADEMIK AZIZ QAYUMOV – QADIMGI TURKIY YOZMA YODGORLIKLAR TADQIQOTCHISI

Sh.A.Qarshiyeva, doktorant, Guliston davlat universiteti, Guliston

Annotatsiya. Maqolada qadimgi turkiy adabiyot bilimdoni, tadqiqotchisi va targ'ibotchisi, akademik Aziz Qayumovning qadimgi turkiy yozma yodgorliklar yuzasidan amalga oshirgan tadqiqot ishlari, asarlari ilmiy tahlil qilindi. Olimning turkologiya sohasidagi xizmatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Qadimgi turkiy adabiyot, O'rxun-Enasoy obidalari, Aziz Qayumov, S.E.Malov, I.V.Stabelova, "Qadimiyat obidalar", "Qadimgi hikmatlar", Nasimxon Rahmonov.

Аннотация. В статье научно проанализированы исследования и труды древнетюркского литературоведа, исследователя и пропагандиста, академика Азиза Каюмова по древнетюркским письменным памятникам. Были изучены заслуги ученого в области тюркологии.

Ключевые слова: Древнетюркская литература, Орхун-Энасойские памятники, Азиз Каюмов, С.Э.Малов, И.В.Стабелова, «Древние памятники», «Древняя мудрость», Насимхан Рахмонов.

Abstract. The article scientifically analyzes the studies and works of the ancient Turkish literary critic, researcher and propagandist, academician Aziz Kayumov on ancient Turkish written monuments. The merits of the scientist in the field of Turkish studies were studied.

Key words: Ancient Turkish literature, Orkhun-Enasoy monuments, Aziz Kayumov, S.E.Malov, I.V.Stabelova, "Ancient monuments", "Ancient wisdom", Nasimkhan Rakhmonov.

O'zbekistonda qadimgi yozma yodnomalar yuzasidan akademik Aziz Qayumov amalga oshirgan ishlar ahamiyatlidir. Qadimgi davr adabiyoti bilimdoni, targ'ibotchisi va tadqiqotchisining O'rxun Enasoy obidalarining o'rganilishi va turkologiya sohasidagi xizmatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Rus va jahon adabiyoti namunalari bilan tanishuv va tabdil qilish faoliyati
2. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqiga doir ilmiy ishlarning yozilishi.
3. O'zbekiston FA Qo'lyozmalar institutida mazkur yodgorliklarni o'rganuvchi bo'limning tashkil etilishi.
4. O'rxun-Enasoy obidalari tadqiqi yo'nalishidagi shogirdlarining yetishib chiqishi.

Rus va jahon adabiyoti namunalari bilan tanishuv bosqichi va tabdil qilish faoliyati

Ko'p qirrali olim yoshligidan adabiyotga mehr qo'yib, talabalik yillarida rus, arab, fors-tojik tillaridagi jahon adabiy namunalaridan bahraman bo'lgan. Rus va jahon adabiyotshunosligi namunalarini o'qib-o'rganganishga ishtiyoqmand bo'lgan bo'lajak mutaxassis talabalik yillarida S.E.Malovning "Памятники древнетюркской письменности" ("Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar") kitobi bilan yaqindan tanishib chiqadi. Nuktadon olim I.V.Stabelovanning "Поэзия тюрков VI-VIII вв" kitobidagi matnlarni sinchkovlik bilan kuzatadi. Shu bois toshbitiklarni tabdil qilishda olimning ilmiy bilish qobiliyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Yodnomalarni qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil qilish jarayoni haqida olimning o'zi shunday deydi: "O'sha she'rlarning o'ziga xos eshutilishi va tuzilishini ko'proq saqlashni istab, anchagina so'zlarni o'zicha qoldirishga to'g'ri keldi. Masalan, "budun" so'zi "xalq" tushunchasini bildiradi. Uni shundayicha "budun" deyishni to'g'ri deb topdim. "Yush" so'zi ham shunday bo'ldi. "Ardam"ni "odob" deb tushuntirdim. Uni o'zicha qoldirish ham to'g'ri bo'lsa kerak edi, chunki u yana "shon, shuhrat, mardlik" tushunchalarini ham beradi"[1]. Anglashiladiki, olim yodnomalarning asliyati to'g'risida qayg'uradi. Bitiktoshlardagi o'ziga xos ifoda va go'zal badiiyat, adabiy-ijodiy tafakkur tendensiyalarini yaxshi anglagan holda badiiy-estetik zavqni teran his qilgan tadqiqotchi keng kitobxonlar jamoasi va adabiyot, qadimiyat muhlislariga uni o'z holicha, aynan yetkazishga urinadi.

"Bir ming uch yuz, bir ming bir yuz yil burun yozilgan she'rlar hozirgi o'zbek tilida aniq va silliq berilishi qiyin. Shuning uchun bu tarjima ancha tushunishga og'ir, u yoki bu o'rinlarda noaniq tuyulishi turgan gap. Shularga qaramay, agar bu ish tekshiruvchilar va o'quvchilar uchun O'rta Osiyo

xalqlarining madaniyati tarixini o'rganishda ozmi-ko'pmi kerakli bo'lsa, bajarilgan ish bekor ketmabdi, deb quvonar edim" [2].

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqiga doir ilmiy ishlarning yozilishi.

Ma'lumki, ilmda katta tadqiqodlardan bo'lgan professor V.Tomsen, V.V.Radlov, S.E.Malov, I.V.Stabelova, V.V.Bartol'd L.N.Gumilyovlarning ilmiy faoliyatini muntazam kuzatib borgan olim yozma yodgorliklarning topilishi, o'rganilishi va mazmun-mohiyati, kompozitsiyasi va badiiy qiymati xususida teran mulohazalarga ega bo'lgan. Turkiy xalqlar adabiyotining ibtidosi – toshbitiklardan boshlanishi g'oyasi ilgari surilgan bu asarlar olim adabiy-ilmiy qarashlarining tadrijiga xizmat qilgan. Adabiyot ilmidagi qadimiy va nodir ilg'or g'oyalar bilan birinchilardan bo'lib tanish bo'lgan Aziz Qayumov 1972-yilda "Qadimiyat obidalari" nomli ilmiy asar yozadi. Tadqiqotchi R. Xabxonova "O'zbek mumtoz adabiyotining o'rganilishida akademik Aziz Qayumov ilmiy maktabining o'rni" nomzodlik dissertatsiyasida ushbu risolaga batafsil to'xtalib o'tadi. "Ushbu risola xalqimiz tarixi, adabiyoti va madaniyatining ildizlaridan sanalgan O'rxun-Enasoy toshbitiklari haqida qalb harorati bilan yozilgan, toshbitiklar mohiyatini oddiy o'quvchi ham anglashi mumkin bo'lgan darajada chuqur ochib bergan tadqiqot sifatida alohida ahamiyatga ega" [3] deya e'tirof etiladi tadqiqot ishida.

Asarning "O'tmish esdaliklari (Yozuvlarning topilishi)" bobida O'rxun-Enasoy obidalari batafsil izohlangan. Eng katta qabrtoshlardagi yozuvlar – Kul tegin va To'nyuquq bitiktoshlari tahlili asarning asosiy qismini tashkil etadi. Obidalarining ilm ahli uchun ham, oddiy kitobxon uchun ham birday ahamiyatli tahlili oddiy va tushunarli usulda amalga oshiriladi. To'nyuquq tilidan aytilgan ushbu fikrlar she'riy satrlarda juda sodda va ravon taqdim etilgan:

U so'zni eshitib,
Tun yana uxlagim kelmas erdi.
Kunduz o'ltirgim kelmas erdi...
Unda o'yladim.
Urushamiz... dedim.
Ko'chman yo'li bir ermish,
Qor ko'chmish deb eshitib,
Bu yo'ldan yurish yaramas dedim [4].

Shuningdek, kitobda muallif tomonidan Enasoy daryosi bo'yidan topilgan toshbitiklar to'g'risida xabar bergan olimlarning xizmati, XIX asrning birinchi choragida sirli yozuvlar to'g'risida ma'lumot to'plagan Grigoriy Spasskiyning "Сбирский вестник" jurnalidagi maqolasi haqidagi fikrlar qayd etiladi. Obidalarining N.M.Yadrinsev tomonidan topilishi, V.Tomsen sa'y-harakatlari bilan o'qilishi haqida ma'lumot beriladi. O'zbekistonda O'rxun-Enasoy obidalarining o'rganilishida munosib xizmat qilgan Oybek, N.Mallayev, O.Sharafiddinovlarning ilmiy mehnatlari e'tirof etiladi. Aziz Qayumovning ushbu asari yodgorliklarning asl mohiyati teran ochib berilganligi, obidalarining adabiy-estetik qiymati ko'rsatilganligi, mavjud ilmiy faktlar ommabop usulda bayon etilgani bilan qimmatlidir.

Tadqiqotchi o'zining "O'zbek adabiyoti tarixi" nomli besh jildlik kitobining birinchi jildida "Irg' bitigi" xususidagi ilmiy-nazariy fikrlarini bayon etadi. Asarning mazmun-mohiyati, kompozitsiyasi, g'oyasi va badiiyatiga diqqat qaratadi. Shuningdek, bitigni shomonlik oqimi ta'sirida yozilgan badiiy yodnoma va qadimgi turkiy adabiyotdagi yuksak ijod namunasi sifatida yuqori baholaydi.

Adabiy manbalardan ma'lumki, ulug' qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariy O'rta Osiyo va uning atrofidagi turkiy xalqlar yashagan o'lkalarni kezib chiqqan. Sayohatlari asosida turkiy xalqlar tilidan yozib olingan va 1069-yilda tugallangan "Devonu lug'atit turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asari nafaqat turkiy tilshunoslik tarixi balki, qadimgi turkiy badiiy ijod haqida ham tasavvur uyg'otadi. Asardagi she'riy parchalarni olim Aziz Qayumov hozirgi o'zbek tili bayon qilib nashrga tayyorlagan. Bu kitob "Qadimiy hikmatlar" deb ataladi. Uni tuzuvchi professor, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tadqiqotchisi Nasimxon Rahmonov hisoblanadi. Asarning mas'ul muharriri Aziz Qayumov. Kitobda dastlab O'rxun bitiklari bobi keladi. Bobning kirish qismida muallif N.Yadrinsevning 1889-yildagi Mo'g'ilistonga qilgan ekspiditsiyasi va Qoraqurum xarobalaridan

topilgan yodnomalar haqida qayd etadi. “Ularni juda qiziqtirgan narsa, ayniqsa, yozuv bitilgan toshlar bo‘ldi” [5] deb yoziladi kitobda. Dastlabki topilgan bitiklarning orqasidagi xitoycha matndan bitiktoshlarning turk xoqonlariga tegishli ekanligi ayon bo‘lganligi aytiladi. Shunday bo‘lsa-da, yodnomalardagi yozuvlarni hech kim o‘qiy olmaganligi, ko‘p yillik izlanishlardan so‘ng daniyalik olim V.Tomsen tomonidan o‘qilganligi bayon etiladi. Bu kabi ilmiy faktlar har ikki kitobda ham deyarli o‘xshash. Bu, albatta, ilmiy ma’lumotlarning axborot tarzida berilishi nuqtai nazaridan e’tirozlarga sabab bo‘lmaydi.

“Qadimiy hikmatlar”da O‘rxun-Enasoy obidalarining turkiy xalqlarning ilk yozma adabiyot namunasi sifatidagi badiiy qiymati ta’kidlanadi. Bitiglarda tasvirlangan voqealar tarixiy haqiqatlar asosiga qurilgan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi motivlari bilan o‘zaro uyg‘unlik kasb etishi ilmiy asoslanadi. Bu turkiy yozma adabiyotning alohida bir turini yuzaga keltirganligi muhim adabiy hodisa sifatida e’tiborga molik jihat ekanligi qayd etiladi. Muallifning fikricha, obidalarda qahramonlik, insonparvarlik, xalqchilik tendensiyalarining markaziy o‘ringa chiqishi alohida ahamiyatli. Kitobda Kul tigin bitiktoshi haqida, asarning mazmun-mohiyati, obrazlar tizimi, voqealar va tasvirlar silsilasi yuzasidan muallifning ilmiy qarashlari tarixiy va badiiy fonda keltiriladi. Shundan so‘ng asar matni bilan tanishish mumkin.

Bilga xoqon bitigi, Ungin bitigi, Moyun chur bitiglarining topilish o‘rni, qisqacha mazmun-mohiyati, kimlarga bag‘ishlanganligi kabi ilmiy ma’lumotlar asar davomida bayon etiladi. Kitobning Enasoy bitiktoshi bobida Enasoy bitiglarining topilishi, nomlanishi va O‘rxun bitiklari bilan umumiylik xususiyati va farqli jihatlari haqida ilmiy-nazariy mulohazalar keltiriladi. Asardagi vatan va vatanparvarlik pafosining badiiy-emotsional fonda namoyon bo‘lishi kitobxon ruhiyatiga ayricha ta’sir etishi ochiqdan. Bu bitiklarning yumaloq, to‘g‘ri burchakli kabi turli shakldagi va granit (yalitroq qimmatbaho) toshlarga hamda ba’zilar metal, kumush, oltin idishlarga, qoyalarga yozilganligi, ularning topilish jarayonlari, saqlanish o‘rni haqida tarixiy-ilmiy faktlar keltiriladi.

“Qadimiy hikmatlar”da, shuningdek, Eletmish bilga xoqon yodnomasi, Uyuq turan yodnomasi, Elegeshdan topilgan yodnoma, Begra yodnomasi, Chako‘l yodnomasi, Oznachennaya qishlog‘idan topilgan yozuv, Achur qishlog‘idagi yodnoma, Oltinko‘l birinchi yodnomasi, Oltinko‘ldagi ikkinchi yodnomasi va Uybat yodnomasi kabi bitiktoshlarning matni keltirilgan. Badiiy matn talablariga to‘la mutanosib bo‘lgan yodnomalardagi tasvir vositalari, syujet elementlari, ifoda usuli va qurilish sistemasi bitiktoshlarning kompozitsion tugal asar ekanligidan dalolat beradi.

Olim Aziz Qayumov mashhur turk qahramoni, sarkarda Alp Er To‘nga marsiyasini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridan olib sayqallaydi. Bu marsiya Aziz Qayumovning “Qadimiyat obidalar” va “Qadimiy hikmatlar” kitoblarida o‘sha davr adabiy qoidalari asosida tahlillar bilan taqdim etiladi. Qadimgi turkiy adabiyot tadqiqotchisining G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti tomonidan 1987-yilda nashr etilgan ushbu kitobi o‘z vaqtida zaruriy darslik sifatida keng va ko‘p foydalanilgan. Ahamiyatlisi, ushbu manba bugungi kunda ham buyuk adabiyotimizning ildizlarini uzoq o‘tmishdan o‘rganish imkonini berib kelmoqda.

O‘zbekiston FA Qo‘lyozmalar institutida mazkur yodgorliklarni o‘rganuvchi bo‘limning tashkil etilishi

Olim o‘zining amaliy sa’y-harakatlari bilan ham O‘rxun-Enasoy obidalarining o‘rganilishida jonbozlik ko‘rsatgan. Bu haqida Qosimjon Sodiqov yozadi: “Domla (Aziz Qayumov)ning tashabbusi bilan o‘zbek ilmida ulug‘ bir ish boshlandi. Qo‘lyozmalar institutida O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozma yodgorliklarini o‘rganish bo‘limi tashkil etildi. Ushbu yo‘nalishda boshlab uch nafar mutaxassis tayyorlandi. Mirsodiq Ishoqov – sug‘d yozuvi va uning yodgorliklari, Nasimxon Rahmonov – ko‘k turk (turkiy run) obidalar hamda men qadimgi uyg‘ur yozuvi va unda yaratilgan yodgorliklarni o‘rganishga kirishdik... Aziz Qayumov o‘z rahbarligi davomida O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozma yodgorliklarini o‘rganish ishiga katta e’tibor qaratdi, respublikamizda bu sohaning rivojlanuvi uchun qo‘lidan kelganini qildi” [6].

Albatta, bu fikrlar olimning turkiy adabiyotning eng qadimgi yozma yodgorliklarini tadqiq qilish, keng jamoatchilik orasida ommalashtirish bilan bir qatorda o‘zbek turkologiyasining shakllanishiga jiddiy xizmat qilganligidan dalolat beradi.

O‘rxun-Enasoy obidalarini tadqiq yo‘nalishidagi shogirdlarining yetishib chiqishi

Aziz Qayumov tomonidan tashkil etilgan ilmiy maktabning ahamiyati yuqori. Akademik o'z atrofidagi shogirdlari – tadqiqotchilarni doimiy kuzatib, ularga qo'ldan kelgan amaliy-nazariy ko'magini berib kelgan. Olim adabiy-ilmiy qarashlari, badiiy-estetik tafakkuri bulog'idan suv ichgan ilmiy izlanuvchilar, ustoz mulohazalarini davom ettirishga ishtiyoqmand bo'lishgan. Buning natijasida qadimgi yozma yodgorliklarni tadqiq qilish maydoniga Otaxo'ja Azizxo'jayev, yozma yodgorliklarning til xususiyati bo'yicha Baxtiyor Abdushukurov, Quadratulla Omonov, Qosimjon Sodiqov, yodgorliklar poetikasi bo'yicha Nasimxon Rahmonov, Muzaffar Mamatqulov kabi yirik olimlarning kirib kelgani va ular bugun ham bu sohaning rivoji uchun munosib xizmat qilishayotgani e'tiborlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1972-y. 134-b
2. Qayumov A. Kul tegin yodgorligidagi kichik yozuv. Asarlar. 10 jildlik. 10-jild. Toshkent. Mumtoz so'z.
3. Xoboxunova R. "O'zbek mumtoz adabiyotining o'rganilishida akademik Aziz Qayumov ilmiy maktabining o'rni" nomzodlik diss. Andijon. 2020-yil
4. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1972-y. 160-b
5. Qayumov A. Qadimiy hikmatlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent. 1987-y. 16-bet
6. Sodiqov Q. O'zbek filologiyasining kelajagini o'ylagan inson. / Fidoiy olim va benazir inson. – Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi. -B.59

UO'K 94(575)

SHAYBONIYLAR SULOLASI HUKMRONLIGI DAVRIDA XIVA VA BUXORO XONLIKLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI TARIXIDAN

Sh.Rahmonova, o'qituvchi, Ma'mun Universiteti, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shayboniyxonning hokimiyat tepasiga kelish arafasidagi Mavoraunnaxrdagi siyosiy vaziyat, Buxoro va Xiva xonliklarining tashkil topishi va o'zaro munosabatlari tarixi masalalari ilmiy adabiyotlar asosida ko'rib chiqilgan.

Калит сўзлар: Amir Temur, Mavoraunnaxr, Samarqand, Buxoro, Xorazm, siyosiy vaziyat, Xiva xonligi, Buxoro xonligi, Muhammad Shayboniyxon, Elbarsxon, Abdullaxon, Abulg'ozixon, Subxonqulixon, Anushaxon, elchi, savdo, hunarmandchilik.

Аннотация. В данной статье на основе научной литературы рассматривается политическая ситуация в Маворауннахре накануне прихода к власти Шайбани-хана, исторические вопросы образования и взаимоотношений Бухарского и Хивинского ханств.

Ключевые слова: Амир Темур, Мавораннахр, Самарканд, Бухара, Хорезм, политическая обстановка, Хивинское ханство, Бухарское ханство, Мухаммад Шайбани хан, Эльбар хан, Абдулла хан, Абулгази хан, Субхан Кули хан, Ануша хан, посол, торговля, ремесла.

Abstract. In this article, the political situation in Mavoraunnahr on the eve of Shaibani Khan's coming to power, the historical issues of the establishment and mutual relations of the Bukhara and Khiva khanates are considered on the basis of scientific literature.

Key words: Amir Temur, Mavorannakhr, Samarkand, Bukhara, Khorezm, political situation, Khanate of Khiva, Khanate of Bukhara, Muhammad Shaibani Khan, Elbar Khan, Abdullah Khan, Abulgazi Khan, Subkhan Quli Khan, Anusha Khan, ambassador, trade, crafts.

Temuriylar davlati inqirozidan so'ng Mavoraunnaxrda siyosiy vaziyat ancha keskinlashgan. Bu davr ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va o'rganilmoqda. Bir so'z bilan aytganda Buxoro va Xiva xonliklarining tashkil topishi, bu ikki davlat sulola vakillari o'rtasida kechgan o'zaro aloqalar bilan bog'liq tarixi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bu vaqtga kelib Xorazm Shayboniyxon hujum qilgan davrda Xuroson tarkibida edi. Uning vafotidan so'ng Eron safaviylari tasarrufiga o'tgan. Biroq xorazmliklar safaviylar hukmronligiga qarshi kurashib ozodlikka erishishgan. Xorazmning hukmdori qonuniy maqomga ega bo'lishi muhim edi. Shu sababli mustaqillik uchun kurashning rahnamolari Xorazm taxtiga Dashti Qipchoqdagi

Shaybon avlodidan bo'lgan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni taklif etdilar. Berka Sultonning xonadoni Shayboniylar bilan bir shajaradan bo'lsa-da, bir –biriga dushmanlik munosabatida edilar. 1480-yil o'zaro toj-u taxt uchun kurashda Muhammad Shayboniyxon tomonidan o'z bobokaloni Shaybonxon avlodiga mansub Berka Sultonning o'ldirilganligi buning sabablaridan biri edi. Markaziy Osiyodagi bu ikki o'zbek davlati- Buxoro va Xiva xonligi o'rtasida o'zaro sovuq munosabatlar hukm surdi. Buning asosiy sababi xonliklarning bosqinchilik urushlari hisobiga kengaytirishga urinishlari bo'lsa, ikkinchisi, Buxoro-Xiva xonligi hukmron sulolalarning bir-biriga g'anim bo'lib qolgan xonadonlarga mansubligi edi. Buxoroda Ubaydullaxon Shayboniylar sulolasini saqlab qolish va uni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Buxoro uning davrida poytaxt maqomiga ega bo'lgan va Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi. Bu paytda Movarounnahr butunlay shayboniylarga tobe bo'lgan. O'sha vaqtlarda hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning katta qismi, Balx va Badaxshon kirgan.

Ubaydullaxon Shayboniyxon davridagi sarhadlarni qayta tiklashga harakat qildi. U Hirotni ishg'ol etib, qizilboshlarni bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan edi. 1537-1538-yillarda Xorazmga hujum qilib qisqa vaqt Xiva xonligini Buxoroga bo'ysundirgan va o'g'li Abdulazizni Xorazmga noib etib tayinlaydi. Biroq bu ahvol uzoq davom etmadi. Erksevar Xorazm xalqining ozodlik kurashi natijasida mamlakatning mustaqilligi tiklandi. Ubaydullaxon yuborgan qo'shin esator mor keltirildi. Abdulazizxon Buxoroga qochib kelishga majbur bo'ldi. Keyingi hukmdorlar davrida ham bu ikki xonlik o'rtasidagi adovat va g'animlik to'xtamadi. 1594-1596-yillarda Abdullaxon II tomonidan Xorazm egallanganini ko'rishimiz mumkin. Bu davrda yangi tashkil etilgan Xorazmda markazlashgan va yagona hokimiyatning yo'qligi bu davlatni bo'ysundirishni maqsad qilgan davlat hukmdorlarining manfaatiga mos kelardi. Buxoro xonlarining Xorazmga yurishlari xususan, ular tomonidan ko'plab o'zbek urug'lari vakillarining olib ketilishi, aholi boshiga solingan katta miqdordagi soliqlar Xiva xonligi siyosiy barqarorligi va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga sa'lbiy ta'sir ko'rsatgan. Xiva xonlari avlodlari Buxoro hukmdorlari bilan ham qarindosh-urug'chilik munosabati bo'lsa ham, ular orasida raqobatlar davom etardi. Ba'zi bir fikrlarga qaraganda, harbiy yurishlarida Abdullaxon amakisi Pirmuhammadxonning yordamiga tayangan. Lekin manbalardagi ma'lumotlar bu fikrni to'liq tasdiqlamaydi. Pirmuhammadxon yosh Abdullaxonning tobora kuchayib borishidan cho'chidi va ungz qarshi zimdan kurashdi.

Pirmuhammadxon 1552-yili Abdullaxonni turli bahonalar bilan Balxda tutib qoldi, Nasafni esa, O'zbek sultonga in'om qildi. Lekin Abdullaxon yashirincha Balxdan chiqdi va o'sha yili Nasafni oldi. Abdullaxonning 1551-1582-yillarda olib borgan uzluksiz urushlari Shayboniyxon vafotidan so'ng mayda qismlarga bo'linib ketgan Movarounnahrni qayta birlashtirish, Shayboniyxon davlatini qayta tiklash, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga qaratildi. Bunda deyarli hamma o'zbek qabilalari, Jo'ybor shayxlari va ruxoniylarining yordamiga tayandi. U Shayboniy sultonlar va yirik feodallarning boshboshdoqligi bilan shafqatsizlarcha kurashdi va hatto o'z qarindosh-urug'larini ham ayamay qirib tashladi. Bu kurashda Abdullaxon va uning o'g'li Abdulmo'mindan boshqa Abulxayrxon xonadonidan bo'lgan hamma sultonlar qirib tashlandi. Abdullaxon 40 yil hukm surdi, lekin baribir ichki feodal urush va nizolarni bartaraf qilolmadi. U davlatni qurol vositasi bilan aniqrog'i, zo'rlik bilan boshqardi. Uning vafotidan so'ng vorislari buyuk davlatchilik siyosatini davom ettira olmadilar va hokimiyatni juda qisqa vaqt o'z qo'llarida saqlab tura oldilar. Shayboniylar davlatidagi ichki ziddiyatlar ikki yo'nalishda namoyon bo'ldi. 1. Markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatlar; 2. Hukmron tabaqalar bilan mehnatkash omma o'rtasidagi ziddiyatlar.

Keyinchalik, Buxoro xoni Abdulazizning inisi Subhonquli Abulg'ozining ukasi Sharif Muhammadning kuyovi edi. Balx hokimi bo'lgan Subhonquli Abulg'oziga odam jo'natib, akasiga qarshi urushga da'vat qildi. Abdullaxon davrida qarindosh-urug'lari qoni to'kilganligini ko'p marta eshitgan Abulg'oz Buxoro ustiga yurish boshladi. Ko'kardik degan joyga yetganda xon Bekquli inoqni Qorako'l ustiga yubordi. O'zi esa 30-40-qishloqni egallagach, Buxoro darvozalari oldida paydo bo'ldi. Shu orada Bekquli ham Qorako'lni egallab, katta o'lja bilan kelib, xonning asosiy lashkarlariga qo'shildi. Xivaga qaytgan xon lashkarlariga alohida iltifot ko'rsatdi. Abulg'ozining o'zi Qorako'lga ikkinchi bor yurish qildi. Kelgusi yili Chorjo'y ham shu tariqa bo'ysundirildi va aholisi asir qilib olib ketildi [1].

1657-yilda Abulg'oz qo'shinlari Qorako'lga yurish qilib, Yoychin va Narzam degan joylarni egallab, Karmana ustiga yurish boshladi. Zarafshon daryosidan o'tgan xivaliklar shahar aholisining mol-mulkini o'lja oldilar va Abulg'oz buyrug'i bilan 15 ming qo'shin orqaga qayta boshladi. Ularni ta'qib qilgan Buxoro qo'shinlari bilan Xivaliklar o'rtasidagi to'qnashuv yeti marta takrorlandi. Xivaliklarning qutulishi mushkul bo'lib qolganda Anushaxon Abdulazizning qo'shiniga shiddat bilan hamla qildi. Qo'qqisdan boshlangan ushbu hujun natijasida buxoroliklar qo'shini parokanda bo'ldi. Ular chekinib, o'zlarini daryoga tashlay boshladilar [2].

Muhammadxon ibn Arab Qatag'on o'zining "Musaxxir al-bilod" asarini shayboniylar sulolasi va barcha hukmdorlar yurishlariga bag'ishlagan. Asarda Muhammad Shayboniyxon Xorazmga yurish qilib dastlab Tirsak qal'asini keyinroq esa Urganchni egallab, ko'plab o'ljalarni qo'lga kiritganligi keltirilgan [3].

XV asr oxiri XVI-asr boshlari Markaziy Osiyo mintaqasida yangi davlatlarning jumladan Xiva Buxoro va Qozoq xonlari hamda Eronda Safaviylar davlatining tashkil topishi hamda kuchlar nisbatining tez-tez o'zgarib turushi bilan harakterlanadi. 1510-yilda hali Elbarsxon Dashti qipchoqda bo'lib Xorazm taxtiga o'tirmagan edi. Elbars Sulton bu vaqtda Urganch hukmdori sifatida Xorazmning manfaatlarini ifoda eta olmas edi. Lekin uning eron shohi bilan hamkorligi haqiqatga to'g'ri keladi. Chunki oilaviy dushmanlik Elbars Sulton xonadonining Muhammad Shayboniyxonga qarshi chiqishga undaganligi tabiiy edi. Elbars Sulton chingiziylar avlodidan hisoblangan Arabshoh vorisi Berka Sultonning o'g'li bo'lib, uning otasi bir shajaradan bo'lishiga qaramay, dushmanlik tufayli Muhammad Shayboniyxon tomonidan o'ldirilgan edi. Shu bois dashtdagi o'z qarorgohlarida yashab qolgan Berka Sulton o'g'illari va qarindoshlari nafaqat Muhammad Shayboniyning yurishlarida ishtirok etishni istamaganlar, balki yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib uni kuchli raqib qo'li yordamida halok etishga intilganlar. Elbars Sultonning ittifoqchilarga qo'shilib Marv tomonga yo'l olganligi, bir tomondan uning Shayboniyxonga e'tiroz bildirish qudratiga ega emasligi, boshqa tomondan, bu yurishda Buxoro qo'shini bilan birga bo'lish uning siyosiy-iqtisodiy rejalari strategiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu jihatdan Elbars Sulton va Shoh Ismoil I o'rtasidagi hamkorlik aslida Muhammad Shayboniyxonga qarshi xonadon vakillarining shaxsiy manfaatlarini ifodalar edi deb xulosa chiqarish mumkin [4].

Xorazm tarixiy manbalaridan farqli ravishda Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixiga bag'ishlangan asarlarda Buxoro xoni Abdullaxon II hukmronligining boshlarida Xorazm sultonlari bilan ittifoqchilik harakatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan "Abdullanoma" asarida Abdullaxon II ning Balxdagi fitnachi kuchlarga bosh bo'lib chiqqan Faqir Sulton va Dinmuhammad sultonga qarshi yurishi hikoya qilinar ekan, Samarqand va Hisor bilan birga Xorazmga chopar yo'llab yordam uchun qo'shin so'raganligi qayd etilgan. Asarda ma'lum qilinishicha, 1573-yil qishida turli viloyatlardan kelgan kuchlar qatorida Xorazm sultonlaridan "Xorazmga tobe bo'lgan yerlarning voliysi Xojimxonning o'g'li Suyunch Muhammad (Sevinch Muhammad) sulton katta o'rdu bilan kelgan va jamshid martabali xazrat abdullaxon uning borasida ham benihoyat inoyatlar ko'rsatgan edi [5]. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Shayboniylar sulolasi davrida Xiva va Buxoro xonlari o'zaro munosabatlarda ba'zida urush holatida ba'zida esa do'stona aloqalarni amalga oshirganliklarini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фирдавс ал-Икбаль. Сочинение Муниса и Агахи // МИТТ. — Т. II. — С. 59-88.
2. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. — Б.187
3. Мухаммадёр ибн Араб Катаган Мусаххир ал-билод -2009
4. N.Allayeva "Xiva xonligining diplomatiyasi va savdo aloqalari" 2019-y
5. Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" B-131-141

UO'K 93/94

ADABIYOT SOHASINING RIVOJIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO MISOLIDA)

O.A.Raxmanqulova, PhD, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida madaniyatning bir bo'lagi bo'lmish adabiyotga e'tibor va undagi muammolarini hal qilishning yangicha tamoyillarini ishlab

chiqishni kun tartibiga dolzarb qilib qo'yilganligi izoxlangan. Maqolada Qashqadaryo va Surxondaryo misolida madaniy muhitning yangilanayotganligini amalga oshirilayotganligi tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, janubiy viloyatlar, xotin-qizlar, adabiy muxit, madaniyat, she'riyat, asar, dramaturgiya, gazeta, jurnal.

Аннотация. В данной статье поясняется, что в годы независимости в Узбекистане на повестку дня было поставлено внимание к литературе, являющейся частью культуры, и выработка новых принципов решения ее проблем. В статье представлен анализ обновления культурной среды на примере Кашкадарьи и Сурхандарьи.

Ключевые слова: Узбекистан, южные регионы, женщины, литературная среда, культура, поэзия, творчество, драматургия, газета, журнал.

Abstract. This article explains that during the years of independence in Uzbekistan, attention to literature, which is part of culture, and the development of new principles for solving its problems were put on the agenda. The article presents an analysis of the renewal of the cultural environment on the example of Kashkadarya and Surkhandarya.

Keywords: Uzbekistan, southern regions, women, literary environment, culture, poetry, creativity, dramaturgy, newspaper, magazine.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yangi o'zgarishlar amalga oshirilib, demokratik jamiyat barpo etilayotgan bir sharoitda yoshlarni vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri. Yangi davr nafaqat san'at va adabiyot tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g'oyaviy yondashishni taqozo qildi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev aytganidek, "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo'ladi" [1].

Mustaqillik bizga adabiy merosni qayta o'rganish, mumtoz adabiyot va xalq og'zaki ijodiyoti an'analariga qaytish ularni yangi davr adabiyoti bilan taqqoslash imkoniyatini berdi. Adabiyotga e'tibor natijasida XX asrning 90-yillardan keyin Respublikaning turli vohalarida o'zbek adabiyotida – nasrda, she'riyatda, xalq ijod namunalarida yangi bir yozuvchilar avlodi kirib keldi. Bu avlod jahon adabiyotida ro'y berayotgan yangilanish jarayonlari bilan birga qadam tashlab, milliy badiiy adabiyot an'analarini yangiladi. E'tiborlisi shundaki, adabiy muhitni yangilanishida xotin-qizlarning ham xizmati katta.

Maqola umum qabul qilingan metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining har bir go'shasida ijodkor ayollar faoliyat ko'rsatdi. Jumladan, Sharofat Ashurova, Hafiza Egamberdiyeva, Boboxol Elmurodova, Lola Pirmatova, Munavvara Mansurova, Muyassar Tilovova, Xosiyat Akramova, Bo'ritosh Nosirova, Lola O'roqova, Nazira O'roqova, Nasiba Nasimova, Dilnavoz Berdiyeva, Yulduz Choriyeva[8], Donoxol Jumayeva, Zumrad Abdullayeva, Feruza Sultonqulova, Lobar Berdiyeva kabilarning ijodini namuna qilish mumkin [7].

Surxondaryolik ijodkor xotin-qizlar o'zlarining ijod namunalarini she'riy to'plamlar shaklida nashr ettirib bordilar.

Surxon vohasining yetuk shoiralaridan biri Ra'no Uzoqova bo'lib, u o'zbek adabiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Shoiraning "Quvonch", "Tabassum", "Qiymat", "Issiq-sovuq", "O'g'irlangan baxt", "Rashk", "Zafarning hukmi" nomli hikoyalari e'lon qilingan. Shuningdek, uning "Malohat", "G'alaba", "Sarvaqd", "Gulandom", "Makr va muhabbat" kabi beshta dostoni ham nashr etilgan. 2016 yil Ra'no Uzoqovaning "Baxt qo'shig'i" (Saylanma) nomli kitobi 3000 nusxada nashr qilindi [4.309].

Jamila Ergasheva ham voha ijodkorlari orasida o'z uslubiga ega qalam sohibasi sifatida ajralib turadi. U 1974–1979 yillarda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qidi va so'ngra "Surxon tongi" gazetasiga ishga keldi. Adibaning "Izhor" (1992), "Intiqom" (1997),

“Tanazzul” (1998) nomli hikoyalar to‘plami nashr etilgan. Jamila Ergasheva qalamga olgan mavzular aksar voha kishilarining hayot tashvishlari, mehnat yumushlari, urf-odatlarini, oddiy turmush tarzi voqealariga bag‘ishlangan. Adib Erkin A’zam Jamila Ergashevaga shunday degan ekan. “Ayol qalbini kim ham ayol yozuvchi kabi tadqiq qila oladi? “Men “Zulfizar” nomli qissangizdagi qahramonlar kabi tuzum qurboni bo‘lgan rahbar ayollarni ko‘p uchratganman, suhbatlashganman. Lekin ular haqida sizdek qilib yoza olmas edim. Sababi, siz ayolsiz, ayol kishining ruhiyatini erkak yozuvchilardan ko‘ra chuqurroq idrok qila olasiz” [10]. J.Ergasheva asarlarida ayniqsa voha ayollarining hayoti, andisha-uylari aks ettiriladi. Ayol qalbi, ayollarning nozik hissiyoti, goh ularning siniq ko‘ngli, goho erkak kabi sig‘dira olmagan dardu alamlarga ayol bardoshi singarilar sirli satrlarda ifodalanishi adiba hikoyalarining yetakchi xususiyatlaridan biridir[5.366]. 2013 yil “Eng ulug‘, eng aziz” respublika ko‘rik-tanlovining Yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlari bo‘yicha Jamila Ergasheva “Qir ustidagi ayol” romani uchun ko‘rik-tanlov g‘olibligiga sazovor bo‘ldi[6.302].

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, “Shuhrat” medali sohibasi Sharofat Ashurova O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limida faoliyat yuritdi. Sh.Ashurova ko‘p yillar davomida “Oltin meros” xalqaro xayriya jamoat fondining Qashqadaryo viloyat bo‘limi boshqaruv raisi vazifasida faoliyat ko‘rsatdi. Uning “Qusam Shayx” romani, “Ilohiy tun”, “Bir kashta qismati” qissalari, “Quduq”, “Sovg‘a”, “Qishloqdagi baland imorat”, “Chinnigul” hikoyalar to‘plamlari, “Yaxshilar tajallisi”, “Nasaf tajassumi”, “Ma’naviyat javohiri” kabi 20 ga yaqin badiiy-publitsistik asarlar chop etildi[2].

Qashqadaryo viloyati Koson tumani ijodkorlaridan biri Lola Pirmatova bo‘lib, uning asli kasbi o‘qituvchi bo‘lsa-da, hayoti davomida ijoddan to‘xtamadi. Uning “Ma’rifat abadiyati” kitobi Toshkentdagi “Vorisi” nashriyotida chop etildi. Mazkur kitobda xalq ta’limi fidoyisi sifatida o‘z o‘rniga ega, yaxshi nom qoldirgan ziyoli insonlar haqida hikoya qiladi. Lola Pirmatova katta qobiliyat sohibasi sifatida ham namoyon bo‘ldi. U o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan shoira. Uning 1993 yil “Atirgul atri”, “Nafosat gulshani”, 2005 yil “Guvalak qishlog‘ining tarixi”, 2015 yil “Qalb tajassumi”, “Qashqadaryo sohilida dengiz nafasi”, “Menga qo‘shiq kuyla”, “Boqiy umr shohsupasi” nomli she’riy to‘plamlarini chop ettirdi. 2016 yil “Tibbiyotning porloq yog‘dulari” badiiy-publitsistik asari, “Guvalak tarixi–moziy va istiqloq sahifalari” nomli ilmiy- publitsistik kitoblarini tayyorlab, nashr ettirdi. Shoira ijod bilan birga bir nechta shogirdlarini ham tayyorladi. Xurshida Berdiyeva, Gulbahor Toshpo‘latova, Raisa Sultonova shular jumlasidandir[9].

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyat Kengashi “Iste’dodli yoshlar” yo‘nalishi sardori. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo bo‘limi qoshidagi “Surxon” klubi a‘zosi Aziza Qosimova adabiyotning nazm, nasr, publitsistika yo‘nalishida ijod qiladi. Ijodida yurt go‘zalliklari, do‘stlik va sadoqat tuyg‘ulari kuylanadi. Uning ijod namunalari ingliz, rus, hind, turk, ozarbayjon tillariga tarjima bo‘lgan. 2016 yil Hindiston Respublikasining Chandigar shahrida bo‘lib o‘tgan Hindiston qit‘alararo madaniyat assotsiatsiyasi tomonidan oliy o‘rin “Sahitya Shree” xalqaro adabiy mukofotini qo‘lga kiritgan. 2018 yil Toshkent shahrida Xalq ta’lim vazirligi tomonidan o‘tkazilgan “Girls development summit 2018” 1-Respublika innovatsion o‘quvchi qizlar sammiti ijod, media va jurnalistika yo‘nalishi sertifikat sohibasi [11].

Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida adabiyotni rivojlantirishda Qarshi va Termiz davlat universitetlarida yaratilgan ijodiy muhit muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu ta’lim maskanlarida Shoira Davlatova, Shohista Mahmaraimova, Maqsuda Berdimurodova, Farzona Olloqulova, Muhayyo Hamrayeva, Shoira Bobomurodova, Cho‘lponoy Sultonova, Nilufar Umarova, Shohida Karomova, Shahnoza Qahhorova kabi ijodkorlar yetishib chiqdi.

Termiz davlat universiteti ijodkorlaridan yana biri Muhayyo Hamroyeva bo‘lib. U 2012 yil iyun oyidan 2014 yil 18 aprelgacha Termiz DU O‘zbek adabiyoti kafedrasini mudiri bo‘lib faoliyat ko‘rsatdi. M.Hamroyeva 2010 yilda “Tarixiy haqiqat va badiiy talqin” (nasriy asarlarda Amir Temur obrazi)” mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qildi. Uning «Mehrning rangin lahzalari» (2011), «Sizdan kechib bo‘lmaydi» (2013), «Sog‘inch qo‘shiqlari» (2014) nomli she’rlar, badialar, maqolalardan iborat uchta kitobi chop etildi. Bundan tashqari, M.Hamroyevaning «Bekajon», «Gulchehralar», «Hordiq», «Parvona», «Hamroh» kabi Respublika gazetalarida 70 dan ortiq shyerlari, 100 dan oshiq turli mavzudagi materiallari e’lon qilindi.

Qarshi davlat universiteti tarixida Cho'lponoy Sultonova iqtidorli ijodkor sifatida qoldi. U universitetning filologiya fakultetida uzoq yillar faoliyat ko'rsatib, nafaqat ustoz, balki mahoratli aktyor sifatida ham talabalar ko'z o'ngida gavdalandi. Ch.Sultonova she'rlarni ifodali o'qigan, monolog va dialoglarni maromiga yetkazgan. Hattoki, mashhur o'zbek shoirasi Zulfiya ham u kishidagi yuksak iste'dodni qadrlab, shunday degan edi: "Men she'r yozsam, Cho'lponoy uni o'qisa". Ch.Sultonova mehribon ustoz, ajoyib so'z san'atkori, jamoatchi inson, zukko olima, matonatli ayol sifatida safdoshlari orasida hurmat-e'tibor qozondi. "Xalq maorifi a'lochisi" unvoni, 1995 yilda "Shuhrat" medali va yana bir qator mukofotlar bilan taqdirlandi. U respublikaning nufuzli gazeta va jurnallarida o'zbek va rus tillarida 200 ga yaqin ilmiy-ommabop maqolalari chop etdi. Olima "Adabiy-dramatik to'garak – ma'naviyat gulshani", "Drama, obraz, internatsionallik", "Pandnoma", "Hayrat manzili" kabi kitoblar muallifi edi. Cho'lponoy Sultonova "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasining faxriy a'zosi bo'lib, o'zining 3000 ga yaqin shaxsiy kitoblarini mazkur jamg'armaning viloyat bo'limiga hadya etdi. "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasining viloyat bo'limida "Cho'lponoy merosi" ma'rifat xonasi tashkil etilgan bo'lib, unda ijodkorning umr bo'yi to'plagan barcha ijod namunalari o'rin oldi [3].

Mamlakatimizda madaniyatning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan san'at va adabiyot rivojida xotin-qizlarning ishtiroki ortib bordi. Yangi davr nafaqat san'at va adabiyot tarixiga, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha g'oyaviy yondashishni taqozo qildi. Xotin-qizlarning madaniyat va san'at sohalaridagi ijodlari, zamonamiz adabiy muhitida sezilarli darajada o'sishiga xizmat qildi. Yosh avlod tarbiyasida ijodkor xotin-qizlarning ijod namunalari mahum ahamiyat kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. // "Xalq so'zi". – Toshkent: 2017 yil, 4 avgust.
2. Muallifning shaxsiy muloqoti materiallari, Sharofat Ashurova bilan suhbat, 2019 yil 15 dekabr.
3. Muallifning shaxsiy muloqoti materiallari, Ch.Sultonovning shogirdi Shohida Karomova bilan suhbat, Qarshi shahri (2020 yil 10 noyabr).
4. Tursunov S., To'xtayev A., Annayeva Z. Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar. – T.: "Yangi nashr", 2019. – B.309.
5. Tursunov T., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B. Surxon tarixi ko'zgusida. –T.: "Sharq", 2001 – B.366 (382)
6. Tursunov S., To'xtayev A., Annayeva Z. Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar. – T.: "Yangi nashr", 2019. – B.302.
7. "Xalq yo'li" gazetasi, 2020 yil 16 iyun
8. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Qashqadaryo bo'limi joriy arxivi.
9. QVDA, 721-fond, Lola Pirmatova shaxsiy hujjatlari.
10. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/jamila-ergasheva-qir-ustidagi-ayol.html>.
11. <https://www.google.com/search?q=%D0%91>.

UO'K 903

CHORVACHILIK SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI (QASHQADARYO VOHASI MISOLIDA)

D.A'.Ro'ziboyev, doktorant, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasida chorvachilik sohasida mutaxassislar tayyorlash masalasi, ularning malakasini oshirish, tumanlar uchun veterinariya xodimlari, zootexniklar, chorvachilik fermalari mudirlari yetkazib berish va u bilan bog'liq masalalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jalik artel raislari, hosildorlik kengashi raisi, "Leninizm", "Qizil O'zbekiston", "Frunze", "Kirov", "Qizil chorva", "Qizil qahramon", "Telman", "Karl Marks", "Stalin".

Аннотация. В данной статье изложены вопросы подготовки специалистов в области животноводства в Каишадарьинском оазисе, вопросы повышения их квалификации, поставки ветеринаров, зоотехников, заведующих животноводческими фермами для районов и связанные с этим вопросы.

Ключевые слова: председатели сельскохозяйственных артелей, председатель совета по урожаю, “ленинизм”, “красный Узбекистан”, “Фрунзе”, “Киров”, “красный скот”, “Красный богатырь”, “Тельман”, “Карл Маркс”, “Сталин”.

Abstract. This article describes the issue of training specialists in the field of livestock in the oasis of Kashkadarya, issues of improving their skills, supply of veterinarians, zootechnicians, managers of livestock farms for districts and related issues.

Keywords: chairmen of agricultural artel, chairman of the Productivity Council, “Leninism”, “Red Uzbekistan”, “Frunze”, “Kirov”, “red cattle”, “red hero”, “Telman”, “Karl Marx”, “Stalin”.

Qishloq xo‘jaligi va sovxoz ishlab chiqarishini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan mustahkamlashning muhim masalalaridan biri sotsialistik qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari uchun malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir. KPSS Markaziy Komitetining mart (1965-yil) Plenumi materiallarida qayd etilganidek, tashkiliy yetakchilik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik samarali iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishiladi. Urush yillarida Qashqadaryo viloyat kolxozlari uchun 445 nafar qishloq xo‘jalik artel raislari, 306 nafar hosildorlik kengashi raisi, 1499 nafar dala va pillachilik brigadalari, 404 nafar chorvachilik fermalari rahbarlari tayyorlandi. Ularning aksariyati ayollardan iborat edi. Shunday qilib, 1965-yilda 383 nafar ayol kolxoz rais o‘rinbosarlari, 204 nafari xo‘jalik mudiri, 422 nafari brigada va 1123 ta bo‘lim boshlig‘i lavozimlariga tayinlandi[1]. Rahbar kadrlar va turli mutaxassislarni tayyorlash asosan qisqa kurslarda va maxsus tashkil etilgan maktablarda olib borildi. Biroq, urush sharoitida qishloq xo‘jaligining malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish mumkin emas edi. Ularning yetishmasligi, ayniqsa, urushdan keyingi davrda, kolxozlar yirik ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga aylantirilib, tobora zamonaviy texnika bilan ta‘minlanganda yaqqol namoyon bo‘ldi.

O‘zbekiston SSRda, shu jumladan, Qashqadaryo viloyati partiya, sovet va xo‘jalik tashkilotlari oldida O‘zbekistonni yanada rivojlantirish rejasi va chora-tadbirlari to‘g‘risida SSSR Komissarlarining Qarori qabul qilindi. Unda qishloq xo‘jaligini har tomonlama kengaytirish va ta‘lim texnologiyalari asosida qishloq xo‘jaligi kadrlarini takomillashtirishning dolzarb vazifalari belgilab berildi. Xalq Kengashining 1946-yil 2-fevraldagi Qarori respublika qishloq xo‘jaligi uchun esa 2500 kishi, shu jumladan Qashqadaryoda viloyatida 150 nafar, bundan tashqari, Samarqand shahrida bir yillik o‘quv markazi 1000 nafarga yaqin o‘rta malakali qishloq xo‘jaligi mutaxassislarini tayyorlash uchun xizmat qildi.

Qashqadaryo viloyatiga 1947-yildayoq qishloq xo‘jalik texnikumlarining 12 nafar, Toshkent va Samarqand iqtisodiyot institutlarini 72 nafar bitiruvchi yuborildi. Birgina Shahrisabz qishloq xo‘jaligi kollejida ikki yil davomida 95 nafar agronom va chorvachilik mutaxassislari tayyorlandi. Kolxoz yetakchi kadrlarini mustahkamlash maqsadida 1949-yilda shahar va tuman partiya faollaridan 187 nafar kishi doimiy ishlash uchun kolxozlarga yuborildi, shundan 55 nafari kolxoz raislari, 15 nafari boshlang‘ich partiya tashkiloti kotibi, 117 nafari partiya raislari lavozimlarini egalladi. Shu bilan birga, kolxoz va tuman miqyosidagi yetakchi ishchilarning malakasini oshirish bo‘yicha ishlar olib borildi.

Qashqadaryo viloyatidan 110 nafar kolxoz rahbar xodimlari Samarqanddagi ikki yillik qishloq xo‘jaligi maktabini tugatdi. 1950-1952-yillarda qishloq xo‘jaligi kadrlarini tayyorlash uch yillik maktabiga 128 kishi o‘qishga yuborildi. 1948-yil yanvarda partiyaning Qashqadaryo viloyat qo‘mitasining XVIII plenumida ommaviy o‘quv ishlarini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Kolxoz va sovxoz ishchilarini bahorgi dala ishlari boshlanishidan oldin tayyorlash, qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo‘yicha qisqa muddatli kurslarda 700 nafar kishini ishga o‘qitildi.

Kadrlarni qayta tayyorlash mas‘uliyati partiya va komsomol tashkilotlari zimmasiga yuklatildi. Markaziy Komitetning 1950-yil 19-iyundagi Qaroriga muvofiq “Targ‘ibot va targ‘ibot ishlarini tashkil etish to‘g‘risida” qaroriga binoan “Ilm-fan yutuqlari va qishloq xo‘jaligining ilg‘or tajribasi” mavzusida ishlab chiqarishdan uzluksiz ajratilgan holda Qashqadaryoda uch yillik kurslar tashkil etildi[2]. Ularning oldida kolxoz va sovxoz ishchilariga agro va zootexnika bilimlarining majburiy minimumini berish vazifasi qo‘yildi. 1950-yilda ushbu kurslarda 5930 nafardan ortiq talaba tahsil oldi. 1951-yil dekabrda O‘zbekiston KP(b) Qashqadaryo viloyat qo‘mitasi partiya, sovet, komsomol,

qishloq xo'jaligi tashkilotlariga kolxoz kadrlarini agrozootexnika o'quv kurslariga rahbarlik qilishni buyurdi. Natijada agrozootexnika kurslari talabalari soni 1951-1952 o'quv yilida 9000 nafar kishiga, 1952-1953 o'quv yilida esa 12568 nafar kishiga yetkazildi[3]. Bu esa bilim yutuqlarni tez joriy etishga xizmat qildi. Ilm-fan va ilg'or tajribani ishlab chiqarishga yo'naltirish, chorvachilik mahsulotlari yetishtirish va o'sish sur'atlarini oshirishga, naslchilik ishlarining rivojlanishiga xizmat qildi. Biroq, ayrim joylarda bu muhim masalaga yetarlicha ahamiyat berilmadi. Darslarni ko'pincha qishloq xo'jaligi mutaxassisleri va kolxoz ishlab chiqarish ustalari emas, balki yomon tayyorgarlik ko'rgan ma'ruzachilar tomonidan o'tildi. O'quvchilar o'rtasida ilg'or tajriba almashish amaliyotga tatbiq etilmasligi, ilg'or xo'jalik va tajriba stansiyalariga ekskursiyalar yaxshi tashkil etilmadi.

Viloyat partiya tashkilotlari kolxozchilar va sovxoz ishchilarining madaniy-maishiy va mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Dala oromgohlari brigada va otryadlarda qurilib, jihozlandi. Ayollarga alohida e'tibor ko'rsatildi. 1951-yilda davlat hisobidan 38 ta va 2480 nafar o'ringa mo'ljallangan 38 ta kolxoz bog'lari va bolalar bog'chalari, 13 ta ayollar va bolalar maslahatxonalari, 11 ta sut oshxonalari tashkil etildi. Shunday qilib, 1952-yilda viloyat kolxozlarida 206 nafar agronom, 163 nafar chorvachilik mutaxassisi, 165 nafar veterinariya xodimi, 183 nafar gidrotexnik, 122 nafar mexanik faoliyat olib bordi[4].

Mahalliy millat ayollari borgan sari dadillik bilan rahbarlik lavozimlariga ko'tarila boshladilar. Masalan, 1952-yilda 3 nafar ayol kolxoz raisi, 17 nafari o'rinbosar, 54 nafari brigadir bo'lib ishladi. 120 nafar xotin-qizlar komsomol va 19 nafari boshlang'ich partiya tashkilotining kotiblari va millatlar kotiblarining birinchi kotiblari bo'lib ishladi. 1953-yilda esa viloyat kolxozlarida 96 nafar ayol brigadir, 1100 nafar, boshqaruv kengashi a'zosi bo'lib 317 nafar ayol mehnat qilgan bo'lsa-da, viloyat qishloq xo'jaligining malakali mutaxassislariga juda muhtoj edi[3]. 1952-yilda Qashqadaryo kolxozlarida bor-yo'g'i 29 nafar o'rta maxsus qishloq xo'jaligi ma'lumotli agronomlar ishlaganligini aytish kifoya. Kolxoz raislaridan faqat 3 nafari oliy ma'lumotga va 50 nafari o'rta ma'lumotga ega edi. KPSS Markaziy Komitetining sentabr (1953-yil) Plenumida qishloq xo'jaligi kadrlarini tayyorlash, joylashtirish va tarbiyalash masalalariga katta e'tibor berildi. So'nggi yillarda viloyatda kadrlar tayyorlash va xo'jaliklarni kadrlar bilan ta'minlash sohasida birmuncha ishlar qilindi. 1966-yilda kolxoz va sovxozlarda 498 nafar diplomli zootexnik va veterinariya xodimlari ishladi. Umuman qishloq xo'jaligida 883 nafar zooveterinariya mutxassisi ish bilan ta'minlandi. Chorvachilik fermalari mudirlarining tarkibi yaxshilandi. 400 nafar ferma mudirlaridan 112 nafar kishi oliy va o'rta malakali mutaxassislar hisoblanadi[4].

O'zlarining astoydil mehnatlari bilan yuksak ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishayotgan va mehnatda o'rnak bo'layotgan chorvachilik xodimlarining soni yil sayin oshib bordi. Shu bilan birga, chorvachilik kadrlari bilan ishlash sohasida hali jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Shunday holler ham borki, chorvachilik bilan aloqasi bo'lmagan shaxslar fermalarda ishladi. Odatda bunday kishialr faqat ishga zarar yetkazadi, xolos. Anyiqsa, Qarshi tuman partiya komiteti tomonidan kadrlar tanlashda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Chiroqchi tumanida kadrlarni tanlashda ham xatolarga yo'l qo'yildi. Chorvachilikning ko'pgina mutaxassisleri o'z mutxassisligi bilan ishlamadi. 1966-yilda tumanning ferma mudirlarining 25 foizi mutaxassislardir, xolos[7]. Tumanda 250 nafar ferma mudiri maxsus ma'lumotga ega emas. Chorvachilikda qariyb 11 ming nafar kolxoz va sovxoz ishchisi ishladi. Chorvachilik fermalarini malakali, ishning ko'zini biladigan kadrlar bilan mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, hali qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik fermalari ma'lumotli kadrlar bilan to'la mustahkamlanmadi. G'uzor tumanida 41 nafar zootexnikdan 18 kishi oliy ma'lumotli, 25 nafar kishi o'rta ma'lumotli va 1 nafar kishi esa o'rta maxsus ma'lumotga ham ega emas. Shuningdek, tumanda 33 nafar veterinariya xodimidan 5 nafar kishi oliy, 27 nafar kishi o'rta maxsus ma'lumotga ega. 57 nafar ferma mudiridan 1 nafar kishi oliy ma'lumotga ega edi, xolos. Jumladan, tumanda 31 nafar ferma mudiri chorvachilik bo'yicha ma'lumotga ega emas. Qarshi tumanida ahvol bundanda yomon holatda bo'lib, 36 nafar zootexnikdan 3 nafar, 43 nafar veterinariya xodimlaridan 5 nafar, 43 nafar ferma mudiridan 27 nafar kishi maxsus ma'lumot olmagan. Shu davrda tuman chorvachilik sohasida 10758 nafar kishi mehnat qildi[4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. История Узбекистана (1917—1991 годы). Узбекистан в 1946-1990- годы. М.1991.

2. “Ўзбекистонда чорвачилик: бугунги ҳолат, муаммолар ва Тараққиёт истиқболлари Аграр секторни ривожлантириш тенденциялари нуқтаи назаридан таҳлил”, “Насаф” нашриёти. 2010. с 96.
3. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Ташкент “Ўзбекистон”. 1991. с 261.
4. Мирзаев. О подготовке кадров для хозяйства Қашқадарьи в 1946-1955 годах. “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар” журналі. Тошкент. 1967 (№1), 39-41 бетлар.

UO'K 639.33

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA QISHLOQ XO'JALIGI

(O'zbekiston janubiy viloyatlari misolida)

M.To'raeva, dots., Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston janubiy hududlarida qishloq xo'jaligi sohasining front ehtiyojlari uchun yo'naltirilganligi ko'rsatib berilgan. Mazkur hududlarda paxta etishtirish bilan birga aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarida amalga oshirilgan ishlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, Surxondaryo oblastlari, Leningrad, Kiev, Sevastopol, Smolensk, staxanovchilar, kolhoz, sovxoz, komsomol-yoshlar brigadalari, Rudasoy suv ombori, mudofaa fondi.

Аннотация. В данной статье показана ориентация сельскохозяйственного сектора южных районов Узбекистана на нужды фронта в годы Второй мировой войны. Наряду с выращиванием хлопка в этих регионах освещаются работы, проводимые в процессах выращивания продуктов питания для населения.

Ключевые слова: Кашкадарья, Сурхандарьинская область, Ленинград, Киев, Севастополь, Смоленск, стахановцы, колхоз, совхоз, комсомольско-молодежные отряды, Рудасойское водохранилище, фонд обороны.

Abstract. This article shows the orientation of the agricultural sector in the southern regions of Uzbekistan for the needs of the front during the Second World War. Along with cotton cultivation in these regions, the works carried out in the processes of growing food products for the population are highlighted.

Keywords: Kashkadarya, Surkhandarya regions, Leningrad, Kiev, Sevastopol, Smolensk, Stakhanovites, collective farm, state farm, Komsomol-youth brigades, Rudasoy reservoir, defense fund.

Urush, respublika qishloq xo'jalik sohasi xodimlarining qattiq sinovdan o'tkazdi. O'zbekiston aholisi oldida mamlakat sanoatini xom-ashyo, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan etiyojini qondirishdek murakkab vazifa turardi. Mazkur masalaning eng murakkab tomonlaridan biri, respublika hududida, jumladan uning Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari qishloq xo'jaligida asosiy yetishtiriladigan mahsulot paxta hisoblanardi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji asosan ittifoq fondidan keltirilar edi. Bizga ma'lumki sovet davlati tarkibidagi ittifoqdosh respublikalar mahsulot ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan ham bir-biri bilan chambarchas bog'langan edi. Urush boshlangach boshqa hududlardan keltirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining kirib kelishi to'xtadi, aholini boqish uchun ichki imkoniyatlardan foydalanish zarur edi. Ikkinchidan, sovet davlatining qamalga olingan Leningrad, Kiev, Sevastopol, Smolensk va boshqa shaharlaridagi aholisini sanoat hamda qishloq xo'jaligi, shuningdek aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishdek murakkab vazifa ham yuzaga kelgan edi. Zero, yuqorida ta'kidlanganidek, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari sovetlar tuzumining dastlabki yillaridan asosan qishloq xo'jaligida paxta etishtirishga mahsulotlarini etkazib beruvchi mintaqalar sifatida tashkil etilgandi. Bu holat esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etkazib berish jarayonida anchagina qiyinchiliklarni vujudga keltirgan edi.

Urush tufayli mehnatga layoqatli erkaklarning frontga va frontorti ishlariga jo'natilishi respublikaning barcha hududlarida kuzatilgani kabi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi kishilarning mehnat qilish sharoitini og'irlashishiga sabab bo'ldi. Savxoz va kolxozlardagi o'zlashtirilgan yerni shudgor qilish, ekin ekishga ixtisoslashgan texnikalar juda oz bo'lib, ularning foydalanishga yaroqlilari ham frontga safarbar qilindi. Jumladan,

1940 yildagi ma'lumotlarga ko'ra respublika bo'yicha traktorlar soni 22876 tani, yuk tashishga ixtisoslashgan texnikalar 7302 tani tashkil etgan. Urush yillarida traktorlar 13451 va tirkamali texnikalar 1628 taga tushib qoldi [1]. Shuning uchun yerlarni shudgor qilish eshak, ot, tuyalar yordamida amalga oshirildi. Ko'p joylarda ish hayvonlari yetishmaganligi uchun yerlar xotin-qizlar, o'smir bolalar yordamida qo'l mehnati asosida bajarildi[2].

1941 yilning iyun-iyul oylarida bo'lib o'tgan yig'ilishlarda frontni zarur bo'lgan oziq-ovqat va boshqa ehtiyoj mollariga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan masalalarni keng muhokama qilinib, tegishli qarorlar qabul qilindi. Harbiy sharoit janubiy hududlar aholisi oldiga ham yangi-yangi vazifalarni qo'ydi. Asosiy g'alla yetishtiriladigan tumanlar nemis-fashistlar tomonidan bosib olinganligi tufayli, g'alla yetishtirishni ko'paytirish asosiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi.

1941 yil 9 noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Kengashda respublikada don mahsulotlari yetishtirish xolatini 2-3 barobarga oshirish, shuningdek qand lavlagi, sholi, zig'ir, kunjut kabi mahsulotlar yetishtirishga katta e'tibor berish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Shu yig'ilishda Qashqadaryo vohasida g'alla ekiladigan maydonlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi. Qashqadaryoda g'alla yetishtirishni ko'paytirish albatta suv inshootlari qurishni taqozo qilar edi. Shu maqsadda 1942 yil yanvarida Koson tumanida Rudasoy suv ombori qurilishi boshlandi. Mazkur suv omborning qurilishida Koson, Qarshi, Beshkent tumanlari mehnatkashlari fidokorona mehnat qildilar. Faqat Koson tumani uchastkasida 30 ta staxanovchilar brigadasi mavjud edi. Sariq qishloq sovetidagi "Stalin" nomli kolxoz a'zosi Q.Jumaev boshchiligidagi brigada a'zolari har kuni 80-85 kub tuproq chiqarib, kunlik normalarini 700 foiz qilib bajardilar.

1942 yil 5 iyuldan 5 avgustgacha Qashqadaryo viloyatida g'alla o'rish oyligi e'lon qilinib, unda 275 ta komsomol-yoshlar brigadalari, 133 ta o'quvchi yoshlar brigadalari tashkil qilinib, unda minglab yoshlar ishtirok etib, qisqa muddatda yetishtirilgan g'allani qo'l mehnati bilan o'rib oldilar[3].

1942 yilda Qashqadaryo dehqonlari davlatga 745 ming sentner g'alla topshirishga muvaffaq bo'ldilar. Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog' tumanlari dehqonlari yuqori natijalarga erishdilar. Qarshi, Dehqonobod tumanlarining ko'rsatkichlari boshqa tumanlarga nisbatan past bo'lganligini asosiy sababi sifatida urug'ning o'z vaqtida yetib kelmasligi va agrotexnik tadbirlar uchun texnikalarning yetishmasligida edi [4].

1943 yilda Surxondaryo viloyati davlatga 223 ming tonna don topshirdi. Ushbu holat 1941 yilga nisbatan taqqoslansa, 43000 sentner ko'p hosil yetishtirilganligini ko'rishimiz mumkin [5]. Shuningdek, 1943 yilda mudofaa fondi uchun hosil omborlariga 93820 sentner sabzavot va poliz mahsulotlari hamda 148 ming 695 sentner turli xil mevalar topshirdilar. Jumladan, Sho'rchi tumani dehqonlari 38 tonna sabzavot mahsulotlarini jo'natdilar.

Urush yillarida paxtakorlar ham og'ir sinovlarga duchor bo'ldilar. Paxtakor dehqonlar urushning birinchi yilida har gektar yerdan 17,1 sentnerdan paxta yetishtirib, davlatga 698658 sentner paxta topshirdilar [6]. Lekin keyingi uch yil mobaynida tabiat injiqliklari va chigirtkalarining ko'payishi hamda paxta hosilini nobud qilishi oqibatida oblast paxtakorlari davlatga paxta topshirish yillik rejasini bajara olmadilar, hosildorlik pasayib ketdi. Agar 1941 yilda paxta maydonlarining har gektaridan 17,1 sentnerdan paxta hosili olingan bo'lsa, 1943 yilga kelib paxtaning hosildorligi gektariga kolxozlarda 7,2 sentner, sovxozlarda 5,4 sentnerga tushib qoldi. Oqibatda oblast paxtakorlari uch yil mobaynida davlatga 39223 tonna paxtani kam topshirdi [7].

Paxtachilikni rivojlantirish uchun 1944 yilgi dala ishlariga Termiz tumanida 855 bosh, Jarqo'rg'onda 1346 bosh, Sho'rchida 2132 bosh, Denovda 2688 bosh, Sariosiyoda 1974 bosh, Uzunda 2066 bosh, Sherobodda 2835 bosh, Boysunda 2154 bosh, jami 16044 bosh ish hayvoni ajratildi[8]. Shuningdek, oblast qishloq xo'jalik dalalariga qishloq xo'jalik mutaxassislari safarbar qilish harakati avj oldirildi. 1944 yilda oblast kolxozlariga 110 nafar qishloq xo'jalik mutaxassislari yuborildi. 1942-1945 yillarda Surxon vohasining o'n minglab ishchilari qishki va bahorgi mavsumlarda magistral kanallar va boshqa irrigatsiya tarmoqlarida 3610 ming m³ tuproq tozalash ishlarini bajardilar [9].

Ikkinchi jahon urushi yillarida dehqonchilik bilan birga chorvachilik sohasi ham iqtisodiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan yo'nalishlardan biri bo'lib qoldi. Chunki frontdagi harbiylarni,

frontorti aholini chorva mahsulotlari va kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyojini qondirish bevosita ushbu soha bilan bog'liq edi. Urushning dastlabki kunlaridan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni to'g'ri anglab yetgan viloyat chorvadorlari mamlakatdagi ana shu vaziyatni hisobga olgan holda xalq ehtiyojlari uchun ko'plab miqdorda go'sht, sut va sut mahsulotlari, jun, teri va boshqa chorvachilik mahsulotlari etkazib berish uchun fidokorona mehnat qildilar. Jumladan, Boysun tumanidagi "Halqajar" qishloq kengashiga qarashli "Bajaruvchi" kolxozi chorvadorlari 1941 yilda fermadagi har bir bosh sovliqdan 130 tagacha qo'zi olishga erishdilar.

1942 yilda viloyat chorvadorlari davlatga 34000 kg jun topshirib, respublikada birinchi o'rinni egalladilar va respublikada jun tayyorlash rejasini muvaffaqiyatli bajardilar. Termiz tumanidagi "Sotsializm" kolxozi chorvadorlari davlatga go'sht topshirish rejasini 1943 yilning fevral oyida to'la-to'kis bajarib barchaga namuna ko'rsatdi [10]. 1943 yilda viloyat chorvadorlari qoramollar sonini 1940 yildagiga nisbatan 12488 boshga ko'paytirdilar, qo'y va echkilar sonini esa 414646 boshga yetkazdilar.

Surxondaryolik chorvadorlar 1944 yilga kelib parvarish qilinayotgan chorva mollari sonini yanada ko'paytirishga erishdilar. Jumladan, 1944 yilda vohadagi chorva mollarning umumiy soni 642081 boshga yetkazildi.

1942 yilda sobiq Ittifoq bo'yicha chorvachilik sohasida, eng yuqori natijaga Qashqadaryo viloyatida erishildi. Agar Qashqadaryoda 1941 yilda 467,0 ming bosh qorako'l qo'ylar mavjud bo'lgan bo'lsa, 1942 yilda ularning soni 619007 boshga yetdi [11]. 1943 yilda 1941 yilga nisbatan davlatga 728,4 ming dona tuxum, 421 t.go'sht, 212 t.junni ko'p topshirdilar.

1943 yilda Qashqadaryoning quyi qismida sug'orish tizimini takomillashtirib, ariqlar chiqarib, suv yo'llarini tozalash natijasida 42,0 ming gektar er o'zlashtirilib dehqonchilik mahsulotlari yetishtirila boshlandi [12].

1943 yilda g'alla yetishtirishni bajarishda Beshkent, Dehqonobod, Qamashi tumani dehqon xo'jaliklari jonbozlik qilib, rejalarini oshirib ado etdilar. Qashqadaryo viloyati bo'yicha 1943 yilda 1942 yilga nisbatan 191000 ming gektar yerga g'alla, 7 ming gektar yerga moyli o'simliklar urug'ini ko'p sepdilar. Biroq suv yetishmaganligi uchun 1943 yilda 1940 yilga nisbatan paxta chigiti kamroq ekildi, yoki 1942 yilda 32800 ga yerga paxta chigiti ekilgan bo'lsa, 1943 yilda 21000 ga yerga paxta chigiti ekildi. Har gektar yerdan 6,6 sentnerdan paxta hosili olindi.

1944 yil 18 mayda bo'lib o'tgan O'zKP(b) Qashqadaryo viloyat qo'mitasining IV Plenumida viloyatda qishloq xo'jaligini rivojlantirish asosida, paxtachilikda yuqori ko'rsatkichlarga erishish yo'lidagi natijalar hamda donli ekin ekiladigan xo'jaliklarni kengaytirib ulardan ko'proq hosil olish orqali qishloq aholisiga yordam berishni yo'lga qo'yishdagi kamchiliklar tanqid qilindi.

Qashqadaryo viloyatining partiya va sovet idoralari rahbarlari viloyatda 1944 yilda asosiy masala paxtadan mo'l hosil olish masalasi deb tushunib, g'allachilikka kam e'tibor berdilar. Ularning e'tiborsizligi oqibatida 1944 yilda Qashqadaryoda g'alla ekish rejasi ham bajarilmadi, ya'ni viloyat bo'yicha 477 ming gektar o'rniga, faqat 389 ming gektar yerga g'alla ekildi, yoki 1944 yilda 85 ming gektar yerga don urug'i sepilmadi. Birgina Qamashi tumanidagi 22 ming gektar yerga, Chiroqchi tumanidagi 19 ming gektar yerga don kam ekildi.

1944 yilda Qashqadaryo viloyati dehqonlarining dehqonchilik sohasidagi yutuqlari 1943 yildagidan kam bo'ldi. Har gektardan rejada belgilangan miqdorda olinadigan hosildorlik sezilarli darajada kamayib ketdi. Jumladan, ushbu yilda jami 573 ming sentner g'alla olindi. Davlatga 382 ming sentner g'alla topshirildi. Reja 90,7 foizga bajarildi, xolos. Chorvachilik sohasidagi yutuqlar bir muncha quvonchli bo'ldi. 1943 yilga nisbatan yirik shoxli hayvonlar, qo'y va echkilar sonini ko'paytirishga erishildi. Qashqadaryoda 1943 yilda 70034 yirik shoxli mol parvarish qilingan bo'lsa, ularning soni 1944 yilda 7334 boshga yetdi.

Mazkur yilda Surxondaryo vohasi chorvadorlari ham chorva mollari sonini yanada ko'paytirishga erishdilar. Jumladan, 1944 yilda vohadagi chorva mollarning umumiy soni 642081 boshga yetkazildi, shundan 557364 boshli qo'y va echki, 42282 tasi esa qora mollardan iborat edi.

Qashqadaryolik paxtakorlar 1945 yilda katta yutuqqa erishdilar. Shu yili Qashqadaryoda 17 ming gektar yerga chigit ekilib o'z vaqtida gidrotexnik tadbirlar amalga oshirildi. 1944 yilda

qashqadaryoliklar davlatga 17 ming 338 tonna paxta topshirgan bo'lsalar, bu ko'rsatkich 1945 yilda 21 ming 110 tonnani tashkil etdi. Natijada davlat rejasi esa 133,6 foizga bajarildi.

Xullas, ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlaridan O'zbekistonda jumladan uning janubiy hududlari qishloq xo'jaligi sohasida paxta, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Urush yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash asosan janubiy hududlar aholisi zimmasiga tushdi. Qishloq xo'jaligi sohasida paxta yetishtirish bilan birga don mahsulotlari, qand lavlagi, sholi, zig'ir, kunjut kabi mahsulotlarni yetishtirishga ham alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston janubiy hududlari aholisi ikkinchi jahon urushi g'alaba bilan yakun topgunga qadar o'zlarining mashaqqatli mehnatlari evaziga munosib hissa qo'shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Раззоков А. Ўзбекистонда пахтачилик тарихи. –Т.: “Ўзбекистон”, 1994.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти девони архиви кашқадарё филиали. 1-фонд, 1-рўйхат, 5-иш, 7-варақ.
3. Насриддинов Қ, Бўтаев А. Қашқадарё фронтга. - Қарши, «Насаф». 1995.
4. Қашқадарё вилоят Давлат архивининг Бешкент архиви. 31-фонд, 1-рўйхат, 51-иш, 54-варақ.
5. Сурхондарё вилоят Давлат архиви. 361-фонд, 1-рўйхат, 36-иш, 23 варақ.
6. Иркаева Н. Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари Иккинчи жаҳон уруши йилларида. –Т.: “Янги нашр”, 2015.
7. Турсунов С. Қобилов Э. ва бошқ. Сурхондарё тарихи. –Т.:Шарқ, 2001.
8. Сурхондарё вилоят Давлат архиви. 45-фонд, 1-рўйхат, 161-иш, 197- варақ.
9. Саидмуродов Н. Деятельность Сурхандарьинской областной партийной организации в года Великой отечественной войне. АКД. - Ташкент, 1974.
10. Илғор Сурхон учун. 1943 йил, 14 апрель.
11. Турдиев С. Трудовой подвиг женщин Узбекистана в годы Великой отечественной войны Советского союза. Автореф. дисс.на соис.уч.ст.канд.ист.наук.-Ташкент, 1971.
12. Турдиев С. Жасорат солномаси. Қашқадарё 1941-1945 йилларда. –Т.: “Фан”, 2008.

UO'K 93/94

TA'LIM ISLOHOTLARI: IKKI YILLIK AKADEMIK LITSEY TA'LIMINING SHAKKLANISH JARAYONI

P.Xolikulov, dots., Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute, Qarshi

Annotatsiya. Maqolada Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida, xususan, 2017/2018 o'quv yilidan boshlab respublika ta'lim tizimida ikki yillik akademik litseylar yangidan tashkil etilganligi haqida so'z yuritiladi. Yangi tipdagi akademik litseylarga o'quvchilar qabul qilish va o'qitish tartibi, mazmuni, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgardi. Akademik litseylarda ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimediya taqdimotlarini keng tatbiq qilish va buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida o'quv guruhlar tarkibi 26 nafar o'quvchidan ortiq bo'lmagan tarzda shakllantirildi. Chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari kichik guruhlar bo'lingan tarzda darslar olib borilishiga ruxsat etildi. Maqolada akademik litseylar tizimida yuz bergan shu va boshqa muhim o'zgarishlar batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim islohotlari, ta'lim turlari, akademik litsey, ta'lim sifati, ta'lim yo'nalishlari, aniq fanlar, tabiiy fanlar, optimallashtirish, axborot-kommunikatsiyalari texnologiyalari.

Аннотация. В статье рассматриваются реформы в сфере образования в Новом Узбекистане, в частности образование двухгодичных академических лицеев в системе образования республики с 2017/2018 учебного года. Коренным образом изменились порядок приема и содержания обучения учащихся в академических лицеях нового типа и требования к выпускникам. В целях повышения качества образования в академических лицеях, широкого использования в учебном процессе передовых педагогических методов, информационно-коммуникационных технологий и создания для этого необходимых условий сформированы учебные группы численностью не более 26 учащихся. Практические, лабораторные и семинарские занятия по углубленным предметам разрешалось проводить в малых группах. В

статье подробно рассматриваются эти и другие важные изменения в системе академических лицеев.

Ключевые слова: *реформы образования, виды образования, академический лицей, качество образования, образовательные направления, точные науки, естественные науки, оптимизация, информационно-коммуникационные технологии.*

Abstract. *The article discusses the reforms in the field of education in New Uzbekistan, in particular, the restoration of two-year academic lyceums in the education system of the republic from the 2017/2018 academic year. The order of admission and the content of teaching students in academic lyceums of a new type, the requirements for graduates have changed radically. In order to improve the quality of education in academic lyceums, the widespread use of advanced pedagogical methods, information and communication technologies in the educational process and the creation of the necessary conditions for this, study groups of no more than 26 students have been formed. The article discusses in detail these and other important changes in the system of academic lyceums.*

Keywords: *educational reforms, types of education, academic lyceum, quality of education, educational directions, exact sciences, natural sciences, optimization, information and communication technologies.*

Kirish. Ma'lumki, 1997-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq ta'limda amalga oshirilgan islohotlarga binoan 11 yillik umumiy o'rta ta'lim 9 yillik umumiy o'rta ta'limga o'tkazilgan edi. Shundan kelib chiqib, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida ham o'zgarish yuz berdi. Ta'lim tizimida kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar tashkil etildi. Biroq ta'limda amalga oshirilgan bu islohotlar kutilgan natijani bermadi.

Shu jihatdan 2017-2018 o'quv yilidan boshlab Yangi O'zbekistonda 11 yillik maktablar qayta tiklandi, yangi tipdagi ikki yillik akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Maqolada yangi tipdagi ikki yillik akademik litsey ta'limining shakllanish jarayoni haqida fikr yuritiladi.

Asosiy qism. Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq akademik litseylar qayta tashkil etildi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori akademik litseylar faoliyatidagi tizimli muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan. Qarorda akademik litseylar faoliyatini ular joylashgan hududning demografik, iqtisodiy va boshqa omillarini hamda bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan olib borilgan tahlillar bu sohadagi ishlarning qoniqarli emasligi qayd etiladi [1].

Qarorga muvofiq moddiy-texnik va o'quv-metodik bazasi zamonaviy talablarga javob bermaydigan akademik litseylar faoliyati to'xtatilishi belgilandi hamda oliy ta'lim muassasalaridan uzoqda joylashgan, ta'lim sifati va bitiruvchilarning oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish ko'rsatkichlari past bo'lgan 54 ta akademik litseylar tugatilishi belgilandi [2].

Qaror bilan akademik litseylarda ta'lim sifati oshirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimediya taqdimotlarini keng tatbiq qilish va buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida o'quv guruhlari tarkibi 26 nafar o'quvchidan ortiq bo'lmagan tarzda shakllantirilishi belgilandi. Shuningdek, chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari kichik guruhlariga bo'lingan tarzda darslar olib borilishiga ruxsat etildi. Qarorga muvofiq akademik litseylar direktori lavozimiga nomzodni akademik litsey biriktirilgan oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan tavsiya etilishi joriy etildi [3].

Prezident qarorida asosan akademik litseylarni qayta tashkil etish bo'yicha belgilangan mexanizmlar tubdan yangilandi. Bunda Davlat test markazi tomonidan 2 bosqichdan iborat test sinovlari o'tkaziladigan bo'ldi. Birinchi bosqichda tanlangan yo'nalishga mos 2 ta fan bo'yicha test sinovlari, ikkinchi bosqichda intellektual qobiliyat darajasi – IQni aniqlash bo'yicha test o'tkaziladigan bo'ldi.

Birinchi yili tajriba tariqasida ro'yxat bo'yicha 14 ta akademik litseyda 2 bosqichli saralash tizimi joriy etildi. Bu tizimda dastlabki yozma imtihon kirish test sinovlaridan oldin bo'ysunuvi

bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasasi nazorati ostida akademik litseylar tomonidan o'tkazildi. 2 bosqichli tizimda dastlabki yozma imtihonni o'tkazish tartibi hamda baholash mezonlari bo'ysunuvi bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlanishi belgilandi. Bu haqdagi axborot 2021-yil 1-fevralga qadar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilindi. Yozma imtihon yakunlari bo'yicha o'quvchilarni kirish test sinovlarini topshiruvchilar ro'yxatiga kiritish to'g'risida qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-sonli Qaroriga asosan akademik litseylarga qabul parametrlaridan tashqari o'qishga qabul qilishda quyidagilarga imtiyozlar belgilandi: aniq va tabiiy fanlar, informatika fanlari bo'yicha olimpiadalarda sovrinli o'rinlarni olgan umumta'lim maktablari 8-9-sinf o'quvchilari; umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari orasidan fan olimpiadasining respublika bosqichida 1-3-o'rinlar g'oliblari dastlabki yozma imtihondan ozod etiladi va ixtisoslik fani bo'yicha test sinovidan maksimal ball beriladi; chet tili fanlarini bilish darajasi to'g'risidagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilarga test sinovlarining fanlar majmuasiga kiritilgan mos chet tili fanlaridan imtihonlarsiz maksimal ball beriladi; umumta'lim maktablarining 8-9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan olimpiada va tanlovlar g'oliblari ikki bosqichli saralab olish tizimi joriy etilgan akademik litseylarda yozma imtihondan ozod etiladi [4].

Davlat test markazi tomonidan chet tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatini berish bo'yicha akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun to'rtinchi semestr davomida bepul test sinovi tashkil etiladi.

Yangidan tashkil etilayotgan akademik litseylar o'quvchilariga muhim talablar yuklangan bo'lib, unga ko'ra akademik litseylar o'quvchilari kamida bitta xorijiy tilni puxta o'zlashtirib chiqishi zarur. Shuningdek, umumta'lim fanlar soati hisobiga chuqurlashtirilgan fanlar soati oshiriladi hamda ular ulushini kamida 50%ga yetkaziladi. Ta'lim bosqichlari uzluksizligini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarining turdosh ta'lim yo'nalishlarida takroran o'qitiladigan fanlar akademik litseylar o'quv dasturidagi tegishli fanlar bilan unifikatsiya qilinadi.

Dars mashg'ulotlari respublika yoki xorijiy ta'lim muassasalarining yuqori malakali pedagoglari ishtirokida onlayn tarzda o'tkaziladi. Akademik litseylar bazasida ushbu litseylarga o'qishga tayyorlash, kompyuter savodxonligini oshirish, kasb-hunar, shu jumladan, Internet yordamida xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) orqali o'zini o'zi band qilish (frilansing)ni o'rgatish bo'yicha ta'lim xizmatlari, yozgi va qishki maktablar tashkil etiladi.

2020-2021 o'quv yilidan boshlab akademik litseylar yo'nalishlari va bloklariga qarab bir pedagog xodimga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni nisbatining cheklangan normativi 1:12 nisbatda belgilandi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha har semestrda o'quvchilarni salohiyatiga ko'ra teng nisbatda guruhlariga bo'lib o'qitishga ruxsat etildi.

2021-2022 o'quv yilidan boshlab quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda akademik litseylarning reytingi joriy etila boshlandi: akademik litseylarga hujjat topshirgan talabgorlar sonining qabul parametriga nisbati (raqobat ko'rsatkichi); oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgan o'quvchilar ulushi; nufuzli xalqaro va respublika fan olimpiadalari, sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan akademik litsey o'quvchilari ulushi; chet tillar va fanlarni o'zlashtirish darajasi bo'yicha milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar ulushi; ilmiy darajali, chet tili va fanlarni bilish darajasi bo'yicha milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lgan asosiy shtatdagi o'qituvchilar ulushi; xorijiy pedagoglar, shuningdek, xalqaro e'tirof etilgan reytinglarda 1000 talikka kiruvchi universitetlar diplomiga ega bo'lgan mahalliy pedagoglar ulushi [5].

Reyting natijalari bo'yicha uzluksiz 3 yil davomida ta'lim sifatiga oid ko'rsatkichlarida salbiy dinamika kuzatilgan so'nggi 5 ta o'rindan birini egallab kelgan akademik litseylar boshqa oliy ta'lim muassasasi tasarrufiga o'tkaziladi yoki boshqa turdagi ta'lim muassasasi sifatida qayta tashkil etiladi.

Akademik litseylarga byudjetdan tashqari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan quyidagilarni amalga oshirish huquqi berildi: iqtidorli pedagoglarning xorijda malaka oshirish yoki onlayn kurslarda o'qishi bilan bog'liq xarajatlarni to'liq

yoki qisman qoplash; yuqori malakali mahalliy va xorijiy pedagoglarni o'quv jarayoniga jalb etish, alohida yutuqlarga erishgan o'qituvchi va xodimlarga ustamalar va rag'batlantirishlarni mustaqil belgilash; iqtidorli va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalaridan bo'lgan o'quvchilarni moddiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash; moddiy-texnik bazani mustahkamlash, kanselyariya jihozlari, dasturiy mahsulotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini xarid qilish, o'quv adabiyotlarini nashr etish, litseylar veb-saytlarini yaratish va ta'minlab borish, masofaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish kabilar.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 2021-yil 1-yanvardan boshlab akademik litsey pedagoglari va xodimlarining mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida ularning mehnatiga haq to'lashda fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarning tegishli xodimlari uchun belgilangan ish haqiga tenglashtirildi. Bo'ysunuvi bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasasining akademik litseylarida o'rnak ko'rsatgan pedagog va xodimlariga lavozim maoshlarining 100 foizigacha miqdorda har oylik ustamalar to'lanishi belgilandi. Akademik litseylarning fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD), fan doktori yoxud fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga, professor yoki dotsent ilmiy unvonlariga ega bo'lgan pedagog xodimlari oliy ta'lim muassasasi katta o'qituvchisiga tenglashtirildi.

Xulosa. Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limning barcha bo'g'inlarini qamrab olgan bo'lib, bundan ko'zlangan bosh maqsad ta'lim sifatini oshirishga qaratilgandir. Akademik litseylar soni optimallashtirildi, ulardagi ta'lim sifatini oshirish va mazmunini yangilash, ularni bitirib chiqayotgan yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlarini tubdan yaxshilash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Akademik litseylarda ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimediya taqdimotlarini keng tatbiq qilish va buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish belgilandi. Chuqurlashtirilib o'qitiladigan fanlar bo'yicha amaliy va laboratoriya darslari kichik guruhlariga bo'lingan holda o'tkazilishi yo'lga qo'yilishi, albatta, ta'lim sohasidagi islohotlardan ko'zlangan maqsadga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/3133119>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/3133119>
3. Qaralsin: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/docs/3133119>
4. Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020-yil 3-dekabrda-gi "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-sonli Qarori // https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/akademik_litseylarda_iqtidorli_eshlar_qanday_saralab_olinadi
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda-gi "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2020-y., 07/20/4910/1593-son.

УЎК 930

XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДАДА ХАЛҚ ТАЪЛИМИ, МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ҲАРАКАТЛАР (Жиззах вилояти мисолида)

С.Т.Бурхонова, доц., Тошкент Молия Институту, Тошкент

Аннотация. Мақолада XIX-XX аср бошларида Жиззах шаҳрининг маданий ҳаёти, халқнинг урф-одатлари, халқ таълими анъаналари, 1880-1888 йилларда таъкил қилинган 20 га яқин эски мактабларда, масжидларда маҳаллий аҳоли болалари бошлангич таълим олгандан кейин, савдо-сотик, ҳунармандчилик, ҳаттотлик касбларининг ўқитилиши ҳамда Рус мустамлакачилари Туркистон аҳолисини европача муҳитда тарбиялашга, ўлкада европача турмуш тарзини ўрнатишга ҳаракати ҳақида сўз юритилади.

Калим сузлар: Жиззах, таълим, Туркистон, мустамлака, маънавият, масжид, маҳалла, мадраса, маънавий-маърифий.

Аннотация. В статье рассматривается культурная жизнь Джизака начала XIX-XX вв., Традиции народа, традиции народного просвещения, преподавание торговли, ремесел, каллиграфии в около 20 старинных школах и мечетях, основанных в 1880-1888 гг. начальное образование местных детей и усилия русских колонизаторов по обучению жителей Туркестана европейской среде и утверждению европейского образа жизни в стране были остановлены.

Ключевые слова: Джизак, образование, Туркестан, колония, духовность, мечеть, окрестности, медресе, духовно-просветительская.

Abstract. The article examines the cultural life of Jizzakh at the beginning of the 19th-20th centuries, the traditions of the people and public education, the teaching of trade, crafts, calligraphy in about 20 old schools and mosques, founded in 1880-1888 and the primary education of local children and the efforts of the Russian colonialists to educate the inhabitants of Turkestan in a European environment and to establish a European way of life in the country.

Key words: Jizzakh, education, Turkestan, colony, spirituality, mosque, neighborhood, madrasa, spiritual-educational.

Маълумки, мамлакатимизда ҳозирги вақтда таълим-тарбияга, шу жумладан таълим тизимига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Чунки, инсоннинг камолоти эзгу мақсадга йўналтирилган таълим-тарбияга боғлиқлигига ишонган Авлоний ҳам “Тарбия ё ҳаёт - ё мамот, ё нажот - ё ҳалокат, ё саодат - ё фалокат масаласидур» деган хулосага келади. Абдулла Авлонийнинг юқоридаги фикрининг давоми сифатида, Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислоҳ Каримовнинг «Юксак маънавият — енгилмас куч» асарида таъкидланганидек, «ўтган аср бошида миллатимиз учун қанчалар муҳим ва долзарб бўлган бўлса, ҳозирги вақтда ҳам биз учун шунчалик, балки ундан ҳам кўра муҳим ва долзарб аҳамият касб этади» [1]. Ватан, миллатнинг келажак пойдевори билим даргоҳларида яратилади, бошқача айтганда, халқимизнинг эртанги куни бўлмиш фарзандларимизнинг бугун қандай таълим ва тарбия олишига боғлиқ, чунки инсон қалбига йўл, аввало, таълим-тарбиядан бошланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши ўтказилди. Унда “Миллий тарихни миллий руҳ билан яратиш керак. Акс ҳолда унинг тарбиявий таъсири бўлмайди. Биз ёшларимизни тарихдан сабоқ олиш, хулоса чиқаришига ўргатишимиз, уларни тарих илми, тарихий тафаккур билан қуроллантиришимиз зарур”, дейди Шавкат Мирзиёев [3].

Мустамлакачиликнинг дастлабки йилларида ҳукумат маъмурияти Жиззах шаҳрининг маданий ҳаёти, халқнинг урф-одатлари, халқ таълими анъаналарига аралашмай, уни атрофлича ўрганиш билан чекланди. Жиззах музофотида халқ таълими ривожланганлиги, аҳолининг илм-фанни ўрганишга қизиқиши кучли бўлганлиги, масжид ва мактабларда Бухоро мадрасаларида таълим олган мударрислар талабалар саводини чиқариш учун диний таълим билан бир қаторда, адабиёт, риёзиёт, тарих ва география фанларидан сабоқ беришганлиги тарихдан бизга маълум. Жиззах шаҳрининг “Совунгарлик”, “Жиззахлик”, “Қассоблик”, “Ўратепа”, “Тошлоқ” маҳаллаларида 1880-1888 йилларда ташкил қилинган 20 га яқин эски мактабларда, масжидларда маҳаллий аҳоли болалари бошланғич таълим олгандан кейин, савдо-сотик, ҳунармандчилик, ҳаттотлик касбларини ўрганиб, меҳнат қилганлар. Жиззахнинг ўзига тўқ оилаларининг балалари эса Самарқанд, Бухоро мадрасаларида ўқишни давом эттирганлар. Эски мактабларда Жиззах шаҳрининг “Совунгарлик” маҳалласида Очил қори, Бурхон қори, Эгамберди домла, Мулла Тошпўлат домла, “Ўратепалик” маҳалласида Мирзо Содик, Зиё қорилар ўз замонасининг кўзга кўринган мактабдор домлалари сифатида ёшларга мусулмончилик ҳуқуқлари, шариат қонунчилиги, ислом динидан таълим беришган [5].

Жиззах шаҳридаги Ўрда қалъасининг шимоли-шарқий мавзесида, “Тошкентлик”, “Жиззахлик” маҳаллаларида Садриддин Махсум, Муҳаммад қори, “Қаландархона”

махалласида Мулла Собир домла, Мулла Ҳасан сингари зиёлилар томонидан очилган жадид янги усул мактабларида ўқувчиларга диний билимлар бир қаторда, дунёвий фанлардан ҳам машғулотлар ўтилган, дарслар ўртасида танаффуслар ташкил қилиниб, дунё хариталари, глобус ва бошқа кўргазмали куруллардан кенг фойдаланиш йўлга қўйилган. Янги усул мактабларида ислом динини ўқитиш билан бир қаторда, дунёвий илмий билимларни ўргатишга ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Жиззахлик кексалар Назиртош Ҳазраткул қизининг номини меҳнаткашларнинг фарзандларига билим ва маърифат тарқатган мўътабар аёл сифатида ҳурмат билан эслашади. Бу зиёли аёл Жиззахда илм ва санъатни севган инсон эди. Жиззах шаҳрида Назиртош Ҳазраткул кии бошлаган қутлуғ ишни унинг шогирдлари Рисолат буви давом эттиради.

Жиззах шаҳрининг маъмурий маркази Ўрда ичкарасида Шайх Нуриддин ҳожи маблағи ҳисобига Оқ масжид ва Қизил масжидлар ҳам қурилган эди. Бу иккала масжид фақатгина намоз ўқиладиган ва ёшларни ўқитишга хизмат қиладиган жой қолмай, балки тарғибот ва ташвиқот маркази ҳам ҳисобланган. Масжид хужраларида кўплаб диний ва дунёвий, ҳуқуқий адабиётлар сақланган.

Совет ҳукумати йилларида ҳар иккала масжид нураб, вайронага айланади. Оқ масжидга ўт кетиб, ёниб кетади. Сўнгра ҳар иккала масжид ғишт ва ёғочларидан фойдаланиб, Эски шаҳарда ҳаммом қурилиб, ишга туширилади.

Бугунги кунда Жиззах шаҳар кўчаларидан бири маърифатпарвар Нуриддин ҳожи номи билан аталмоқда. Жиззах шаҳрида XIX асрнинг II ярмида ва XX аср бошларида мактаб ва мадрасалар таълимида айрим ижобий ўзгаришлар юз берди. Қозон шаҳрида чоп этилган “Қуръони Карим” ва “Ҳафтияк”лар, Покистон ва Эрондан турли шоирларнинг ташаббуси билан битилган тўплам девонлари келтира бошланди. Бироқ кўп ўтмай, Туркистон генерал-губернаторлиги хазинасидан мадраса ва мактаблар учун ажратилган маблағлар тўхтатиб қўйилди [2].

Рус мустамлакачилари Туркистон аҳолисини европача муҳитда тарбиялашга, ўлкада европача турмуш тарзини ўрнатишга ҳаракат қилдилар. 1880 йилда Туркистондаги маҳаллий болаларни рус болалари билан биргаликда ўқитиб, ўлкадаги рус муассасалари, ишлаб чиқариш корхоналари учун маҳаллий миллат болаларидан таржимонлар, иш юритувчилар тайёрлаш мақсадида рус-тузем мактаблари очиш масаласи кўтарилади. Унга Россия ҳарбий вазири, генерал-адъютант граф Д.Милютин, Маориф вазири граф Толстойлар розилик беришади. Генерал фон Кауфманнинг издоши генерал-лейтенант Г.О.Розенбах ўлкада рус-тузем мактабларини очиш лойиҳасини ишлаб чиқишга ва уни амалга оширишга бевосита бошчилик қилади. Тошкент, Самарқанд, Каттақўрғон шаҳарларида 6 та рус-тузем мактаблари очилади. 1883 йили Жиззахнинг Эски шаҳарида ҳам рус-тузем мактаби очилиб, 15 нафар талаба ўқишга қабул қилинади [4].

Бу рус-тузем мактаби ҳозирги Шаров Рашидов номли мактабнинг илк негизи эди. Маълумотларга қараганда, 1889 йилда мактабда 21 ўқувчи таҳсил олган. Мактаб учун бино бўлмагани учун таҳсил Соатбойнинг меҳмонхонасида олиб борилган. 1889 йилнинг ноябрида рус-тузем мактаби учун 4 хонали бино қурилади. Бу шаҳардаги ягона оқланган бино бўлганлиги учун халқ уни “Оқ уй” деб атаётган. Бу даврда Жиззах шаҳрида рус-тузем мактаби ва 11 та эски мактабда жами 122 нафар ўқувчи таълим олишган. Рус-тузем мактабига Михаил Шалитов мудирлик қилиб, рус тили ва адабиётидан дарс берган. Мактабда С.Ананьев, Н.Алексеев, Бухоро мадрасасини тамомлаган Мулла Аҳмад Нормухаммедов, Мирзо Қори Мирабдулла ўғли, Исмоил Мўминов, Ҳотам Турсунов ва бошқалар ўзбек тил ва адабиёти, рус тили, тарих ва география фанларидан дарс берганлар.

Жиззахда ҳам рус мустамлакачилиги даврида олиб борилган оғир зулм остида жуда катта йўқотишлар бўлишига қарамай, маҳаллий аҳоли ўзлигини, миллий қадриятларини, маънавиятини, маданиятини, урф-одатларини ва турмуш тарзини сақлаб қолишни таъминлашга муваффақ бўлдилар. Мустабид тузум шароитида ҳам Жиззах халқининг эркинликка, тараққиётга интилиши ва истиқболга бўлган ҳаракати сўнмади.

Жиззахликларнинг қалбига теран ўрнашган истиқлол ва озодлик учун кураш туйғуси янада кудратли кучга айлана борди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Каримов И.А. “Юксак маънавият – Енгилмас куч” Тошкент. 2008 йил
2. Справочная книжка Самаркандской области. Самарканд, 1980, стр.101.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилишидан.
4. Х.Хайдаров. “Жиззах тарихи” Ўқитувчи.2009 йил
5. Шарипов Б., Пардаев А. Маърифат маскани. Жиззах, 1987, 5-6 бетлар

УЎК 93/94

ҚИЗИЛҚУМНИНГ “ОЛТИН” ШАҲРИ - НАВОИ М.Б.Жалилов, докторант, ўқитувчи, НавДПИ, Навои У.О.Нарзуллаев, доц., PhD, НавДПИ, Навои

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy shahrining asosiy qismida joylashgan Qizilqum konlarining paydo bo'lish tarixi, Navoiy viloyatining tashkil topish jarayoni, Navoiy kon-metallurgiya sanoat majmuasining faoliyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qizilqum, Uchtut chaqmoqtosh konlari, Sangbur, kon sanoati va uning tarixi, NKMK, yangi sanoat markazi, Navoiy shahri, mustaqillik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, Marvarid shahri.

Аннотация. В статье освещены горнодобывающих работ в Кызылкумах, занимающее основную часть территории Навоийской области, деятельности Навоийского горно-металлургического комбината и процесс формирования города Навои.

Ключевые слова: Кызылкумы, месторождение Уchtut, местность Сангбур, горнодобывающая промышленность и её история, НГМК, новые промышленные центр, город Навои, независимость, социально-экономическое развития, «Город жемчужина»

Abstract. In this article, it is described the history of coming existence of Kizilkum mining works which situated in the main part of Navoi, the process of forming of Navoi region, also the activity of Navoi mining-metallurgical industrial complex.

Key words: Kizilkum, Uchtut flint mines, Sangbur, mining industry and its history, NKMK, new industrial center, Navoi city, independence, social-economic development, “Pearl city”

Ўзбекистоннинг “олтин сандиғи” бўлмиш, Навоий вилояти майдонининг асосий қисми бепоён ва бойликларга кон Қизилқум саҳросига тўғри келади. Қизилқум - Евроосиёнинг энг йирик саҳроларидан бири ҳисобланиб, шимолда Орол денгизи соҳилидан, жанубда Зарафшон дарёси ёнидаги тор фаровон оазисгача чўзилган. Бу йирик ҳудуд катталиги 300 минг кв кмга тенг бўлиб, шарқда ва ғарбда Марказий Осиёнинг улкан дарёлари - Сирдарё ва Амударё билан чегарадош. Қизилқум кончилиқ саноати тарихининг ўтмишига назар солсак, айнан Навоий вилоятида кончилиқ ишлари қадимдан вужудга келган деган хулосага келишимиз мумкин. Шунингдек, Қизилқумда геолог ва археологлар томонидан бронза ва темир эритишга мўлжалланган ибтидоий қозон ўчоқлари топилган. Бу топилмалар эрамизгача бўлган иккинчи ва биринчи минг йилликларга тегишлидир. Бу ота боболаримиз яхшигина металсоз бўлганлигини билдиради ҳамда улар ерости бойликлари ҳақида етарлича хабардор бўлиб, кон ишлари бўйича зарур кўникмага эга бўлганлар.

Навоий шаҳридан унча узоқ бўлмаган масофада тахминан беш-олти километр жануб томонда қадимий кончилар манзилгоҳи Сангбур қалъаси мавжуд. Сангбур Зарафшон водийсининг таянч истеҳкомларидан бири бўлиб хизмат қилган. У водийга ўтиш жойида уни чўл томондан ҳимоя қилган. Қалъа муҳим, ҳал қилувчи ўрин эгаллаган. Овал шаклидаги қалъа шимолдан жанубгача унинг узунлиги 14 метр атрофида, шарқдан ғарбгача деворларининг сиртки томонидан ҳисоблаганда 4 метр атрофида бўлган. Марказий кўрғоннинг кенглиги 5 метр атрофида бўлган. Қалъанинг пастида унчалик баланд бўлмаган тепаликда шаҳар жойлашган. Сангбур - қадимий сўз бўлиб “санг” - тош, “бур” эса синдириш, ажратиш

маъноларини беради. Сангбур аҳолиси тоғ кон ишлари, тош конларида меҳнат қилишган, тошдан алмашиш ва сотиш учун идишлар ясаган, тегирмон тошларини тарашлашган. Шаҳар аҳолиси яқин атрофда жойлашган тоғ мажмуасида ишлаган қалъадан сал шарқ томонда тош конлари жойлашган бўлиб, ундаги тоғ жинсларидан кеч ўрта асрларгача тош болта, чўкичлар, дон янчғичлар, найза учлари ва бошка жиҳозлар тайёрланган. Аҳоли кулолчилик маҳсулотлари ҳам ишлаб чиқаришган.

Герадот ҳозирги Қизилкум худудида яшаган массагетлар ҳақида қуйидагича гувоҳлик берган: "...темир ва кумушни ... умуман ишлатмайдилар, сабаби бу металллар уларнинг мамлакатларида йўқ, олтин ва мис эса мўлдир"[1;94]. Антик давр географияси обрўли намояндаси Страбон Марказий Осиё ҳақида маълумот бериб, Амударё ва Сирдарё халқлари темир нималигини билмасликлари, ҳар қандай металдан кўра у ерда олтин ва кумуш кўпроқ эканлигини, темир йўқлигидан от-улов, асбоб-анжомларнинг аксарияти кўп қисми олтин ва кумушдан ясалганлиги ҳақида баён қилади.

XVI асрга келиб, айниқса Бухоро хони Абдуллахон II (1556-1588) даврида олтин, кумуш ва мис тангалар зарб этилди ҳамда заргарлик ишларидаги қатор янгиликларни амалга оширди. Бухоро амирларининг машҳур олтини маълумлиги ҳам рост. Шарқий Бухоронинг тоғли худудларидан ҳукмдорларнинг яширин олтин конлари борлиги ҳақида маълумотлар келтирилади. Аммо бу ерда ҳам из йўқолган эди. Амирлик кулаши олдидан унинг хазиналаридаги олтин 250 тоннага етган деган ривоятлар бор. Ўрта асрлардан бошлаб олтин маъданларининг жойлашган жойлари сир тутиб келинган. Айниқса Бухоро амирлигида бу иш давлат даражасига кўтарилган эди. Амирлик саройидан юборилган олтин изловчилар ёки олтин олувчилар маъданни олиб келгач яширин равишда йўқ қилиб юборилган. Бухоро амирлигидаги олтин конлари табиийки бошқаларни ҳам қизиқтириб келган. Айниқса Чор Россияси Бухоро амирлиги, Туркистон ўлкасини мустамлака қилиб олгач, унинг худудларидаги қазилма бойликларни ўрганиш, ўзлаштириш учун катта эътибор берган. Бухоро амири Абдулаҳадхон саройида Россия давлатининг сиёсий агентлиги очилишига рухсат берилгач, бу жараён янада кучайган. Бу мақсадда қатор илмий экспедициялар ташкил этилади. Улкада геология қидирув ишлари XIX аср охири XX аср бошларида бошланади ва муттасил давом этган. 1901 йилда Қизилқумга келган Николай Зарудний ҳозирги Мурунгов кони атрофларида тоғ жисмларини ўрганиш ишларини олиб борган ва олтин борлигига ишонч билдирган бўлса, В.Покровский-Козелл эса ишонч билан у томонларда олтин умуман йўқ ва бўлиши мумкин эмас деган гапни айтган.

XX асрнинг 30 йилларида геолог академиклар Александр Фресман ва Дмитрий Шербаковлар Қизилқумга экспедиция уютиришади. Умуман рус геологлари Қизилқумдаги олтин конларини топиш учун 50 йилдан ортиқ вақт сарфлашади. 1958 йилда Мурунгов тоғи яқинида олтин конларини аниқлашга муваффақ бўлинди. Навоийдаги кўпгина конлар ўзининг ноёб хусусиятлари ва захиралари нуқтаи назаридан нафакат Марказий Осиёда, балки бутун дунёда камдан-кам топилади. Мурунгов, Давгистов, Кўкпатас, Омонтойтоғ каби улкан олтин конлари, Қизилқумдаги фосфорит кони мамлакатимиздан олис-олисларда ҳам яхши маълум

Қизилқум бағридаги бебаҳо табиий бойликларни ўзлаштириш мақсадида Навоий кон-металлургия комбинати бунёд этилди. Бу корхона собиқ СССР Министрлар Советининг 1958 йил 11 мартдаги Қарорига асосан ташкил этилди. саноат индустриясининг байроқдори ҳисобланган Навоий кон металлургия комбинати (НКМК) бу кўп тармоқли корхонадир. Корхонада уран, олтин, кумуш, қурилиш материаллари, мрамар маҳсулотлари, фосфорит қазиб олинади. Бундан ташқари сульфат кислота, заргарлик, трикотаж ва тўқимачилик буюмлари, машинасозлик ва машина техникасини ишлаб чиқаради. Қидирув-разведка ишлари, маъданни қазиб олиш ва уни қайта ишлашдан бошлаб то уран оксиди ва соф (99.99) олтин олишгача бўлган тугалланган жараённи амалга оширувчи саноат корхонаси ҳисобланади. Навоий кон металлургия комбинатига қарашли саноат корхоналари республикамизнинг Навоий, Бухоро, Самарқанд, Жиззах ва Тошкент вилоятларида жойлашган. Навоий кон-металлургия комбинатида 60 мингдан ортиқ киши ишлайди.

Ўзбекистон Республикасида қазиб олинаётган олтин ва ураннинг асосий қисмини қазиб олаётган Навоий кон-металлургия комбинати жаҳондаги уран ишлаб чиқарувчи давлатларининг биринчи бешталигидан ўрин олган. Навоий кон-металлургия комбинатида олинган олтин ёмбилар Лондон рангли металл биржаси арбитраж лабораторияси сертификати (1994), 1997 йилда эса Токио саноати товарлари биржасининг сифат сертификати ва бошқа совринлар берилган[2]. Навоий кон-металлургия комбинати 2000 йилда Ўзбекистон Республикасининг “Дўстлик” ордени билан мукофатланди.

Кончилик саноатининг ривожланиши Қизилқум минтақасида муттасил ва кенг қамровли қурилишларнинг олиб борилиши, минерал хом ашёларни қазиб олиш жараёнида чўлда ноёб ишлаб чиқариш мажмуи, кўп сонли конлар, шахталар, карьерлар вужудга келди. Қизилқум минерал бойликларини ўзлаштиришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган кон-металлургия комбинатининг қурилиши янги саноат маркази барпо этилишига асос бўлди. 1958 йилнинг 3-сентябрида Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиумининг Фармонида биноан Кармана райони ҳудудида барпо этишга киришилди[3]. 1957 йил “Гипрогор” номли Москва давлат илмий-текшириш институти Бухоро вилоятининг Кармана райони ҳудудида янги саноат шахрини барпо этиш бўйича режа ишлаб чиққан эди[4;136]. 1959 йил ушбу лойиҳа асосида комбинат ва қурилиш ташкилотлари ишчилари учун бир ва икки қаватли уйлар қурилиши бошланди. Бу ҳақда шахарнинг қурувчи иш бошқарувчиси шундай эслайди: “Шаҳар ҳудудининг биринчи микрорайонидаги уйларга биринчи ғишт қуйилар экан, бу уйлар бир қаватли, 4 хонали қизил ғишдан қурилиши мўлжалланиб, шу асосида иш бошлаган эди”[5;125.]. Бу лойиҳа оддий кўрғонлар (посёлка) қурилиши учун режалаштирилгани боис тез орада ундан воз кечилди. Шаҳар қурилиши Дубна ва Обнинск каби шаҳарларни лойиҳалаштирган Ленинград (ҳозирги Санкт-Петербург) давлат институти мутахассисларига топширилди.

1961 йил ишлаб чиқилиб, Ўзбекистон ССР Министрлар Совети тасдиқлаган бош режада янги саноат корхоналарини (Навоийазот, электрохимзаавод, цементзаавод, пахтазаавод) қуриш ҳам режалаштирилган эди[6;284]. Табиийки, бунинг учун аввало шаҳарда аҳоли учун турар жой бинолари, транспорт коммуникация тизимини барпо этиш зарур эди. Шаҳарнинг кенгайтирилиши, ишлаб чиқариш, кадрларга бўлган эҳтиёж ва шу билан боғлиқ бир қатор ижтимоий муаммоларнинг аниқ ҳисобини олиб шунга монанд иш юритишга тўғри келди. Бир мунча қулайликлар яратилгандан сўнг шаҳарга турли ўлкалардан янги ишчи кучлари оқиб кела бошлади.

Олдинроқ айтиб ўтилганидек, Навоий шахрининг янги бош режаси Ленинград (ҳозирги Санкт-Петербург) лойиҳалаштириш институти инженер мутахассислари В.А.Курносков, В.Ф.Акутина, В.А.Яковлев томонидан 1978 йилда ишлаб чиқилди ва 1980 йил 7 январда Ўзбекистон ССР Министрлар Совети томонидан тасдиқланди[6;284]. Ушбу лойиҳа архитектуранинг барча талабларига тўлиқ жавоб бера олди. Бунга асос сифатида 1975 йил шаҳарнинг бир гуруҳ меъморлари Жаҳон шаҳарсозлиги Кенгашининг Халқаро Аберкромби мукофоти билан тақдирланганини мисол келтириш мумкин. Шаҳар қурилиши лойиҳасига раҳбарлик қилган А.В.Коротковнинг ҳикоя қилишича, шаҳар лойиҳаси ўзбек поэзиясидаги ғояларга уйғун ҳолда яратилгани ва шундан келиб чиқиб шаҳарга Алишер Навоийнинг номи берилса мақсадга мувофиқ бўлишини айтган[8;93.]. Шу тариқа, янги барпо этилган саноат шахри буюк мутафаккир Алишер Навоий номи билан аталган.

Навоий шахри шаҳарсозликнинг ибратли намунаси сифатида халқаро доирада ҳам тан олина бошланди. 1975 йилда ўзида Навоий шахри шаҳар меъморчилиги бўйича Америка Қушма Штатларида ўтказилган ЭКСПО кўргазмаси мукофотининг совриндори бўлди. Буюк шоир ва мутафаккир бобомиз номини улуғлаб келаётган, мамлакатимизнинг энг гўзал шаҳарларидан бири, Навоий вилоятининг маъмурий, иқтисодий ва маданий маркази бўлган Навоий дастлаб 25 минг аҳоли учун посёлка сифатида қурила бошлаган эди. Кейинги йилларда Навоий шахри ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ҳар томонлама тараққий этди. Бугун шаҳарда 150 минг аторфида аҳоли истиқомат қилмоқда. Агар Навоий вилоятида 92 миллат ва элат вакиллари яшаб келаётган бўлса, унинг “Марварид шаҳар” деб ном олган марказида 80 дан

ортик миллат вакиллари истиқомат қилмоқда. Аҳоллининг турмуш фаровонлигини ошириш, кишиларнинг муносиб ҳаёт кечириши учун зарур шарт-шароитлар яратиш борасида улкан ишлар амалга оширилмоқда. Мустақиллик йилларида қурилиш бунёдкорлик ишлари ҳажми ва кўлами йилдан-йилга ошиб бормоқда. Навоий шахрининг ўзига хос ва мос кўрку тарвотига хусн қўшаётган замонавий уй-жойлар билан бирга вилоят архивининг янги биноси, матбуот уйи, вилоят телерадио компанияси, кураш мактаби каби иншоотлари ва 2010 йилда шаҳар марказидаги Алишер Навоий номидаги боғда 2400 томашабинга мўлжалланган амфитеатр, 2011 йилда “AQUA” парк, “Ёшлар маркази” мажмуалари мисол бўла олади. Эндиликда шаҳар Қизилкумни янада кенг миқёсларда ўзлаштириш, уни дунё харитасидаги ёш ва келажаги буюк давлатнинг чинакам хазинасига айлантириш йўлидаги бунёдкорлик ишларининг чинакам марказига айланди.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Герадот. История В 9-ти кн. Перев Г.А. –М.: Ладомир, ООО “Фирма” издательство АСТ”. 1999.
2. ЎзР МДА 20 - фонд, 1- рўйхат, 25 - иш, 144- варақ.
3. Навоий вилояти давлат архиви. 3 - фонд, 24 - рўйхат, 53 - иш, 25 - варақ.
4. Ризаев С.Р. Навоийский горно-металлургический (Очерки новейшей истории). - Ташкент: Шарк, 2008.
5. Чебыкин А. А. Записки строителя. - Ташкент: Узбекистан, 1970.
6. Кучерский Н.И., Аствацатурян Г.Г., Бердников Е.А. Навоийский горно-металлургический комбинат. - Ташкент: Шарк, 2002.
7. Вентшейн Л. Имя для города // Правда Востока. 1994 год 16 апрель.
8. Кучерский Н.И. Золото Кызылкумов. - Ташкент: Шарк, 1998.

УЎК 930.25

АРХИВЛАР -ТАРИХ КЎЗГУСИ

Д.Ж.Жўраева, директор, Сурхондарё вилоят архиви, Termiz

Аннотация. Ушбу мақолада Бугунги кун ёшларини ватанпарварлик, миллат қадриятларига меҳр-муҳаббат руҳида тарбиялашга киришар эканмиз, аجدодларимиз тарихини чуқур билишимиз зарур. Бунинг учун эса ўзимиз мансуб бўлган миллат тақдири қандай кечганлиги, халқимиз олиб борган бунёдкорлик, яратувчанлик ишлар салмоги турли даврларда қандай бўлганлигини, энг муҳими, тарихий ҳақиқатларни билишимиз зарур эканлиги ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: Миллий Архив Фонди, Марказий Давлат, Марказий Архиви, нодир ҳужжатлар, диний муассасалар, архив.

Аннотация. В этой статье, так как мы начинаем воспитывать современную молодежь в духе патриотизма и любви к ценностям нации, нам необходимо глубоко знать историю наших предков. Для этого сказано, что нам нужно знать судьбу нации, к которой мы принадлежим, количество творчества и созидания, осуществленного нашим народом в разные периоды, а главное, нам нужно знать исторические факты.

Ключевые слова: Национальный архивный фонд, Центральный государственный, Центральный архив, редкие документы, религиозные учреждения, архивы.

Abstract. In this article, as we begin to educate today's youth in the spirit of patriotism and love for the values of the nation, we need to know the history of our ancestors in depth. For this, it is said that we need to know the fate of the nation we belong to, the amount of creativity and creativity carried out by our people in different periods, and most importantly, we need to know historical facts.

Key words: National Archives Fund, Central State, Central Archives, rare documents, religious institutions, archives.

Кириш. Илдизлари мозийга ёки яқин ўтмишга бориб тақалувчи тарихий воқеалар тафсилотлари ҳамда инсон умри, жамият ҳаёти билан боғлиқ асл ҳақиқатлар мужассам этилган маълумотлар, нодир ҳужжатлар эса архивларда сақланади. Шунинг учун ҳам ўтмишни ўрганиш ёки бирор-бир воқеа ёки ҳодисага аниқлик киритиш истагида бўлсак, бу борада бизга энг яхши кўмак ва ҳозиржавобликни биринчи галда архивлар беради. Чунки бу хазинахонда авайлаб сақланадиган ҳужжатлар узоқ йиллар давомида олиб бориладиган тадқиқотлар

натижасига, доимий кузатишларга, таҳлилларга ёки турли тахмин ҳамда фаразларга асосланган ҳолда фикр айтиладиган тарихий ёки илмийликка эмас, аксинча, ҳаётнинг бир парчаси қафтдагидек аниқ акс этиб турадиган ҳақиқий ва ноёб ҳужжатларга таянган ҳолда тарихни кўз ўнгингизда шудокқина гавдалантириб қўяди.

Шу боис барча даврларда, барча тузумларда ҳужжатгоҳ – архив ишига ҳамиша жиддий эътибор қўзи билан қаралиб келинган. Бизнинг даврларга келиб, бу эътибор ҳар қачонгидан ҳам кучайганлигини эътироф этиш зарур. Зеро, муҳтарам Президентимиз таъкидлаганларидек, **“Биз ёшларимизни тарихдан сабоқ олиш, хулоса чиқаришга ўргатишимиз, уларни тарих илми, тарихий тафаккур билан қуроллантиришимиз зарур”**. Бу борада бизга, табиийки, давлат архивлари беминнат ёрдам кўрсатади.

Таҳлил ва натижалар. Асрлар оша турли тараққиёт ва ривожланиш, таназзул ҳамда гуллаб-яшнаш босқичларини ўз бошидан кечирган Сурхон воҳасида ҳам жуда қадим замонлардаёқ архив ишларига алоҳида эътибор берилган. Лекин бу борадаги чинакам хайрли ишлар яқин ўтмишимиз даврида амалга оширила бошлаган. Шу маънода айтганда, Сурхондарёда тўлақонли архив ишининг ибтидоси, аслида, вилоятнинг расман ташкил этилиши, унинг ҳудудий чегараси аниқ қилиб белгилаб қўйилгандан сўнг бошланди дейилса, тарихий ҳақиқатга унчалик путур етмайди. Буни алоҳида таъкидлаётганимизнинг боиси шундаки, ҳақиқий давлат архивлари ташкил этилгунга қадар, барча ҳужжатлар саройларда, диний муассасалар ва айрим шахсларнинг хонадонларида, кейинчалик эса идораларда, масалан, девонхонада, кутубхоналарда ва мадрасаларда (*ҳатто, йирик мачитларда шажара сифатида сақланувчи ҳужжатлар бўлган – Д.Ж.*) жамланган ҳамда сақланган.

Бир сўз билан айтганда, нодир ҳужжатлар ҳукмдорларнинг, демак, хон ва амирларнинг девонхоналарида сақланган. Бу ишлар билан шуғулланиш учун, бугунги кун тили билан айтганда, иш ва ҳужжат юритувчилар – девонбеги, парвоначи, китобдор, мирзо каби хизмат вазибалари жорий этилган. Лекин замон, у билан бирга тузум ҳам ўзгара бориб, архив ишлари борасида тегишли ислохотлар ўтказишга киришилгач, қатор янгиликлар ҳаётга тадбиқ этила бошлаган. Хуллас, юқорида айтилган фикрларимизни ҳолисона ва мухтасар хулосалайдиган бўлсак, Ўзбекистонда давлат архиви ишлари XIX асрнинг охирларига келиб соҳанинг чинакам мутахассислари фаолият юритадиган махсус муассаса сифатида шакллана бошлаган, айнан ўша даврларда архив ишларини янгича шаклда ташкил этиш ғояси юзага келган эди.

Табиийки, давр ва замон руҳидан келиб чиқиб, амалга оширилган ислохотлар Сурхондарё вилояти ҳудудида архив ишларини қайтадан ташкил этиш ва жонлантиришда муҳим аҳамият касб этди. Буни алоҳида таъкидлаётганимизнинг сабаби шундаки, архивда сақланишга ҳақли барча ҳужжатлар халқлар тақдири ҳамда миллатларнинг ўзлигига жиддий таъсир этган инқилобдан олдинги ва ундан кейинги даврларда ҳам, ҳозирги кунда давлат архивлари фондларида сақланаётган ҳужжатларнинг аксар қисми араб ва лотин имлосида бўлган.

Кейинчалик эса бу иш кирил ёзувида, рус тилида олиб борилган. Ўзбекистон мустақилликка эришиб, она тилимизга давлат тили мақоми берилгачгина барча ташкилот, корхона ҳамда муассасаларда иш юритиш, ҳужжатларини расмийлаштириш ўзбек тилида юритила бошлади. Шу маънода айтганда, мамлакатимиздаги давлат архивларида ишлаётган мутахассислар барча ташкилотларда иш юритиш ўзбек тилида олиб борилишини назорат қилишга киришишди.

Айни пайтда, ҳужжатлар сақлови шароитларини яхшилаш, улардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш, архив биноларини таъмирлаш каби қатор хайрли ишлар амалга оширилди. Бунинг учун етарлича асос бор эди. Яъни, инқилобдан кейинги дастлабки йилларда бу пайтга қадар турли ташкилот ва идораларда сақланган барча ҳужжатлар архивлар ихтиёрига ўтказилган, ана шу ҳужжатлар асосида фондлар ташкил этила бошлаганди. Шу боис, иш қўлами катта, масъулият ҳам бир неча баробарга ортиб кетганди.

Бу борада шуни эслатиб ўтмоқ ўринли бўладики, дастлабки йилларда юқорида қайд этиб ўтилган манбалардан тўпланган ҳужжатлар кейинчалик таркиб топган (*бир неча бор ўтказилган ислохотлар, архив иши билан шуғулланадиган идора номланиши ўзгаришидан,*

соҳага тегишли қарорлар қабул қилингандан сўнг, – Д.Ж.) Ўзбекистон давлат архивида сақланиши йўлга қўйилди. Шу тариқа, миллий тарихимизнинг турли даврларига оид ҳужжатлар бир жойга – архивларга тўплана бошлади.

1963 йил 8 январда Сурхондарё вилоят халқ депутатлари Кенгаши ижроия қўмитаси томонидан районлар ижроия қўмиталари раислари зиммасига районлардаги тугатилган муассасаларга тегишли ҳужжатларни сақлаш ва уларни туманлараро давлат архивлари ихтиёрига ўтказиш масъулияти юкланган №9-р сонли Фармойиши чиқарилди. Сурхондарё вилояти ҳудудида 9 та район тугатилди ва ушбу туманлардаги муассасаларнинг ҳужжатларини тегишли туманлараро давлат архивларига топшириши белгилаб қўйилди”.

Биз қисқа иқтибос келтирган ушбу ҳужжатдан ҳам кўриниб турибдики, бутун Ўзбекистонда бўлгани каби, Сурхондарё вилоятда ҳам архивларга давлат сиёсати нуқтаи назаридан қаралиб келинган. Буни бир пайтлар тугатилган *(Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятларининг қўшиб юборилиши натижасида – Д.Ж.)* туманлардаги муассасаларга тегишли ҳужжатларнинг *(1962 йилгача бўлган даврга оид – Д.Ж.)* барчаси туманлараро давлат архивларига топширилиши таъминланишига эришилганлиги кўрсатиб турибди. Қолаверса, ушбу оддий мисолнинг ўзиёқ, шаклланиш йилларида архивларда фондлар ташкил этиш ишлари қандай тартиб ва талаблар асосида олиб борилганлигига аниқ далилдир.

Ҳаёт илгарилаб боргани каби бошқа соҳаларда бўлганидек, архив ишларини ташкил этиш ва уни юритиш борасида ҳам йилма-йил олға қадам ташланиб борилаверди. Буни биз юқорида мисол келтириб ўтган даврдан кейинги йилларда Сурхондарё вилоят давлат архиви фонди ҳужжатлари ҳажмининг ортиб боришида, сақлов учун қабул қилинаётган ҳужжатлар тури тобора ортиб ва янгиланиб борганлигида кўришимиз мумкин. Айниқса, мамлакатимизда архив ишларини ривожлантириш борасида эълон қилинган қатор қарорлар ҳамда ўтказилган ислохотлар, давлат архивлари учун барча қулайликлар ва шароитлар муҳайё этилган янги замонавий бинолар бунёд этилиб фойдаланишга топширилгандан сўнг, архив ишлари соҳасида ривожланиш, фондлар сонининг кўпайиши, ҳужжатлар ҳажмининг ортиб, ранг-баранглик касб этиш ҳолатлари кучайганлиги яққол сезилди. Масалан, бундай сон ва сифат жиҳатдан рўй берган ўзгаришлар архивларга эндиликда нафақат давлат ташкилотлари, корхона ва муассасалар билан боғлиқ, балки нодавлат ташкилотларнинг алоҳида қимматга эга ҳужжатларини ҳам сақловга қабул қилиш имконини берди.

Шундай қилиб, Сурхондарё вилоят давлат архивда бугунги кунда 1917 йилдан то 2015 йилгача бўлган даврдаги давлат бошқаруви органларига, суд ва прокуратура органларига, ўқув, маданий-маърифий муассасаларига, касаба уюшмаларига, халқ таълими ва ташкилотларнинг доимий ва узоқ муддатли сақланадиган ҳужжатлари кўз қорачиғидек асралмоқда. Мамнуният билан қайд этиб ўтиш зарурки, ушбу ҳужжатлар Сурхондарё вилоятининг тарихи, маданияти, қурилиши, қишлоқ хўжалиги, маҳаллий саноати, халқ таълими, соғлиқни сақлаш ва бошқа соҳалари тарихини ўзида мужассам этиб турибди.

Чунки вилоят давлат архивида 2020 йилнинг 1 октябрь ҳолатига кўра, 1265 дона жамғарма мавжуд бўлиб, уларда 163845 сақлов бирлигидаги доимий, 16606 сақлов бирлигидаги шахсий таркиб ҳужжатлари, 24549 депозитар сақловдаги ҳужжатлар сақланмоқда.

Хулоса ва таклифлар. Фондлар билан боғлиқ фикрларимизга маълум бир хулоса яшаш мақсадида шуни айтиш мумкинки, мустақиллик йилларида республика давлат архив фонди Ўзбекистон Республикаси Миллий Архив фондига айлантирилди. Бу ҳам архив ишларини янада жонлантириш ва фондлар ҳажмини орттиришда муҳим аҳамиятли бўлди. Бундан ташқари, мамлакатимиздаги бошқа вилоятларда бўлгани каби Сурхондарёда ҳам мустақиллик шарофати билан бу пайтга қадар мавжуд бўлган фондлардан ташқари янги фондлар ташкил этилиши яхши йўлга қўйилди. Сурхондарё вилояти давлат архиви фондларини ўрганиш чоғида шу нарса аён бўлаяптики, бундан аввал ташкил этилган давлат архивларидаги асосий фондлар кўпроқ совет даврига тўғри келади. Аммо, кейинги йилларда ташкил этилган ва кўпчиликти ташкил этадиган фондлар мутастиқлик шароитларида таркиб топтирилгани

кувонарли ҳолдир. Чунки ҳозирги кунда сақланаётган фондларнинг катта қисми мустақиллик даврига оид ҳужжатлардан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “Ўзбекистон Архив тизими 100 ёшда”. Тошкент, “Наврўз” нашриёти, 2019 йил. 30-бет.
2. “Ўзбекистон Архив тизими 100 ёшда”. Тошкент, “Наврўз” нашриёти, 2019 йил. 32-бет. .
3. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 519-фонд, 1-рўйхат, 76-иш, 43-; 51-вараклар.
4. Исакова М.С. Иофе В.Г. “Архившунослик”. Тошкент, “Чўлпон” нашриёти, 2007 йил.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг давлат архивига оид қарори, 2019 йил, 20 сентябр.

УЎК 902.6

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МОДДИЙ МАДАНИЯТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (кийимлар мисолида)

А. Р. Маматалиев, к.и.х., Миллий-тадқиқот институти, Тошкент

Аннотация. Ушбу мақола Ўзбекистоннинг Фарғона водийсининг XX аср ва XXI аср бошларига бағишланган этнографик, тарихий манбалардаги кийим-кечаклари ўрганишга бағишланган. Муаллиф ушбу соҳада олиб борилган ишлар натижалари ва кейинги ривожланиш муаммоларини таҳлил қилинган. Этнологик тадқиқотлар масалалари алоҳида кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Фарғона водийси, анъанавий, кийим-кечак, мунисак, ятак, замонавий тарих, Марказий Осиё, Ўзбекистон

Аннотация. Эта статья посвящена изучению Узбекстанской долины Фергана и изучению ранних XXI-веков этнографической, исторической одежды. Автор анализирует результаты работы, выполненную в этой области, и дальнейшие проблемы разработки. Проблемы этнологических исследований рассматриваются отдельно.

Ключевые слова: долина Фергана, традиционная, одежда, мунисак, ятак, Современная история, Узбекистан

Abstract. This article is devoted to the study of Uzbekistan's Fergana Valley and the study of the early XXI centuries ethnographic, historical clothing. The author analyzes the results of the work done in this area and further development problems. Ethnological research is considered separately

Keywords: Fergana valley, traditional, munisak, yaktak, modern history, central asia, Uzbekistan

Моддий маданиятнинг ўзига хос бўлаги сифатида қараладиган халқнинг анъанавий ва замонавий кийимлари қадимдан бошлаб узоқ вақт давом этган тарихий тараққиёт давомида ҳозирги кунгача шаклланган.

Ҳар бир этноснинг ўзига хос анъанавий кийимлари дарҳақиқат турли тарихий тараққиёт босқичларида ушбу халқнинг ижтимоий-иқтисодий ҳолатини кўрсатиб бериш билан бирга, бошқа халқлар билан таққослаш имконини беради ва улар билан қандай даражада маданий алоқада бўлганлигини кўрсатиб ҳам беради.

Изланувчилар аҳоли кийимларини кўпроқ ёш ва жинс билан боғлиқ эркалар, хотин-қизлар, болалар ҳамда оилавий маросим кийимлари каби турларга ажратиб ўрганганлар, албатта, ҳар бир тур кийимлар ўз навбатида яна ташқи кийимлар, ички кийимлар, бош ва оёқ кийимларга бўлинган.

XIX – XX аср бошларида водий этнослари кийимлари Марказий Осиёнинг бошқа аҳолисаники сингари чопон, пўстин, тўн, кўйлак-яхтак, камзул каби устки кийимлар, салла, телпак, дўппи, қулоқчин, қалпоқ, локки, дурра каби бош кийимлар ва махси, ковуш, чорик, этик сингари оёқ кийимларидан иборат бўлган.

Биз тадқиқ этаётган даврдаги тарихий ва этнографик адабиётлар таҳлили берилган юқорида санаб ўтилган кийимлар ҳар бир халқнинг азалий кўникмалари ва маҳаллий шароитдан келиб чиқиб у ёки бу этник жамоаларнинг миллий либослари сифатида шаклланган эди.

Қадимги кийим-кечаклар, бош кийимлар ва тақинчоқлар ҳар бир давринг яъни қадимги давр бўлсин, ўрта асрлар бўлсин ва тарихинг кейинги даврлари бўлсин моддий маданиятининг муҳим йўналиши бўлиб қолаверади. Археолог Б.Матбобоев ҳам ўзининг Фарғона водийсига бағишланган докторлик диссертациясида ҳам кўплаб археологик маълумотлардан фойдаланган ҳолда водийнинг қадимги аҳолиси кийим-бошлари ҳақида тўхталиб ўтган. Муаллифнинг келтиришича кийим-бошлар тайёрлашда чармдан ташқари ипак ва пахта тайёрланган матолардан таёрланганлиги Мунчокпепа археологик ёдгорлиги мисолида келтириб ўтган[1]. Тақинчоқлар кундалик турмушда жамиятни ҳамма қатламлари: эркак ва аёл, ўғил ва киз болалар фойдаланадиган буюмлар қаторига киради. Шунинг учун улар инсон танаси аъзоларини ва уст-бошларини кўп қисмини эгаллайди. Тақинчоқлар бош, бўйин, пешона, кўкрак, қўлтиқ, бел, бурун, қулоқ, чаккаларга тақилган.

Фарғона водийси этнографиясининг ўрганилиши таҳлил этишда Фақатгина шу минтақа эмас балким Ўзбекистоннинг барча этнографик минтақаларини ёритувчи комплекс адабиётлар мавжуд. Шулардан бири 2008 йил йил нашрдан чиққан Исо Жабборовнинг “Ўбеклар” номли китобидир[2]. Китобда биз ўрганаётган масала яъни моддий маданиятнинг кийимлар билан боғлиқ қисмига Фарғона водийси мисолида кўплаб далиллар келтириб ўтилган. Хусусан, эркак яктагининг тикилиши, мунисакнинг тузилиши, чопоннинг кийилиши, телпак ва салладан фойдаланиш, кийим тикишда ва тайёрлашда турли бўлган безаклардан ва оёқ кийимлардан фойдаланиш келтириб ўтилган. Муаллиф томонилан келтириб ўтилган далилларнинг муҳимлиги шундаки, бошга кийиладиган, инсон танасини ёпиб турадиган кийимлар ва оёқ кийимлар юртимизнинг бошқа этнографик минтақалари билан таққослаш имконини беради. Шу билан биргаликда бу келтириб ўтилган эмпирик ҳарактердаги билимлар бера олади ҳалос.

О.А. Сухарева томонидан Марказий Осиё халқларининг «туниканусҳа» шаклидаги анъанавий кийимлари эволюциясини тадқиқ қилар экан, «Фарғона водийси, Шарқий Туркистон, Қирғизистон ва Помир олди ҳудудларини ўз ичига олган маданий-тарихий ҳудудлар кийимлардаги дифференциялашув (табақаланиш) ҳолатида энг аввало, ўтроқ аҳолига тегишли анъанавий кийимларни жинсга қараб ажралганлигини-эркаклар учун олди очик ҳолатдаги кийимлар, хотин-қизлар учун олди ёпиқ бичимдаги кийимлар вужудга келганлигини»[3] кўрсатиб ўтади.

XX аср етмишинчи йилларида этнограф олима Р.Я.Рассудова Фарғона водийсининг қатор (Хонобод, Чодак, Ғова, Поп, Чуст, Равот, Чиндовул, Тергачи, Косон, Каркидон, Балиқчи, Қияли, Шаҳрихон, Хўжаобод, Арабмозор, Заркент, Охчи, Олтиарик, Бўрбалик, Водил, Сарикўрғон, Учкўприк, Риштон, Янгикўрғон, Бувайда, Яйпан каби) туманлар ва уларда жойлашган қишлоқлардан ўтроқ аҳолига тегишли бўлган анъанавий кийимлар ҳақида дала материаллари йиғиш вақтида бир неча кўринишга эга бўлган «фарғонача мурсаклар» ҳақида ҳам қимматли маълумотларни тўплаб, махсус илмий мақола чоп этган[4].

Марказий Осиёда балким юртимизда аҳолиси зич жойлашган ва кўп миллатли минтақалардан бири бўлган Фарғона водийси аҳолисини шаклланишини ўрганган олима С.С. Губаева Фарғона водийси этносларига бағишланган монографиясида XX аср бошларида мурсак оилавий маросимларда кийилмаганлиги, ярим кўчманчилар ҳаёт тарзининг ўтроқ яшаш шаклига ўтганлиги натижасида уларнинг анъанавий кийимлари ўрнини ўтроқ аҳоли кийимлари эгаллаганлиги, водийдаги барча ярим кўчманчилар кундалик ҳаётда мурсак кийганлиги, мурсак Фарғона водийси қурамаларида-“минсак”, юзларда-“мусак”, кипчоқларда-“мунсак”, туркларда-“мурсак” номлари билан аталган[5].

К.И. Антипина айнан мурсакка ўхшаш аёллар устки кийими XIX аср ярмида жанубий қирғизларда ҳам бўлганлиги, у фақат бошқа ном билан “бередже” деб аталишини кўрсатиб ўтган. Ушбу муаллиф мазкур нусхадаги аёллар кийими нафақат тайёр ҳолатда Фарғона бозорларидан сотиб олинган, балки қирғизларнинг ўзлари ҳам уни ўтроқ аҳолидан ўзлаштирган ҳолда турли шойи ва нимшойи матолардан тикканликларини ҳам келтириб ўтилган[6]. Бу эса ўз ўрнида барча анъанавий кийим-кечак турларида бўлгани каби аёлларнинг

ушбу нусхадаги устки либосларида ҳам ўзаро этник алоқалар ўз ифодасини топганлигини кўрсатади.

Ушбу манбалар орқали кўрсатиб ўтилган маълумотлар нафақат мурсак бўйича тасаввурларимизни кенгайтириш билан бирга, бизни «фарғонача» мурсакларнинг ўзига хос томонлари (тикилиши, тузилиши, аҳоли орасида тарқалган нусхалари ҳамда кийиш манераси)ни янада батафсил тушуниш имконини беради.

XX аср ва XXI аср бошларидаги адабиётлар таҳлил этилар экан ўрганилаётган даврда халқ маданиятининг қадимий элементлари ва маълум бир этносга хос бўлган хусусиятларни ўзида сақлаб қолган яна бир кийим тури бу бош кийимлардир. Марказий Осиё ва унга туташ халқлар бош кийимларини ўрганиш шуни кўрсатадики, ушбу кийим турида этник гуруҳларга хос ҳамда маҳаллий (локал) хусусиятлар билан бир вақтда кўплаб умумий-этнослараро, умумминтақавий жиҳатлар ҳам намоён бўлади[7].

Тадқиқотчилар томонидан бош кийимлардан фойдаланишга кўра икки тоифага бўлинади: эркалар томонидан бошга кийиладиган кийимлар (қалпоқ, дўппи (тақя, калла пўш), қулоқчин, бўйрак, телпак ва аёллар томонидан бошга ўраладиган ёки ёпинадиган, яъни рўмол, пешонабоғ, лачак, дурра, дуррача, локки, ёғлик, ёвлик) ва ҳоказолар.

Ўзининг кўплаб тадқиқотларини Фарғона водийсига бағишлаган О.А.Сухарева XIX аср ва XX аср водий аҳолисининг бош кийимларига бағишланган икки мақоласида этнослар орасида кенг тарқалган енгил бош кийимларидан бири бу дўппи ҳисобланиши, бу кўрсатилган вақтда водий аҳолиси ўртасида дўппининг, асосан, икки хил шакли бор бўлганлиги, биринчи шаклидагиси XIX аср охири – XX аср бошларида ҳам юқори қисмининг баланд конуссимонлиги ва гардишининг кенглиги билан, иккинчи хилдагиси эса гардиши нисбатан пастлиги, тепа қисмининг тўғри тўрт бурчак (квадрат) эканлиги, яъни яссилиги билан ажралиб турганлиги келтириб ўтган[8]. Вақт ўтиши билан иккинчи хилдаги дўппилар аҳоли ўртасида кўпроқ кийиладиган бўлди.

Олой қирғизларини ўрганган С.М.Дудин ҳам булар ўртасида Марғилон ва Қўқон дўппилари XX асрнинг бошларида кенг аҳоли қатлами ўртасида кийилганлигини, бу жараёнда моддий маданиятдаги айрим кийинишдаги белгилар қирғизларда ҳам учрашини айтиб ўтган[9].

Демак далилларга таяниб хулоса қилиш мумкинки, водийнинг ўтроқ аҳолиси орасида жун ва теридан тайёрланган бош кийимлар икки хил йўл билан оммалашиб борган. Биринчидан, ўтроқ аҳоли ўзлари ҳам бундай бош кийимларни тайёрлаганлар, иккинчидан эса, ўтроқ аҳоли томонидан тайёрланган бундай кийимлар тайёр ҳолида яримўтроқ аҳоли қирғиз, қипчоқ, қорақалпоқ, турк, юз, минг каби этник гуруҳлар томонидан харид қилинган ёки айрибошланган.

Этнология фанида моддий маданиятнинг тармоқларидан бири кийимлар ҳисобланади. Хаттоки, этнослар кундалик аёллар бош кийимлари ҳам турлича бўлиб, ёшга нисбатан, оилавий маросимлари пайтида кийиладиган ёки ўраладиган бош кийимлар ҳисобланиб, уларнинг тикилиши, ишлатиладиган матоси, беағи ва гули хаттоки шакли ҳамда рангига қараб фарқланган.

Фарғона водийсидаги этник жамоаларда моддий маданият кўриниши ҳисобланмиш кийимларни ўрганишга доир тадқиқотлар бор бўлиб, кўпгина изланишлар муаммодан келиб чиқиб (махсус равишда эмас) ўрганилган. Х. Исмоилов ҳам ўзбек аёллари XIX аср охири–XX аср бошларидаги бош кийимларини республика миқёсида ўрганиб, водий ҳудудларидаги бош кийимларга ўз муносабатини билдириб ўтган[10]. Жумладан, Наманган дўппилари, Фарғона ёши катта (қариялар) аёллар томонидан чачқоп, кийгич номли шапкалар кийилганлиги, XIX асрда Андижон аёллари салла ўраганлиги ҳақидаги қисқача маълумотларни ўрганган минтақаларидаги далилларга таяниб келтириб ўтган.

Мустақиллик йилларида нафақат Фарғона водийси балким Марказий Осиё моддий маданиятини ўрганувчи тадқиқотчилар ҳам кўпайиб борди. Шу билан биргаликда туркум илмий тўпламларни ташкил этган маҳаллий ва халқаро конференцияларни ҳам сони ортиб бормоқда. Улардаги моддий маданиятни ўрганиш учун этнографик, тарихий, санъатшунослик

ишлари сони ортиб борди. Хусусан бир неча йиллардан бери туркум нашрдан чиқиб келаётган тўпламлардан бири Тошкент давлат шарқшунослик университетидаги “Тарихий манбашунослик, таррихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” номли тўпламидир. Тўпламнинг IX илмий конференцияда тарих фанлари доктори Ш.С. Камолиддиннинг “Ўзбек дўпписи тархидан” номли мақоласи[11] чоп этилган. Муаллиф томонидан моддий маданиятнинг кийим-кечаклар йўнвлишидаги бош кийимлар билан боғлиқ муҳим маълумотлар келтириб ўтган. Хусусан, Фарғона водийсидаги Қорабулоқ қишлоғи ёнидаги харобалардан бронзадан ясалган ўткир учли бош кийими топилганлиги, ўрта асрлардаги манбаларда эркакларнинг 3 йил бош кийимлари қалпоқ, бўрк ва тақия (дўппи) кийганлиги, Фарғона ва Шарқий Туркистонда кийиладиган дўппилар асосан қора матога оқ иплар билан текилганлиги, дўппининг қора матоси юлдузли осмонни англатиши, X асрдаги Ахсикатда ясалган сопол лаганда дўппининг тепа қисмидаги рамзларга ўхшаш рамзлари борлиги, ва ҳозирги кунда Фарғона водийсида эркакларнинг тўрт бурча шаклдаги дўпписи рамзларни ифода этилишига кўра икки хил тури “чуст” ва “марғилон” дўппиларидан фойдаланиши келтириб ўтилган. Тадқиқотнинг қимматлилиқ даражаси шундан иборатки, муаллиф қадимги ва ўрта аср ва ҳозирги давр эркаклар бош киймидаги ўхшаш ва фарқли томонларини манбаларга таянган ҳолда келтириб ўтган.

XX асрнинг 70-80-йилларига келиб, Ўзбекистон давлат музейи ходимлари Т.Абдуллаев ва С.А.Ҳасановалар музей материаллари асосида “Ўзбеклар кийими” номли асарни эълон қилган бўлиб, мазкур тадқиқотда XIX-XX аср бошларидаги Бухоро, Самарқанд, Фарғона, Тошкент ва Хоразм минтақаларига хос эркаклар, аёллар ва болалар ҳамда турли табақа вакилларининг танлаб олинган кийимлари намуналари кўрсатилган[12]. Бу асар Ўзбекистон тарихи Давлат музейида сақланаётган кийимларни ўрганиш асосидаги дастлабки асар ҳисобланиб, бир қатор муҳим камчиликлардан ҳоли эмас. Унда кийимларнинг маҳаллий хусусиятларга хос томонлари акс эттирилмаган. Шу боис, Ўзбекистоннинг барча минтақаларига хос бўлган хилма-хиллик, анъанавий билиш усуллари батафсил ёритилмаган. Лекин шунта қарамай, бу асар ўзбек кийимлари мавзuida кенгрок тадқиқот олиб боришга, ўрганилмаган қирраларини очишга ёрдам беради. Айниқса, бу борада 90-йилларга келиб Москвадаги Этнография институти илмий жамоаси томонидан нашр этилган “Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқларининг анъанавий кийимлари” номли монография алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиздир. Мазкур монография муаллифлар гуруҳи томонидан бажарилган бўлиб, Марказий Осиё ва Қозоғистон халқларининг анъанавий кийимларига оид сўнгги тадқиқотлар натижалари баён этилган. Биз учун мазкур монографияда Хоразм аёллари кийимлари ва Фарғона-Тошкент эркакларининг анъанавий кийимларининг солиштира таҳлилига оид тадқиқотлар муҳим аҳамият касб этади[13]. Мазкур тадқиқотнинг биринчисida Хоразм аёлларининг анъанавий кийимлари этнографик материаллар асосида ёритиб берилган бўлса, иккинчи тадқиқотда Тошкент ва Фарғона водийси эркаклари кийимларининг ўзига хос ва ўхшаш томонлари илмий адабиётлар ва этнографик материаллар асосида ўзаро таққосланиб таҳлил қилинган.

Сўнгги йилларда ўзбек миллий кийимларини тадқиқ қилишда санъатшунос олима Н. Содиқова хизматларини алоҳида таъкидлаб ўтиш ўринлидир. Ушбу муаллиф Республикамизнинг ва хорижий мамлакатлардаги йирик музейлар фондларида сақланаётган материаллар асосида XIX-XX-асрлардаги ўзбек миллий кийимларини турли этнографик-тарихий минтақлари бўйича ўрганиб, жумладан, Бухоро, Хоразм, Тошкент-Фарғона, Самарқанд кийимларини бўйича илмий изланиш олиб бориб[14]. Шунингдек илмий ишни амалга оширишда қиёсий материал тарзда жаҳон халқлари анъанавий кийимларига оид нашр этилаётган қатор илмий ва илмий оммабоп материаллардан ҳам самарали фойдаланилган.

К.И. Антипина Жанубий қирғизларда мавжуд бўлган уч нусхадаги чопонлар ҳақида маълумотлар келтирган. Булар найғут (ёки туура) чопон, каптама (ёки урумча) чопон ва, ниҳоят, Фарғона водийсининг текислик қисми аҳолиси учун хос бўлган чопон нусхаларидир[15]. Муаллиф томонидан ҳар учала чопонларнинг бичими, тикилиши ва

тайёрлаш матолари ҳамда бу чопонлар кимлар томонидан кийилганлигига оид маълумотлар келтириб ўтилган.

Этнолог олим К. Шониёзовнинг қипчоқларга бағишланган китобида келтиришича, Фарғона водийсидаги ярим кўчманчи ҳаёт тарзида яшовчи қипчоқлар XIX охирида маҳаллий ўтроқ аҳолидан бир неча нусхадаги, хусусан ёқаси тик бўлган кўйлак нусхаларини тайёрлашни ва кийишни ҳам ўзлаштирганлар[16].

К. Шониёзов маълумотларига таянган ҳолатда яна шуни ҳам кўшимча қилишимиз мумкинки, ўтроқ бўлган ўзбек ва тожик аҳолидан бу нусхадаги кўйлакларини фақат қипчоқларгина эмас, балким водийнинг бошқа яримўтроқ (яримкўчманчи) аҳоли вакиллари (хусусан, қорақалпоқлар, турклар, юзлар, минглар, қурамаalar ва бошқа) ҳам ўзлаштирганлар.

Л.А. Чвыринг “Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX – начале XX в. (очерки историко-культурных связей)” деб номланган ишида мавжуд тарихий-этнографик адабиётлар уйғур халқи анъанавий кийим-кечаклари Марказий Осиё, хусусан, фарғоналикларники билан қиёсий таққослаб, бу йўналишда моддий маданиятдаги аҳолига хос этник ва умумий жиҳатлар таққосланган ва ўзаро этномаданий алоқаларнинг азалий тарихий асослари кўрсатиб ўтилган[17].

Бир сўз билан айтганда Фарғона водийсидаги аҳолининг моддий маданиятдаги ўзига хос жиҳатлари масаласи ҳозирги кунга қадар ҳар томонлама, махсус ўрганиб чиқилмаган.

Моддий маданият ҳар бир халқнинг асосий ўзига хослигини таъминлашда муҳим белгиларидан бири ҳисобланиб, тарихий тараққиёт жараёнида инсон онги ўзгаришида, табиий муҳитнинг танланишига кўра ҳам вақтлар ўтиши натижасида ўзгариб ва даврга мослашиб боради.

Биз ўрганаётган Фарғона водийсининг Наманган, Фарғона, Қўқон Андижон, Марғилон ҳудудлари ҳам бундан мустасно эмас. Юқоридаги манбалар, тархий ва этнографик, ўлкашунослик ва санъатга оид адабиётлар таҳлили шу нарсани англатадики: бу гуруҳга кирувчи аксарият адабиётларнинг қанчалик бир ёқламалик характерига эга бўлишига қарамай ўрганилган адабиётлар асосан XIX аср ва XX аср бошлари билан чегараланганлиги, ва бу жараёнда фақат ўша давр билан чегараланган маълумотлар имконини бериши, бу ҳолатда кейинги давр моддий маданиятдаги ўзгаришлар ўрганилиши натижасида даврлар оша кийим-кечаклардаги ўзгаришлар ёритиб борилиши орқали узлуксизлик таъминланмаслигига олиб келади.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V-VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида). Тар. фан. док. дисс. Самарқанд-2009. Б. 166-182.
2. Жабборов И. Ўзбеклар. Шарқ. 2008. Б. 90-98.
3. Сухарева О.А. Опыт анализа покровов традиционной ... – С. 78-79.
4. Рассудова Р.Я. К истории женской одежды. ... – С. 168-175.
5. Губаева С.С. Население Ферганской долины ... – С. 48.
6. Антипина К.И. Особенности материальной культуре ... – С. 248.
7. Сухарева О.А. Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии // Труды ИЭ АН СССР. Новая серия. Т. XXI. – М.-Л., 1954. – С. 299-353; Лобачева Н.П. О некоторых чертах региональной общности ... – С. 29-35; Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.И. Этнографический очерк материальной культуры узбеков конец XIX – начала XX в. – Т., 1981. – С. 76-78, 89-94; Чвырь Л.В. Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX начале XX в. Очерки историко-культурных связей ... – С. 239-249 ва бошқалар.
8. Сухарева О.А. Тубетейка. // Народное декоративное искусство советского Узбекистана. Текстиль. – Т., 1954. – С. 149-166; Ўша муаллиф. Древние черты в формах ... – С. 339-343.
9. Дудин С.М. Отчет о поездках в Среднюю Азию (1900 – 1902 гг.). Каракиргизы ... – С. 11.
10. Исмаилов Х. Головные уборы узбеков конца XIX–начала XX века // Общественные науки в Узбекистане. 1977. № 6. С. 50-54.
11. Камолидди Ш.С. Ўзбек дўпписи тарихидан. // “Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” мавзусидаги Республика IX илмий конференциянинг материаллари. Тошкент. 2017. Б. 67-78.
12. Абдуллаев Т.С., Хасанова С.А. Одежда узбеков (XIX-XX вв.) Ташкент, 1978.
13. Сазонова М.В. Женский костюм узбеков Хорезма // Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. М., 1989. С.90-106; Рассудова Р.Я. Сравнительная характеристика мужской одежды населения Ферганско - Ташкентского региона (XIX вв.) / ра Диционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. М., 1979.

14. Содиқова Н. XIX-XX асрларда ўзбек миллий қийимлари. Т. 2001.
15. Антипина К.И. Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов. Фрунзе. 1962. – С. 223-225.
16. Шониёзов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. ... – С. 253.
17. Чвырь Л.А. Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX – начале XX в. (очерки историко-культурных связей). – М., 1991.

УДК 930

**ИСТОРИОГРАФИЯ ИСТОРИИ КУЛЬТУРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА
ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ И КАРАКАЛПАКСТАНА В 1960-1970-Х ГОДАХ**
Н.К.Нуруллаева, к.и.н., доц., Ургенчский государственный университет, Ургенч
Д.Эркинова, магистрант, Ургенчский государственный университет, Ургенч

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmidagi Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston o'rtasidagi madaniy hamkorlik tarixining tarixshunosligi yoritilgan. Olimlarning tarixnavislik asarlarida o'z ifodasini topgan do'stlik tarixi, xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning jadal rivojlanishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tarixshunoslik, tarix, madaniy hamkorlik, fan, ta'lim, san'at, xalqlarning o'zaro yordami, madaniy qurilish.

Аннотация. В данной статье освещается историография истории культурного сотрудничества Хорезмской области и Каракалпакстана во второй половине XX столетия. Анализируется история дружбы и интенсивное развитие взаимоотношений народов, которые нашли своего отражения в историографических трудах ученых.

Ключевые слова: историография, история, культурное сотрудничество, наука, просвещение, искусство, взаимопомощь народов, культурное строительство.

Abstract. This article highlights the historiography of the history of cultural cooperation between Khorezm region and Karakalpakstan in the second half of the twentieth century. It is analyzed the history of friendship and the intensive development of relations which are reflected in the historiographic works of scientists.

Key words: historiography, history, cultural cooperation, science, education, art, mutual assistance of peoples, cultural construction.

В изучаемый период в историографии Узбекистана формируется новое направление о «расцвете социалистических наций и их сближении, братской помощи русского народа братским нациям Средней Азии» [1]. В трудах ученых большое внимание привлекали проблемы планов культурных преобразований, пути и методы их осуществления, обобщение и научное осмысление опыта культурного строительства в регионе, в частности Каракалпакской АССР. Среди работ, посвященных проблемам культурного строительства в регионе, заслуживают упоминания, прежде всего, книги и статьи У.Х.Шалекенова, А.Панабергенова, Г.Напесова, Р.Джуманиязова и др. [2]. В работах каракалпакских историков проанализированы основные формы культурной взаимопомощи, которая оказывалась другими народами республике: направление молодежи на учебу в вузы Москвы, Ленинграда, Алма-Аты, Ташкента, Оренбурга и других городов, организация подготовительных (курсов для поступления в учебные заведения, факультетов, отделений и студий в центре, присылка специалистов из центра для оказания помощи в развитии науки, просвещения, искусства, организация специальных экспедиций Академии наук СССР по изучению производительных сил с привлечением и обучением местных кадров, содействие в создании научных и культурных учреждений и т.д.

История дружбы и дальнейшее интенсивное развитие взаимоотношений народов освещены в публикациях С.Камалова, Р.К.Джанабаева, П.Муратовой, Дж.Уббиниязова, В.В.Германовой, В.Х.Татыбаевой. В них приведено немало данных об исторических корнях дружбы, показана помощь народов в создании в регионе новых производств, ликвидации неграмотности населения, изучении производительных сил, в подготовке в центре и на местах

высококвалифицированных кадров различного профиля, прослеживается процесс сближения наций и народностей, развитие национальных отношений [3].

В трудах по истории культурной революции в регионе особо выделяется «роль русского народа как «старшего брата», своеобразного клише, рассматривающий древние народы Средней Азии как отсталых, неграмотных и некультурных. Во многих публикациях развитие культуры и культурных взаимосвязей видится через призму ликвидации неграмотности, создании письменности, организации народного образования, подготовки национальных кадров, развитие среднего и высшего образования. Авторы отмечали, что успехи, достигнутые народами, возможны «при бескорыстной помощи братских народов, прежде всего великого русского народа». Этого не удалось избежать и С. К. Камалову, И. К. Косымбетову, которые в своих ранних работах особо подчеркивают, что «расцвет социалистической культуры каракалпакского народа, как и всех народов нашей страны — это результат дружбы народов СССР» [4].

В обобщающем виде данный вопрос исследован также в сводном труде «История Каракалпакской АССР» в 2-х томах (Ташкент, 1974). Тема интернационализма раскрывается здесь с учетом многообразных проявлений сотрудничества советских народов: в экономическом и культурном строительстве, в осуществлении социальных преобразований и т.д. Авторы охарактеризовали формы братской взаимопомощи народов, связывая проявление их с конкретными задачами советской системы без учета много вековых традиционных связей, будь то политические, общественные, экономические и культурно-духовные. Эта проблема также нашла отражение в историографических трудах ученых Каракалпакстана [5].

На рубеже 1990-х годов и в Хорезмской области, и в Каракалпакстане проблемы межнациональных отношений и взаимовлияния культур становились актуальными, которые, так или иначе, становились в центре научного изучения. Эти стремления исследователей обуславливались стремительными изменениями в социально-политической и духовной сфере. Где-то терялись ориентиры, где-то что-то приобреталось, или же по-прежнему насаждалось, оставаясь в рамках изживавшей идеологии. Наиболее ярким примером может послужить работа Р.Джуманиязова [6], который в своем исследовании попытался охарактеризовать весь исторический путь Хорезмской области, хотя ему не удалось избежать традиционных советских стереотипов и клише.

В целом, многие вопросы культурного сосуществования народов рассматривались с позиций решения национального вопроса и национальных отношений в рамках коммунистической идеологии. Однако, заметим, что в исследованиях этого периода проблема охватывала культурные связи либо с общих позиций без ситуативного анализа процессов на национальных окраинах советской империи, либо без критического анализа.

Хорезм как регион с богатым историческим прошлым, и с великими традициями искусства постоянно находился в поле зрения ученых-культурологов и искусствоведов. Например, Р.Л.Садоков дал краткую характеристику музыки Хорезма, черт, отличающих ее от смежных среднеазиатских музыкальных культур. При этом автор понимает, что невозможно раскрыть тему вне историко-культурной панорамы, присущего для региона и отмечает, что еще многое остается неизученным, многое неизвестно. Необходимо констатировать, что до сегодняшнего дня «большинство памятников музыкального творчества, записанных хорезмской нотацией, вообще не расшифровано, а теория состава народных ансамблей - инструментальных, инструментально-вокальных, инструментально-вокально-танцевальных- по существу является пока тайной. ... Стремительное движение жизни, ее бурный натиск уносит старое, отжившее, и в этом потоке иногда исчезают столетние ценности. Поэтому нужно увеличить темпы и глубину исследований сочетать с широтой поисков. Бесспорно, в этом направлении, как одном из ведущих в большом круге музыкальных проблем, изучение музыкального наследия, вопросы истоков того или иного музыкального явления станут решающими» [7].

В историографической части работы дан возможно полный обзор истории изучения музыкальной культуры Хорезма, где автор пытается определить предмет, цель и возможности

музыкально-исторической науки, опирающейся на материалы археологических раскопок. По нашему мнению, научные изыскания в этом направлении дали бы большой комплекс материалов, которые послужили бы расширению источниковой базы нашей темы.

Проблемы культурного роста и повышения культурного самосознания народов Хорезмского оазиса в контексте центральноазиатского региона, нашли отражение в ряде исследований зарубежных ученых[8]. В работах зарубежных историков обоснованно указывалось на наличие двух приоритетных факторов: 1) процессов русификации национальных культур в СССР и 2) оторванности народов Хорезмского оазиса от наследия досоветского прошлого. Главной целью советской культурной политики - отметил Дж.Уилер, - является уничтожение мусульманской культуры и замена её советской» [9].

Таким образом, в изучении проблемы интернационализации в историографии до периода независимости Республики Узбекистан имеются определенные исследовательские результаты. В трудах каракалпакских и хорезмских историков советского периода учтены основные формы и методы содействия развитых наций экономическому и культурному росту, но они далеко не все учтены, в частности, вне поля зрения ученых оставались вопросы культуры и культурного сосуществования народов, берущих свое начало с незапамятных времен.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ РАБОТЫ:

1. Расцвет социалистических наций и их сближение. – Т., 1967; Под знаменем дружбы. – Т., 1974 и т.д.
2. Шалекенов У. Х. Очерки по истории культуры Советской Каракалпакии (1917—1940).—Нукус: ККТИЗ, 1960; Панабергенов А. Культурное строительство в Каракалпакии в первые годы Советской власти// Труды Каракалпакского госпединститута. Нукус, 1964. вып. 2. С. 96 — 113; Непесов Г. и др. Великий Октябрь и победа народной революции в Хорезме.- Ташкент, 1971; Джуманиязов Р. За высокую культуру быта села. – Ташкент, 1972.
3. Уббиниязов Дж. Чтобы залечить тяжкую рану Поволжья. Как завязывались интернациональные связи советских народов// Вестник ККФАН УзССР, 1971, № 4. С. 55 — 58; Камалов С.К. О дружбе народов Каракалпакии и Хорезма// Вестник ККФАН УзССР, 1970, № 3. С. 45—49; Джанабаев Р.К. Помощь братских республик Каракалпакии в подготовке специалистов с высшим образованием (1959—1975)// Вестник ККФАН УзССР, 1977, №4. С. 56—60; Татыбаева В. Х., Германова В. В. Братская помощь Советской России в строительстве г. Нукуса — новой столицы ККАССР// Вестник ККФАН УзССР, 1982, № 4. С. 61 — 63.
4. Камалов С.К. Расцвет Советской Каракалпакии в братской семье народов СССР//Под знаменем ленинского интернационализма.— Ташкент: Узбекистан, 1985; Он же. Плоды братской дружбы// Вестник ККФАН УзССР, 1971, № 1. С. 6—11; Косымбетов И. К. Плоды великой дружбы.— Нукус: Каракалпакстан, 1972; Камалов С. К., Косымбетов И., Косбергенов Р. Навеки вместе.— Нукус: Каракалпакстан, 1973.
5. Досумов Я.М. Каракалпакия в годы гражданской войны (1918-1920). — Нукус: Каракалпакстан, 1975. — С.7-28; Мухамедбердыев К.Б. Ленин и народы Хорезмского оазиса. Вопросы истории, историографии и источниковедения перехода к социализму. — Нукус: Каракалпакстан, 1982. — 201 с.; Утепов К.Т. Историография истории Каракалпакской АССР 1917-1977 гг. — Автореф. дис. ... канд ист. наук. — Ташкент, 1983. — 24 с. Кощанов Б.А., Джумашев А.М. Зарубежная и Отечественная историография истории Туркестана, Хорезма и Каракалпакстана в первой четверти XX века. — Нукус: Каракалпакстан, 1997.— 48 с.
6. Джуманиязов Р. Хорезм. Краткий очерк политической и социально-экономической истории. 1920-1990 гг. — Ургенч, 1991.
7. Садоков Р.Л. Музыкальная культура древнего Хорезма. — Москва, 1970.
8. Barghoorn F. Soviet Russian Nationalism. — New York, 1956; Yunther J. Inside Russia today. — New York, 1958; Spektor Y. The Soviet Union and the Muslim World, 1917-1958.- Yeattle, 1959; Wheeler Y. Racial Problems in Soviet Muslim Asia.-London-New Yowk-Bombay, 1962; Bennigsen A., Wimbush S.E. Muslim national communism in the Soviet Union. A revolutionary Strategy for the colonial world. Chicago; London, 1979 - 267 p.; Bennigsen A. Modernization in the Soviet Union. Colorado, 1980; Bennigsen A., Brocsap M. The islamic threat to the Soviet State. London and Canborra, 1983.
9. Wheeler Y. Recent Developments in Soviet Central Asia // The Geographical Journal, 1957, June. P.141.

УЎК 94(575.1)

МУҲАММАД РАҲИМХОН I (1806-1825) ДАВРИДА ХИВА ХОНЛИГИНИНГ ТАШҚИ СИЁСИЙ ВА ИҚТИСОДИЙ АЛОКАЛАРИ

Б.Х. Сапарбаев, PhD., Ургенч давлат университети, Ургенч

Аннотация. Ушбу мақолада Хива хони Муҳаммад Раҳимхон I даврида Хива хонлигининг Россия, Эрон, Афғонистон, Ҳиндистон, Туркия, Хитой, Бухоро амирлиги, қўчманчи халқлар

(туркман, қорақалпоқ, қозоқ) билан олиб борган сийёсий ва савдо-сотиқ алоқалари ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: Муҳаммад Раҳимхон I, Н.Н.Муравьев, Хива шаҳри, Янги Урганч, Қўнғирот бозори, Оренбург, Астрахан, Қот шаҳри бозорлари.

Аннотация. В данной статье представлены сведения о политических и торговых связях Хивинского ханства с Россией, Ираном, Афганистаном, Индией, Турцией, Китаем, Бухарским эмиратом, кочевыми народами (туркменами, каракалпаками, казахами) в период правления Хивинского хана Мухаммад Рахимхана I.

Ключевые слова: Мухаммад Рахимхан I, Н.Н.Муравьев, город Хива, Новый Ургенч, Кунградский базар, Оренбург, Астрахань, базары города Кят.

Abstract. This article presents information about the political and trade relations of the Khiva Khanate with Russia, Iran, Afghanistan, India, Turkey, China, the Emirate of Bukhara, nomadic peoples (Turkmen, Karakalpaks, Kazakhs) during the reign of the Khiva Khan Muhammad Rakhimkhan I.

Key words: Muhammad Rakhimkhan I, N.N.Muravyev, Khiva city, New Urgench, Kungrat Bazaar, Orenburg, Astrakhan, Kyat city bazaars.

1816 йил 20 июлда Россия Хива ва Туркменияга махсус экспедиция ташкил этиш ҳақида қарор қабул қилди. Унинг сув йўллари қисмига майор Пономарев, қуруқликдаги қисмига капитан Муравьев тайинланди. Шу муносабат билан Н.Н.Муравьев Хивага етиб келди. Россия ҳукуматининг яқиндан дўстлик алоқасига киришиши ҳақидаги таклифини олиб келган вакилни Муҳаммад Раҳимхон I яхши кутиб олди, унинг барча таклифларини қабул қилди ва у билан ишончли кишиларни бирга жўнатишга розилик берди[1]. Шундан кейин икки давлат орасидаги муносабатлар фаоллашди. Савдо-сотиқ, борди-келдилар жонланди.

Хива ўша даврда Россияга ташилаётган шарқ товарларига ўзига хос омбор вазифасини ўтади. Чунки шаҳар Ўрта Осиё давлатлари билан Россия ўртасидаги бепоён чўлнинг ўртасида жойлашган бўлиб, Россияга йўл олган барча қарвонлар унинг устидан ўтар эди [2].

Муҳаммад Раҳимхон асосий эътиборни Янги Урганчга қаратди. Бу шаҳар Амударё бўйига яқин бўлиб, дарё транспорти ташиётган барча товарларни қабул қилишда ўзига хос порт вазифасини ўтар эди. Товарлар шу ерда турларга ажратилиб, маҳаллий эҳтиёжга доирлари бозорларга чиқарилад эди. Янги Урганч ташқи савдонинг асосий маркази бўлиб шаклланди. Хонликдаги экспортга мўлжалланган барча товарлар Урганчда жамланиб, барча ҳудудларга жўнатилган [3].

Янги Урганчда хоннинг акаси Қутлимурод иноқнинг қароргоҳи жойлашган. Шаҳардаги 1500 уйда 5000 аҳоли истиқомат қилган. Аҳоли сони бундан юқори бўлиши ҳам мумкин. Чунки бу ерда яшовчи кишилар нуфузи Хивадагидан устунроқ бўлган. Янги Урганчда асосан ерли халқ-сартлар яшаган ва улар савдо-сотиқ ишларига моҳир бўлишган. Шаҳарда кўплаб савдо дўконлари ишлаб турган.

Хонлиكنинг ички ва ташқи савдосида Қўнғирот, Чимбой, Хўжайли, Нукус каби бозорлар алоҳида ўрин тутган. Қўнғирот бозори “Ўрусча” бозор деб аталган. Чунки, бу бозор хонлиكنинг Россия билан бўлган савдосида, айниқса, қуруқлик орқали олиб борадиган савдода муҳим роль ўйнаган. Россиядан Хивага баҳмал, олтин ва қумуш буюмлар, игналар, қанд, пичоқлар, қоғоз, идишлар, Европада ишланган бошқа турли буюмлар келтирилган. Хивадан Россияга пахта, гуруч, рўён, тамаки, туршак, хом тери, пўстин, кўрпа ва турли хом ашёлар юборилган. Ўз навбатида Россиядан металлдан ишланган асбоб-ускуналар кўк, фаранг чит каби газлама моллари, гулли рўмоллар ҳамда чарм каби товарлар келтирилган [4].

Хива савдогарлари Бухородан ҳам кўпгина маҳаллий товарлар олиб келишган. Улар асосан бўз, пахтадан ишланган матолар, ипак буюмлар, жун матолар, чой, чинни идишлар, қорақўл терилар бўлиб бир қисми Хивада бозорга чиқарилган ва яна бир қисми Урганчга келтирилиб, бошқа маҳаллий товарлар билан биргаликда Астрахан ва Оренбург орқали Россияга жўнатилган.

Дашт ва чўлларда яшайдиган халқлар Хивадан асосан буғдой ва бошқа дон маҳсулотларини харид қилишган. Шаҳарда божхона мунтазам ишлаб турган. Хоразмда қўй кўп боқилган. Унинг жунидан кигиз, наMAT тайёрланган ва сотувга чиқарилган. Шунингдек, жун кўлқоп ва пайпоқлар тўқилган.

Сўйилган қўйнинг ичагини ичак фурушга сотишган. Улар янги сўйилган қўй ичагини катта-катта махсус бочкаларда тузлаб сақлашган. Бир муддат ўтгач, тайёр бўлган хомашё ичаклар кемаларда Амударё орқали Орол денгизига ёхуд туяларда Оренбургга келтирилган. Параходларда ёки карвонларда қўй ичаклари Оренбургдан Тула, Самара, Рязань ва Москва шаҳарларига, у ердан Болтиқбўйи давлатлари орқали Европа мамлакатларига етказиб берилган. Бу ичаклардан кемачилик эҳтиёжлари–катта елканли кемалар учун арқонлар ва бошқа зарур ёрдамчи воситалар тайёрланган. Европада эса қўй ичакларидан жарроҳлик операцияларида фойдаланишган[5].

Хива хонлигидан жўнатиладиган товарлар асосан туялар воситасида ташилган. Оренбург орқали жўнатиладиган товарлар ҳажми тобора ошиб борган. 1816 йилнинг ўзида Хивадан Оренбургга 2335 туя мол келтирилган. 1818-1824 йилларда Хивага Россиядан 14869 руб товарлар жўнатишган [6].

Хоразмда савдо-сотиқ билан асосан сартлар шуғулланишган. Ўша даврда Хива ҳукмдори хонлик ҳудудидан олтин ва кумуш олиб чиқиб кетишни қатъий таъқиқлаган. Сартлар Астраханга бўёқлар ва совун олиб келишган. Хивада ишлаб чиқарилган совунлар Россияда машҳур бўлган, айни пайтда арзон сотилган.

Рус савдогарлари Хивага бевосита келиб бирор нарса сотиб олиб кетишга журъат қилишмаган. Чунки улар кўп ҳолларда талончиликка дуч келишган. Йўлда қароқчилар кўп бўлган. Бу талончилар фақат русларгина эмас, балки хиваликларнинг ўзини ҳам талаган. Бундан ташқари Хивадан борган савдогарларнинг ҳам Астрахан арманлари аксарият ҳолларда молларини талаб қуруқ қўл билан қайтишга мажбур қилганлар [3].

Муҳаммад Раҳимхон I даврида Хива хонлиги Эрон билан ҳам савдо-сотиқ ишларини йўлга қўйган. Бирок, икки давлат ўртасидаги адоват бу алоқани тўла йўлга қўйишга тўсқинлик қилган. Эрон савдогарлари кўп ҳолларда хивалик танишлари ёрдамида келиб зардўз буюмларини сотишган. Айрим ҳолларда олтин билан келиб, қўл қилиб сотилган яқинларини сотиб олиб кетишган.

Хивалик савдогарлар кўчманчи халқлар билан ҳам савдо-сотиқ алоқаларини кенг йўлга қўйишган. Кўплаб туркман қабилалари, мамлакат ҳудудидан ташқаридаги мустақил қорақалпоқлар, қозоқлар билан савдо қилишиб улардан қўй, туя ва жундан тўқилган кийимлар олишган. Айниқса туркман гиламлари, чодирлар савдогарларни кўпроқ қизиқтирган. Гургон ва Атрак туркманларидан ўзининг бўйи, кучи ва гўзаллиги билан машҳур бўлган отларни харид қилишган.

Қозоқлар эса Кот шаҳри бозорларига чўл отларини келтиришган. Бу отларни Хивада кўп сотиб олишган. Чунки улар кўп юк кўтариб, чўлларда толиқмасдан юришган. Совуққа чидамли ва соғлом бўлишган. Кўчманчи халқлар Хивадан озиқ-овқат, кўпроқ дон маҳсулотларини сотиб олишган. Шунингдек кийим-кечаклар, уй жиҳозлари сотиб олишга ҳам қизиқишган.

Бинобарин, Хива хонлигининг асосий савдо-сотиқ бозори Россия билан боғланиб қолган эди. Ўз навбатида Муҳаммад Раҳимхон I ҳукмронлигининг охириги йилларига келиб икки давлат орасига муайян даражада совуқлик тушади ва муносабатлар кескинлашади. Бунинг асосий сабабларидан бири инглизлар Ўрта Осиёда ўз таъсирини ўрнатиш учун аввало бу ҳудудлар билан иқтисодий алоқалар боғлаб, Ўрта Осиё бозорларини Англия таъсирига олиш, иккинчи томондан, дипломатик муносабатлар билан у ерда ўз сиёсий ҳукмронлигини ўрнатишни кўзда тутган эди. Бу сиёсат Россияга мутлақо ёқмас, шу сабабли мазкур алоқаларни тўхтатиш чораларини излашар эди.

Маълумотларга қараганда, Англиянинг саноат моллари Ўрта Осиё бозорларида, хусусан Хивада биринчи марта 1825 йилда пайдо бўлган эди[7].

Россия Ўрта Осиёда ўз таъсирини йўқотмаслик учун кескин чоралар кўра бошлайди. Албатта бу ўлкада инглизлар таъсирининг пайдо бўлиши уларнинг сиёсатига зид келар эди. Шу сабабли Ўрта Осиё хонликларига турлича босим ишлатиш ҳоллари рўй берди. Шимолий ўлкаларда руслар таянч пунктларига хос иншоотлар кура бошлашди.

1824 йили Муҳаммад Раҳимхон I даврида полковник Циалковский раҳбарлигидаги ҳарбий карвон Хивага қараб йўлга чиқди. Карвонда иккита замбарак, 625 та аскар бор эди. 1824 йил 2 ноябрида Оренбургдан йўлга чиққан карвон 15 декабрда Сирдарёдан ўтиб, 11 январда Қизил қумдаги Бештепа деган мавзегга етиб келди. Қаттиқ совуқ туфайли ушбу карвон орқага қайтиб кетишга мажбур бўлди [8].

Муҳаммад Раҳимхон I даврида Россия тасарруфидаги бошқа халқлар билан бўлган алоқалар ҳам фаоллашди. Русларга қарам бўлган қозоқлар Хива хонлиги билан савдо-сотик алоқаларини мунтазам давом эттирдилар. Кўплаб қозоқ савдогарлари катта карвонлар билан Устюрт, Сирдарё ва Қизилқум орқали Хивага кела бошладилар. Қозоқ савдогарлари Россиядан Хивага металл ва шиша буюмлар келтириб сотишган. Бу даврда нафақат Хивада, балки Ўрта Осиё хонликларининг бирортасида ҳатто шиша ишлаб чиқариш ҳақида тасаввур ҳам бўлмаган [6].

Шунингдек дашт савдогарлари Хивага кўпроқ қўй ҳайдаб келишган. Қозоқларда қўй қорақалпоқларга қараганда ҳам кўп бўлган. Кўчманчи савдогарлар Хивадан кўп ҳолларда дон ва озиқ-овқат маҳсулотлари харид қилишган.

Хоразмда тут дарахти кўп экилган ва мўл-кўл пилла етиштирилган. Шу сабабли ипак матолар кўп бўлган. Хоразм тўқимачилари ишлаб чиқарган абришим (ипак газламалар) хонлик ичкарисидоғина эмас, балки чет элларда ҳам қадрланган. Ипак матолар Хивадан Эрон, Афғонистон, Ҳиндистон ва Россияга олиб кетиладиган асосий предметлардан бири бўлган [1].

Хивадан Туркия, Хитой ва бошқа қатор шаҳарларга қорақўл терилар ва гиламлар жўнатилган. Хоразмлик савдогарлар Машҳад-Марв йўлида эронликлар билан ҳам савдо ишларини олиб боришган.

Хива хонлигида кўпроқ эркин савдо ҳукм сурди. Маҳаллий ва хорижий савдогарлар хон рухсати билан савдо қилиш учун тегишли бож тўлагандан кейин ҳеч қандай чекловларсиз ўз фаолиятларини эркин амалга оширганлар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. История Узбекистана (XVI - первая половина XIX в.) –Т.: “Фан”, 2012. –С.304; С.327.
2. Давлетов Б. Правитель Хивинского ханства Мухаммед Рахимхан I // Вестник ККО АН РУз. Нукус, 2005. №1-2. – С.87.
3. Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного сию страну для переговоров. – М., 1819-1820.Т. 1-2; – С.93; С.97.
4. Жалилов О. XIX–XX аср бошларидаги қорақалпоқлар тарихидан (Хива давлат ҳужжатлари асосида) - Т.: “Фан”, 1986. – Б.72.
5. Бекмуҳаммад У. Хоразмга ошuftа кўнгиллар. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2012. – Б.88
6. Михалева Г.А. Узбекистан в XVIII–первой половине XIX века. (ремесло, торговля, пошлины). –Т.: “Фан”, 1991. – С.86; С.31.
7. Давлатёр Раҳим. Оллоқулихон. –Урганч: “Қувончбек-Машҳура”, 2018. –Б.271.
8. Аллаева Н. Хива хонлиги дипломатияси (XVI-XIX асрлар). – Тошкент: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – Б.218.

УЎК 93/94

ҒУЗОР ВОҲАСИДАГИ “КОРИЗ” ЕР ОСТИ СУВ ИНШООТИ ТЎҒРИСИДА

С.Суюнов, катта илмий ходим, Самарқанд археология институти, Самарқанд

Аннотация. Мақолада, Жанубий Сугднинг шарқий қисмида жойлашган, Ғузор воҳасининг сугорма деҳқончилик тарихи билан боглиқ янги маълумотлар келтирилган. Ғузор воҳасининг сув иншоотлари қурилиш тарихи тўғрисида илк маълумотлар ўтган асрнинг иккинчи ярмидан қайд қилинган.

Сўнгги йилларда олиб борилган қидирув тадқиқотлари натижасида қўлга киритилган маълумотлар асосида, воҳадаги ер усти ва ер ости сув иншоотларининг қурилиш тарихи тўғрисида якуний хулоса қилинди. Дастлаб, Жанубий Сугднинг шарқий қисмида жойлашган

Гузор ирригация районида, турли даврларга оид сув иншоотлари орқали сугорилган деҳқончилик ер майдонларининг ўзгариш жараёnlари таҳлил этилди. Шу билан бирга асосан ривожланган ўрта асрларда бунёд этилган сув иншоотлари орқали воҳадаги сугориладиган деҳқончилик ер майдонларининг чегараларига ҳам аниқлик киритилди. Ўрганишлар асосида ер ости сув иншооти ҳисобланган “Кориз” орқали воҳада бир неча юз гектарга яқин қўшимча ер майдонлари ўзлаштирилганлиги аниқланди.

Хулоса қилиб айтганда Гузор ирригация районида олиб борилган тадқиқотлар натижасига кўра, бошқа даврларга нисбатан айниқса, ривожланган ўрта асрларда ер усти ва ер ости сув иншоотларидан кўпроқ фойдаланганлиги кузатилди.

Калит сўзлар: Гидрогеология, Қашқар, Турфон, Кориз, ирригация, ер усти ва ер ости сув иншооти, Қизилча, таноб, қудуқ, туннель.

Аннотация. В статье приводятся новые сведения, связанные с историей орошаемого земледелия Гузарского оазиса, расположенного в восточной части Южного Согда. Первые сведения об истории строительства ирригационных сооружений Гузарского оазиса зафиксированы со второй половины прошлого века.

На основании полученной информации, в результате проведенных исследований за последние годы, сделан окончательный вывод об истории строительства наземных и подземных оросительных сооружений оазиса. Первоначально, были проанализированы процессы изменения площадей сельскохозяйственных угодий, орошаемых ирригационными сооружениями разных периодов Гузарского ирригационного района, расположенного в восточной части Южного Согда. Более того, были уточнены границы орошаемых сельскохозяйственных угодий оросительными сооружениями оазиса, которые были сооружены в средневековье. На основании проведенных исследований установлено, что благодаря подземным водным объектам— «кяриз», в оазисе была освоена несколько сотен гектаров дополнительных земель.

В заключении, можно сделать вывод, на основе проведенных исследований, в результате которого было замечено, что в Гузарском ирригационном районе больше потреблялись наземные и подземные ирригационные сооружения в эпохе развитого средневековья по сравнению остальными периодами.

Ключевые слова: Гидрогеология, Кашгар, Турфон, кяриз, ирригация, наземные и подземные оросительные сооружения, Кызылча, танаб, колодцы, туннель.

Abstract. The article provides new information related to the history of irrigated agriculture in the Guzar oasis, located in the eastern part of Southern Sogd. The first information about the history of the construction of irrigation facilities in the Guzar oasis was recorded from the second half of the last century.

Based on the information received, as a result of research conducted in recent years, a final conclusion was made about the history of the construction of surface and underground irrigation facilities in the oasis. Initially, the processes of changing the areas of agricultural land irrigated by irrigation facilities of different periods in the Guzar irrigation region, located in the eastern part of Southern Sogd, were analyzed. Moreover, the boundaries of irrigated agricultural lands were clarified by the irrigation facilities of the oasis, which were built in the Middle Ages. On the basis of the conducted studies, it was established that thanks to the underground water body - "Kyariz", several hundred hectares of additional land were developed in the oasis.

In conclusion, it can be concluded, on the basis of the conducted research, as a result of which it was noticed that in the Guzar irrigation region, ground and underground irrigation facilities were consumed more in the era of the developed Middle Ages compared to other periods.

Keywords: Hydrogeology, Kashgar, Turfon, kariz, irrigation, surface and underground irrigation facilities, Kyzylcha, tanab, wells, tunnel.

Юртимиздаги ер ости сувларининг таркибини аниқлаш, уларнинг ҳоссасини ўрганиш, келиб чиқиш ҳолатини таҳлил қилиш ҳамда ҳаракат қонуниятлари ва тарқалиш жараёнини кузатиш шу билан бирга хўжаликларга келтирадиган фойдасини ўрганадиган фан

Гидрогеология ҳисобланади. Ер ости сувларини қидириш, маълум бир миқдорини аниқлаш ва суғоришда улардан фойдаланиш, шу билан бир қаторда ҳар хил усулдаги муҳандислик иншоотларини қуриш каби амалий масалалар гидрология, геология, гидравлика, ирригация, иқлимшунослик, тупроқшунослик каби фанлар билан ҳамма бўлган.

Ер ости суви ҳақидаги билимлар қадимдан бошлаб, тўпланиб келинади. Қадимдан шаҳарларнинг пайдо бўлиши уларда суғориладиган ерларга бўлган талабнинг ортиб бориши, суғорма деҳқончиликка асосланган турмуш тарзининг ривожланиши билан боғлиқ бўлиб келган.

Масалан милоддан аввалги III- минг йилликларда Миср, Ҳиндистон, Хитой, Ўрта Осиё ва Озарбайжон каби давлатларнинг ҳудудидан 100 м гача чуқурликда бўлган қудуқлардан сув олинганлиги тарихий манбалардан бизга яхши маълум. Ҳаттоки ўша даврлардан бошлаб аҳоли минерал моддалар (шифобахш) дан ҳосил бўлган маданли сувлар орқали даволаниб келинганлиги айtilган.

Фалакиёт, риёзиёт, маъданшунос йирик олим Абу Райҳон Берунийнинг «Отилиб чиқаётган сувларнинг табиати тўғрисида» ги асари гидрогеологияга оид ер усти ва ер ости сув манбаларини ўрганиш билан боғлиқ дастлабки илмий тўплам ҳисобланади. Илмий асарда асосан Устюрт, Султонсанжар, Сарикамиш, Султон Увайсидаги булоқларидан чиқаётган сувларнинг табиий хусусияти тўғрисида ҳам маълумотлар берилган [1].

Ўрта Осиё халқларининг ижтимоий, сиёсий ва маданий ҳаёти тарихида IX асрнинг иккинчи ярмидан токи XIII аср бошларигача бўлган давр ўйғониш даври ҳисобланади. Унинг асосий белгилари илм-фан ва маданиятнинг барча жабҳаларида қилинган буюк кашфиётларда кўринади.

Тарихдан маълумки ўша даврда қурилиш, ирригация, ободонлаштириш ишларини кенг қўламда амалга оширишга эга бўлган йирик давлатлар –Сомонийлар (IX-X асрлар), Қорахонийлар (XI-XII асрлар) ва Хоразмшоҳлар (XII-XIII аср боши) номи билан боғлиқ. Ўша даврнинг буюк алломалари –Муҳаммад ал-Хоразмий, Аҳмад ал-Фарғоний, Абу Райҳон Беруний, Носир Хисрав, Маҳмуд Кошғарий, Абулқосим аз-Замахшарийлардир. Улар нафақат математика, астрономия, геология, география сингари фанлар, балки сув илми (дарёлар, тўғонлар ва ер ости сув иншооти) ривожига ҳам улкан ҳисса қўшганлар [2].

Ўрта асрнинг буюк олими Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий ўзининг машҳур “Китоб ал-жабр вал муқобала” асарининг сўз бошида “математика турли ҳисоблашларда, ер сатҳини ўлчашда, канал қазилар зарур бўлганда керакдир” [3] деб айtilган. Бундан ташқари Европалик ўйғониш даври олимлари Агрикола, Палисси, Стенолар ҳам ер ости сувларининг пайдо бўлиши ва уларнинг хусусиятлари тўғрисида кўп йиллар давомида тадқиқотлар олиб боришган. Ҳаттоки, XIX асрнинг охири XX асрнинг бошларига келиб ер ости сувларининг тарқалиш қонуниятлари ҳам ишлаб чиқилган. Бундан ташқари XX асрнинг иккинчи чорагида Ўзбекистан ҳудудининг биринчи марта гидрогеологик (сув илми билан боғлиқ) харитаси тузилган. Шу билан бир қаторда умумий гидрогеологиянинг янги соҳаси сифатида палеогидрогеология (қадимги геологик даврлардаги ер ости сувлари ҳақидаги таълимотни ўрганадиган) фани вужудга келган. Мавжуд ташкил этилган фаннинг тарақиёт натижаларидан бири ер ости сув иншоотларининг вужудга келиши ва уларнинг қазилиши билан боғлиқ.

Бизга география фанидан маълумки Қашқадарё воҳасининг географик жойлашуви, унинг табиий иқлим шароити ва ер рельефига қараб (Қашқадарё водийси бўйича) 4 та қисмга бўлинади. Улар текислик, паст текислик, қир адир тоғ ён бағирлари ва тоғлардан иборат. Воҳа текислик ҳудудининг тупроқ иқлим шароити аҳолининг кўп қиррали хўжалик фаолияти учун энг қулай ҳисобланади. Дарё водийлари, дарёлар ва сойларнинг аллювиал ётқизиклари ҳам жуда қулай, шу сабабли бу ерда хўжалик асосан суғорма деҳқончиликка мўлжалланган. Шу сабабли ҳам Жиннидарё, Оксударё, Танҳоздарё, Қизилдарё ва Яккабоғдарё каби кўплаб тоғ дарёлари ва сойлар аҳоли зич жойлашган кичик воҳаларнинг шаклланишида муҳим роль ўйнаган.


Қашқадарё воҳасининг жануби-шарқий қисмида жойлашган Ғузор туманида олиб борилган сўнгги археологик қидирув тадқиқотлари натижасида ер ости техник сув иншооти

хисобланган Кориз тўғрисида ҳам янги маълумотлар қўлга киритилди.

Араб ёзма манбалардан бизга маълумки коризлар шарқнинг қадимий гидротехник қурилиш усуллариининг энг мураккаб намунаси ҳисобланган. Унлардан асосан қир, адир ва тоғ ён бағридаги ерларни ҳамда лалмикор деҳқончилик ер майдонларини суғоришда кенг фойдаланиб келинган. Кориз ер ости сув иншоотидан кўпроқ Эронда ва Қашқарда жуда кенг фойдаланиб келинган. Масалан ғарбий Хитойга саёҳат қилган рус сайёҳи Грум-Грижимайло кориз ер ости сув иншооти ҳақида шундай деб ёзади “Турфон вилояти Ўрта Осиё худудида жойлашган бўлиб, Турфон ерлари асосан қумлоқ, тошли-шағалли чўллардан иборат. Масалан Турфон ерларига юқоридан қаралганда, унинг кўп жойларида қандайдир турна қатор қудуқлар кўринади”, бу коризлардир деб айтган [4].

Ўзбекистон худудида бундай ер ости сув иншооти ҳисобланган коризлардан ҳам асосан тоғ ён атрофи ва текислик қисмидаги ер майдонларни суғоришда фойдаланган. Жумладан Сирдарё, Сурхондарё, Зарафшон, Қашқадарё, Сангзор воҳалари ҳамда Нурота, Жанубий-Хоразм ва ғарбий ҳудуд ҳисобланган Қорақалпоғистонда бунёд этилган ер ости сув иншооти коризлар шулар қаторидандир. Бир тарихий қўлёзма кўринишида бўлган манбада Муҳаммад Латифхоннинг ўғли Ҳасан томонидан (XVIII-асрнинг охири, XIX-асрнинг бошлари), Ғузур воҳасидаги қўриқ, бўз ва дашт ерларни ўзлаштириш мақсадида ер ости сув иншооти кориз қаздирилганлиги тўғрисида маълумот берилади. Бу ер ости сув (техник) иншооти орқали тахминан 800 танобга яқин (бир таноб ер тахминан 0,25-0,5 гекторга тенг) ер майдони суғоририлганлиги таъкидланади.

Ўрта Осиёда қазилган коризлар мураккаб ирригация иншооти ҳисобланиб, улар асосан ер ости сув захираларини тепага олиб чиқиш мақсадида бунёд этилган. Ер ости сув захирасидан фойдаланиш усуллари эса IX-асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб токи ҳозирги вақтгача кузатилади. Айнан шу даврдан бошлаб, Ўрта Осиёнинг тоғ олди ҳудудларида жойлашган қия текислик ер майдонларини суғоришда, ер ости сувларини параллел бир жойга йиғиб ер устига чиқариш учун махсус қазилган қудуқлар тизими орқали бунёд этилган “Кориз” лардан фойдаланиб келинган (1-расм).



1-расм. Кориз ер ости сув иншооти, (А. Муҳаммаджонов) [5]. а). Ер ости қудуғи, б). Ер усти қобиғи, в). Ер ости сув йўли. г). --->Ер ости сувларининг маълум бир туннель бўйича ҳаракатланганининг суръати

Ер ости сув иншооти “Кориз” ни қазиш учун биринчи навбатда ер ости сув сатҳида юз берадиган ўзгаришлар ҳамда ер релъефидаги нишабликни тўғри белгилаш талаб қилинган. Коризларни қазишда махсус асбоблар (Ватерпас ва Астролябия) дан жуда кенг фойдаланилган. Ушбу техник қурилмалар орқали ер остида олиб бориладиган қазиш ишлари аниқ геометрик ҳисоб-китоб қилинган. Шундан сўнг коризларни қазиш ишларига руҳсат берилган. Мавжуд техник қурилмалар ёрдамида қазилган қудуқлар ер остида, лаҳим

(туннель) орқали бир-бирига улаб борилган. Улардан ҳосил бўлган сув манбаи эса текисликка чиқарилган [6] (2- расм).



2-расм. Кориз ер ости сув иншоотининг текисликка сув олиб чиқадиган ариғи (Р. Равшанов бўйича)

Дастлаб Кориз ковланиши зарур бўлган ҳудуд аниқлаб олинган. Сўнгра ушбу ҳудуд бўйлаб, кориз трассаси белгилаб чиқилган. Шу тариқа трасса бўйлаб, ҳар 10-15 метрда қудуқлар ковланган. Қудуқлар тизими ер остидан бир-бирига лаҳим (туннель) орқали қўшиб борилган. Белгиланган ҳудуддаги ер ости сувларини тўпланишига қараб сув чиқадиган бош қудуқнинг чуқурлиги бир неча метргача етган. Қудуқлар, лаҳим (туннель) орқали бир-бирларига ер остидан бирлаштирилган бўлиб, уларнинг баландлиги тахминан 2 м дан 6 м гача бўлган. Кориз ер ости сув иншоотининг узунлиги ернинг нишаблигига қараб 500 м гача борган [7].

Ўзбекистонда коризлар энг кўп тарқалган ҳудуд Нурота таманидир. Улар асосан Нурота тоғ тизмасига кирувчи Оқтоғ ва Баҳилтоғ ён бағирларида қазилган бўлиб, иншоот сувни шу тоғларда тўпланадиган ер ости сувларидан олган. Мавсумий ёмғир сувлари ер орқали сизиб ўтиб, ер остидаги ғовак муҳитда жойлашган шағал тошлар ва конгломератлар оралиғидан шимоли-ғарбга паст томонга қараб ҳаракат қилган. Ҳосил бўлган сувлар, қатор жойлашган қудуқлар орқали текислик томон йўналтирилган ва ер юзига чиқарилган. Нурота туманида фойдаланиб келинаётган Калтакориз ер ости сув иншоотининг лаҳим (туннель) қисми ҳозиргача яхши сақланган [8] (3-расм).



3-расм. Кориз ер ости сув иншоотининг туннель қисми (С. Суюнов бўйича -2015)

Юқорида қайд этилган Кориз ер ости сув иншоотини қуриш ниҳоятда оғир ва мураккаб жараён ҳисобланади. Унда машаққатли кўл меҳнатидан ташқари ер ости сувларининг тўпланадиган қатламлари йил давомида ҳосил бўладиган сувларнинг сатҳида рўй берадиган ўзгаришлар аниқ ҳисоб-китоб қилинган. Бундан ташқари кориз сувларидан фойдаланувчилар

ва сувни таҳсимловчилар ўртасида низолар келиб чиқмаслиги учун ҳар йилги суғориш ишлари даврида муроблар сайланиб улар ариқлар, булоқлар ва коризларни тозалаш ишлари билан ҳам шуғулланган [9]. Муробларнинг сўзларига кўра коризларда асосан куз ва қиш ойларида ер ости сувларининг даражаси энг паст бўлган вақтда иншоотда тозалаш ишларини амалга оширилган. Куз ва қиш мавсумида воҳанинг йирик сунъий суғориш каналлари, ариқлар, коризлар, биргаликда хашар йўли билан тозаланган [10]. Шулар билан бир қаторда коризларнинг сувидан фойдаланиб келган аҳоли ҳам иншоотларни тозалашда (уларни тозалаш мураккаб бўлганлиги учун) кўшимча ишчи кучи сифатида иштирок этган.

Нурота туманида ҳозирги кунгача фойдаланиб келинаётган ер ости сув иншооти «Калтакориз» деб номланиб, унда 50 та қудуқ мавжуд. Айниқса баҳор мавсумида иншоот орқали бир неча гектарга яқин ер майдонлари суғорилади.

Худди шундай ер ости техник сув иншооти Жиззах вилоятининг Фориш тумани тоғ олди худудида Сўлоқли қишлоғининг дашт мавзейсида ҳам аниқланган. Олинган маълумотларга кўра ер сатҳидан 1 м. 65 см чуқурликда, ер остидаги йиғилган сувни текисликка олиб чиқадиған, сақланиши яхши бўлган иншоот қайд этилган. Қизиқарли томони шундаки иншоотнинг сақланиб қолган лаҳим (туннель) қисмининг остига қум плиткалар ётқизилган. Иншоотнинг остки қисмидан токи оғзигача баландлиги 1,10 м га, остки туннель қисми остигача 36 см га, қудуқ оғзининг диаметри 1,30 м га тенг [11]. Ҳозирга келиб Сўлоқли коризи бутунлай кўмилиб кетган.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси археология институтининг Кеш археология отряди 2013-2014 йилларнинг ёз ойларида Ўзбекистонда археологик ёдгорликлар мажмуасини тузиш мавзуйси остида Қашқадарё вилоятининг шарқий ва жануби-шарқий худудлари (туманлар кесими) да қидирув тадқиқотлари олиб борди. Қидирув тадқиқотлари натижасида аниқланган археологик ёдгорликлар билан бир қаторда сунъий суғориш тармоқлари, эски ўзанлар, ариқлар, сув иншоотлари ва кориз ер ости техник сув иншоотлари аниқланди. Кориз ер ости сув иншооти ер сатҳидан 1,10 м, чуқурликда сақланган бўлиб, унда ер ости орқали сувни текисликка олиб чиқадиған қудуқнинг иккита оғзи қисми сақланганлиги кузатилди. Сақланиб қолган бош қудуқнинг оғиз диаметри 90 см га тенг бўлиб, унинг лаҳим (туннель) қисми кўмилиб кетганлиги аниқланди. Маҳаллий аҳолининг сўзларига кўра бу техник иншоот Қизилчакориз номи билан аталган (4- расм).



4-расм. Яккабоғ тумани шимолий дашт худуди Қизилқўрғон ёдгорлигига яқин жойлашган кориз ер ости сув иншоотининг бош қудуғи

Тадқиқотлар давомида аниқланган ер ости сув иншооти Қизилчакориз, Қизилча тоғ олди худудида жойлашган бўлиб, ўша худуддаги текислик ер майдонларини суғориш мақсадида бунёд этилган деган фикрга келинди. Чунки олиб борилган тадқиқотлар натижасида шу нарса аниқ бўлдики ер ости сув иншооти ҳисобланган Қизилча кориз тахминан XI-XII асрларга ковланган. Бундай хулосага келишимизга асосий сабаб Қизилчакориз ер ости техник сув иншоотининг шимолий қисмида XI-XII асрларга оид қишлоқ типдаги ёдгорлик

Қизилқўрғонтепа сақланиб қолган [12]. Ёдгорлик орқали Қизилчакориз ер ости сув иншоотининг даврий санаси аниқланди.

Юқорида олиб борилган тадқиқотларнинг барчаси, яъни суғориш ишлари билан боғлиқ бўлган дарёлар орқали (сунъий тармоқлар) ковлаш, сойлар сувлари орқали (тўғонлар) бунёд қилиш, кориз иншооти орқали (ер ости сувларини), ер устига чиқариш ва улардан фойдаланиш каби ишлар, инсонларнинг ўша даврлардаёқ юқори билим ва тажрибага эга эканлигидан дарак беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар I-VII томлар, Тошкент, ФАН, 1968-1987.
2. Буюк сиймолар, алломалар. Ўрта Осиёлик машхур мутафаккир ва донушмандлар. I китоб,-Тошкент: Мерос, 1995.
3. Аҳадова М., Ўрта осийлик машхур олимлар ва уларнинг математикага доир ишлари, Т., 1983.
4. Грумм-Грижимайло Г. Е. Описание путешествия в Зап. Китай, М., 1948.
5. Муҳаммаджонов А. Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи, “ФАН” нашриёти, Тошкент, 1972.
6. Равшанов Р. Самарқанд воҳасининг сув ўлчовлари ва сув тақсимооти тартиблари, Тошкент. 1974.
7. Бобоҳўжаев А. Коризлар тўғрисида, Фан ва турмуш, Тошкент, 1984.
8. Суёнов С. Нурота коризлари ҳақида, Ўзбекистон қадимда ва ўрта асрларда маърузалар баёни. Самарқанд 1992.
9. Федченко А. П. Кариз//Материалы для статистики Туркестанского края; Ежегодник. Вып. 2. СПб., 1873.
10. Аҳадова М., Ўрта осийлик машхур олимлар ва уларнинг математикага доир ишлари, Т., 1983.
11. Суёнов С. Шимоли-ғарбий Уструшонанинг суғорилиш тарихи (V-XVI асрлар, археологик матриаллар асосида), Диссертация: т.ф.н., Самарқанд-1999.
12. Раимкулов А.А., Суёнов С.С., Саидов М.М., Ражабов А.Ю. Ўзбекистон археологик ёдгорликлар каталоги, 5 том. Қашқадарё вилояти. 1-қисм. Яққабоғ тумани, Самарқанд, 1913.

УЎК:323.573.4

ҚАДИМГИ УСТРУШОНАДА БРОНЗА ДАВРИ ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШГА ДОИР

Ф.Тошбоев, PhD, Жиззах давлат педагогика университети, Жиззах

Аннотация. Муаллиф ушбу мақоласида Қадимги Уструшона ҳудудида ўрганилган бронза даврига оид ёдгорликлар материалларини таҳлил қилган. Бунда Андронова маданиятининг Федоров ва Аликул босқичларидаги миграциялар натижасида Уструшона ҳудудларининг фаол ўзлаштириб бошланиши Желлигулли, Бахмалсой, Кулписар ва Моргузар тоғларидаги ёдгорликлар материалларда акс этганлиги асосланган.

Калит сўзлар: тош яшик, Желли гулли, Бахмалсой, Афанасьев, Окуневск, Қорасук маданияти, Федоров, Олтой ўлкаси, Корақўл маданияти, А.В. Шишов, Мўминобод, ГИС таҳлиллар, дольмен, Андронова маданияти.

Аннотация. В данной статье автор проанализировал материалы изученных памятников эпохи бронзы на территории Древней Уструшаны. Он основан на том, что начало активного освоения уструшанских территорий в результате миграций федоровского и аликульского этапов андроновской культуры. Это отражается в материалах памятников Джеллигуллинских, Бахмалсойских, Кульписарских и Моргузарских гор.

Ключевые слова: каменный ящик, Желли гули, Бахмалсой, Афанасьев, Окуневск, Карасукская культура, Федоров, Алтайский край, Коракольская культура, А.В. Шишов, Моминабад, ГИС-анализ, дольмен, андроновская культура.

Abstract. In this article, the author analyzed the materials of the studied monuments of the Bronze Age on the territory of Ancient Ustrushana. It is based on the fact that the beginning of the active development of the Ustrushana's territory as a result of migrations in the Fedorov and Alikul stages of the Andronovo culture. This is reflected in the materials of the monuments of the Dzhelligullinsky, Bakhmalsoy, Kulpisar and Morguzar mountains.

Key words: stone box, Zhelli guli, Bakhmalsoy, Afanasiev, Okunevsk, Karasuk culture, Fedorov, Altai region, Korakol culture, A.V. Shishlov, Mominabad, GIS-analysis, dolmen, Andronovo culture.

Кириш. Жиззах шахрининг ғарбий қисмида жойлашган тоғларда олиб борилган изланишлар натижасида, қояларда жойлашган сўнги бронза ва илк темир даврига оид тош яшик кўринишидаги қабрлар аниқланди ва очиб ўрганилди. Бу ерда ўрганилган тошдан ясалган қабрлар, тоғ тепасидаги қоянинг тош қатлами кесиб ўтган устига қурилган. Қабр (тош яшик) усти тўлиқ тошлар билан тўлдирилган. Бошқа хил қабрлар устига ҳам плита тошлар қўйиб ёпилган. Қабр полида сақланиши ёмон ҳолатдаги, боши ғарб томонга қаратиб қўйилган одам суяклари қайд этилди. Суяклар тозаланганда маълум бўлдики, қабр тоғ устида қоя тошни кесиб (марҳум учун махсус тўрт бурчак кўринишидаги, тош яшик шаклида) ясалган ва қабр тош яшик кўринишини олган.

Боғишамол мемориал ёдгорлиги шимолидаги тоғ ёнбағрида ҳам битта қабр ўрганилди. Мазкур қабр бизгача бузилган. Сақланиб қолган қисмида олов излари ва пишган кесак қолдиқлари ва одам суягининг баъзи қисмлари қайд қилинди. Жасад бош тарафида деярли бутун ҳолдаги мил. авв. XIII-XII асрларга оид дашт бронза даври жамоалари моддий маданиятининг Зарафшон варианты (Федоров, Орск - Оқтўба гуруҳидаги ёдгорликлардан топилган сопол идишларга ўхшаш)га оид сопол идиш топилди.

Сўнги йилларда олиб борилган бу каби изланишлар, сўнги бронза даврига оид миграциялар натижасидаги манзилгоҳлар Уструшонанинг фақат тоғли теграларида эмас бошқа (тоғ олди ва дарё водийлари) ҳудудларда ҳам вужудга келган деган фикрга келишимизга сабаб бўлмоқда. Бундай фикрга келишимизга Желли ғулли қишлоғи яқинидаги тоғ қояларида ўрганилаётган тош яшик кўринишидаги қабрлар сабаб бўлмоқда. Бу қабрлар ясаиш шаклига кўра Олтой ўлкасидаги Коракўл маданиятига оид қабрлар ва Кавказнинг шимоли – ғарбий ҳудудларидаги сўнги бронза даври қўйиндиларига ўхшайди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Олтой ўлкасидаги Коракўл маданиятига оид қабрларни ўрганган археологлар уларни уч хил типга ажратганлар ва уларнинг кўпчилигини тош яшик кўринишидаги қабрлар ташкил этади. Бу қабрларнинг кўпчилиги барча томондан тош плиталар билан ўралган тош яшик кўринишида бўлган [1. стр. 28.,рис.69-71]. Кавказнинг шимоли – ғарбий ҳудудларида А.В. Шишлов ва Н.В. Федоренко томонидан ўрганилган 193 қабр иншоатлари конструкциясига кўра 5 гуруҳга бўлинган. Барча типлар учун асосий хусусият қабрларнинг ер устида жойлашганлиги ва тошлардан қурилганлиги ҳисобланади. Улардан биринчи гуруҳга 75 қабр киритилиб, унда жасадлар тошдан ясалган қабр(тош яшик)ларга дафн этилган [2. Стр. 63-73]. Бунда, тошлардан ясалган қабр девори, худди Желлуғилли қабрлари каби материкдан бироз ўйиб кирилиб, деворнинг юқори чеккаси ва ёпиш учун қўйилган тош плита ер юзаси горизонтга тенг ҳолда жойлаштирилган. Қабр (яшик) деворлари асосан, тош ва қумтош бўлакларидан, икки ҳолатда яшик тагига иккита тош плита қўйилиб, устини ёпишда бир ёки бир нечта тошлардан фойдаланилган. Улардаги қизиқарли хусусиятлардан бири, баъзи қабрларда алоҳида қўйилган идишлар қабрдан ташқарида қайд қилинган [2. Стр. 68]. Бундай ҳолат Желлигули №4 даҳмада ҳам кузатилди. Унда сопол идиш қабрдан ташқарига қўйилган эди.

Фикр юритиш мукинки, ушбу (тош яшик) қабр соҳиблари миграциялар натижасида, Ўрта Осиё ҳудудларига Мўғилистон, Жанубий Сибир ва Олтой ўлкасидан кириб келган ва ўзларининг тош яшик кўринишидаги қабрларга дафн этиш анъанасини давом эттирган. Кейинчалик уларнинг катта қисми ғарбий ўлкалар (Кавказ)га томон кўчиб кетган бўлиши мумкин [3. Стр. 7-9].

Бронза даври дашт чорвадор қабилалари маданияти билан боғлиқ ёдгорликлар Зарафшон воҳасида кўплаб ўрганилган. Улар манзилгоҳлар, уй-жойлар қолдиқлари, тоғ қончилиқ билан боғлиқ бўлган ишлаб чиқариш объектлари – металлургия марказлари ҳамда мазоркўрғонлардан иборатдир[4. Б. 105]. Зарафшон воҳасидаги бронза даврига оид Гужайли, Мўминобод, Қизил-қир, Сайгус, Чакка, Сиёб, Дашти Ашт, Дашти Қазо каби чорвадорларга мансуб мазоркўрғонлардаги қабр тузилиши, марҳумларнинг дафн маросимлар, оловга сиғиниш излари, сопол идишларнинг ясаиш, шакли ва нақшлари, марҳумнинг антропологик типи Андроново жамоаларига хос хусусиятларни ўзида намоён қилади[5. Б. 107-111]. Бу жараён эса академик А.А. Асқаров таъбири билан айтганда,- “чорвадор туркий тилли

даштликларнинг Зарафшон водийсининг сўғдийзабон қадимги деҳқончилик маданияти жамоалари билан илк бор аралшиб, қоришиб яшай бошлаганликларидан далолат беради” [6. Б. 230].

Шу пайтгача Тошкент воҳасида олиб борилган археологик тадқиқотлар натижасида, кўчманчилар сўнгги бронза даврида минтақани фаол ўзлаштириб бошлаганлиги аниқланган. Улар Андронova маданиятининг Петров, Федоров, Саргари-Алексеев босқичларига мансуб чорвадор қабилалари томонидан ўзлаштирилган. Бу жамоаларга мансуб ёдгорликлар Янгийўл шаҳри жанубидаги, Жун ариғи бўйлари ва Искандар қишлоғи атрофларида ўрганилган. Улардаги материаллар хусусиятига кўра, Андронovo маданиятининг Федоров маданиятига мансублиги аниқланган. Шунга ўхшаш материаллар “Никифоров ерлари”, Шоштепа, Мингўрик ва Қорақамишсой ҳудудлари. Чирчик дарёсига Чимбойликсув яқинида ва Бурчмулло қишлоғида ўрганилган [7. Стр.3].

Юқорида санаб ўтилган ёдгорликлардаги материаллар мил.авв. II минг йилликка оид Қозоғистон ва Ўрта Осиёдаги, Федоров ва Саргари-Алексеев маданиятига тегишли эканлиги таъкидланган [8. Стр. 53-54]. Сўнгги бронза даври материалларига таяниб айтиш мумкинки, Чоч воҳаси ва Суғд ҳудуди мил.ав. II-I минг йилликларнинг чегарасидан бошлаб қадимги ўтроқ деҳқончилик вилоятлари билан маданий алоқалар ўрнатган Андронovo чорвадор қабилалари томонидан фаол ўзлаштирилган. Бироқ, Қадимги Чоч ва Суғд ҳудудларида кенг тарқалган дашт бронза даври жамоалари маданияти билан боғлиқ ёдгорликларнинг кўшни икки тарихий маданий воҳа оралиғида жойлашган Уструшона ҳудудларида йўқлиги бу мавзу доирасида махсус тадқиқотлар олиб борилмаганлиги билан боғлиқ ҳисобланади.

Тадқиқот методологияси. Кейинги йилларда Уструшона тоғли тегралари хусусан, Моргузар тизмасида ландшафт-археологик изланишлар ва ГИС таҳлиллари ёрдамида қадимий кўчманчи чорвадорларнинг излари аниқланди. Тадқиқотчи Ф.А. Мақсудовнинг таъкидлашича, табиий шароитнинг қулайлиги натижасида бу ҳудудда бронза даври чорвадор жамоаларининг қўналғалари шаклланган. Булар денгиз сатҳидан 1100-1800 метр юксакликдаги Ғалчасой, Қоратош, Бешарчасой, Мойликўтон ва Ўйиктош водийлари ҳамда 2000-2500 метр баландликдаги Бедана даласи платосидан ўрин олган Тошбулоқ яйловлар бўлган [9. Б. 17]. Ўтказилган археология прогноз модели асосидаги тадқиқотларга кўра, Моргузар тизмасида қадимги давр кўчманчи чорвадорларнинг яшаши учун зарур бўлган талабларга жавоб берадиган экологик бурчаклар “нишалар” мавжуд бўлган. AMS/¹⁴C радиоуглерод даврлаштириш, бир қатор қўналғаларнинг ўрнашуви, стратиграфияси ва моддий маданиятига қараганда, кўчманчи чорвадорларнинг бу ерни ўзига хос ривожланган ўрнашув анъаналари негизида энг кечи билан эрадан олдинги II минг йилликдан бери сўнгги 4 минг йил давомида ўзлаштиргани аниқланган [9. Б. 17].

Ушбу фикрни мустаҳкамлаш учун яна қўшимча маълумотлар келтиришни маъқул топдик. 1956 йил кузги мавсумида ЎзР ФА тарих ва археология Институтининг Я.Ғ.Ғуломов бошлиқ Мохандарё экспедицияси Жиззах шаҳидан 30 км шимол томонда қадимда кўчманчилар дашти билан чегарада қурилган Қулписарота сағанаси ва ундан 100-120 м шарқда, Ўрта Осиё ҳудудида ягона бўлган (ўртаси ботик, ўлчами 180 см х 150 см ва баландлиги 120 см бўлган) тош дольменни ўрганган [10. Стр. 95]. Муаллиф фикрича, ушбу дольмен бронза даври қабр иншоатларига таълуқли ҳисобланиб, ундаги дафн удумлари ислом пайдо бўлишидан 2000 йил олдин мавжуд бўлган [10. Стр. 95].

2009 йил Ш. Рашидов туманининг Бахмалсой қишлоғи (биз ўрганаётган Желли ғулли қишлоғидан 5 км жануб)да бронза даврига оид, дафн буюмларига анча бой бўлган қабр ўрганилган. Муаллифнинг таъкидлашича қабр ва унда қайд қилинган материаллар (металл буюм- билгузуклар ва сопол идишлар бронза даврига оид бўлиб улар шу даврга оид Суғддаги Мўминобод мазоркўрғонлари билан деярли бир хил ўхшашликка эга [11. Б. 89-92]. Л.М. Сверчков томонидан Зомин тумани, Дуоба қишлоғидан Ўрикли дарёси бўйидан бронза даврига оид ёдгорликдан бронза чопқи-болта (тесла-кельта) ҳам бу фикрни мустаҳкамлашга хизмат қилади [12. Стр. 119].

Таҳлил ва натижалар. Энди ушбу маданиятларнинг шаклланиши масаласига тўхталсак. Собик иттифоқ даври археологик адабиётларида ўра кўринишдаги қабрлар “ямные культура” номини олган Афанасьев ва унинг сўнги босқичи ҳисобланган Окуневск маданиятлари таъсирида вужудга келганлиги таъкидланади. Бунда бронза даври Ордос қабилаларининг ўрни катта бўлган ва улар Хитойга яқин параллелда ривожланган [13. Стр. 137].

Ушбу маданиятларнинг давоми ҳисобланган Андронова маданиятининг Федоров ва Аликул босқичлари аниқланган. Уларга оид ўра қабрлар асосан, тош яшик, циста ва аралаш ҳолатда бўлган [14. Стр. 35]. Андронова маданияти Федоров босқичи Ўролнинг шарқи ва Тобол водийсида, Аликул (ғарбий Андронова – ёғочбанд маданияти) қатлами эса ғарбий Қозоқистон ва жанубий Урал бўйларида шаклланган.

Бу қабилалар ҳақида илк ёзма маълумотлар бронза ва суяк буюмларга туширилган иеорглифлар маълумот беради. Жанубий Сибир ва Монголия дашт ва чўлликларида Карасук ва Оленной камен маданиятлари аҳолисида кўчманчи чорвачилар ва суворийлар гуруҳлари шаклланади. Бунинг натижасида отда жанг олиб боришга қулай бўлган узун қилич ва қалқон кейинчалик, узоқ масофага отадиган камонларга эга эга отлиқ суворийлар (кавалерия) аскарлар пайдо бўлади. Бу эса жанг қуроллари соҳасида бошқа ҳудудлардаги қабилаларга нисбатан уларнинг устунлигини таъминлаган. Айни пайтда кўчманчи чорвачиликнинг экстенсив ривожланиши, дашт қабилаларида иқтисодиётнинг яхшиланиб, ижтимоий муносабатларни кучайишига сабаб бўлган.

Сунгги бронза даврида (м.вв. II-I мингйилликлар чегараси - м.авв. XIV- XIII асрларда) Евроосиё китъаси ҳудудида Атлантик босқичининг иқлим оптимум вақти тугагандан сўнг бошланган совуқлик Волга бўйлари ва Қозоғистон чўлларида иқлимнинг аридизациясига сабаб бўлган [15. Стр. 15-17]. Волгадан Иртишгача ёйилган чўл ҳудудларидаги совуқ қишлар чорвадорларни шу мавсумда жанубда - Ўрта Осиё тоғ олди воҳалари ва дарёлари бўйларида яйлов излашга мажбур этган. Бу эса Ўрта Осиё ҳудудига Андроново жамоаларининг чорвадор қабилалари фаол кириб келишига асосий сабаблардан бири бўлган. Уларнинг асосий қисмини бошқа қабилаларни ҳам ўзига бирлаштирган Монголия ва Жанубий Сибирнинг Карасук маданияти қабилалари ташкил этган. Бу маданият аҳолиси монголоид элементлари бўлган европа ирқига мансуб бўлган [13. Стр. 139].

Е.Е. Кузминанинг ёзишича, кўчманчиларнинг Евросиё даштларидан Ўрта Осиё ва жанубий минтақаларга миграцияси тахминан мил. авв. XVI асрдан босқичма –босқич амалга оширилган. Унинг бошланғич нуқталари Волгабўйи, Жанубий Урал, Қозоғистоннинг шимолий-ғарби ва Ғарбий Сибир даштларида жойлашган. Бу ерлардан чорвадор қабилалар Жанубий Оролбўйи, Шарқий Каспийбўйи, Туркменистоннинг жанубий-ғарби, қуйи Мурғоб, Зарафшон ва Тошкент воҳалари ҳамда Фарғона водийси ва Жанубий Тожикистон ҳудудларига келиб ўрнашган [16. Стр. 122-138].

Айни пайтда бу қабилаларнинг катта қисми ғарбий ва шарқий йўналишларда Қадимги Хитойдан, архаик Юнонистонгача бўлган ҳудудларни забт этишга киришади. Мил. авв. II-I минг йилликларда отлиқ қўшин билан яхши қуролланган Карасук маданияти Хитой ички ҳудудларига мил. авв. XII асрларда Енисей ҳавзалари, мил. авв. X асрларда Орол бўйларида пайдо бўлади. Бу жараён кейинчалик ҳам давом этиб, мил. авв. VII асрларда улар скиф қабилалари номи билан Дунайнинг жанубий ҳудудларини эгаллаган. [13. Стр. 140]. Бу қабилалар, нафақат, Евро Осиёнинг бепоён даштларида, балки, Ўрта Осиёнинг дашт ва саҳролари, тоғлик зоналарнинг дарё ҳавзалари ҳамда тоғ олди адирларда хўжалик юритганлар. Даштдан кириб келган аҳоли секин-аста ўтроқлашиб, маҳаллий аҳоли билан турли хилдаги маданий алоқалар натижасида яқинлашиб, қоришиб бориши минтақада ижтимоий сиёсий ва иқтисодий ҳаётнинг янада жонланишига сабаб бўлган [17. Стр. 96-99].

Хулоса ва таклифлар. Қадимги Уструшона сунгги бронза даври материалларига таяниб айтиш мумкинки, мил.ав. II - I минг йилликларнинг чегарасидан бошлаб ушбу ҳудуд қадимги ўтроқ деҳқончилик вилоятлари билан маданий алоқалар ўрнатган Андроново чорвадор қабилалари томонидан ўзлаштириб бошланган. Тоғ олди воҳалари ва дарёлари бўйларидаги

унумдор яйловлар чорвадор қабилаларнинг Уструшонага кириб келиши ва ўзлаштиришига асосий сабаблардан бири бўлган. Табiiй бойликлар – темир, олтин, кумуш, мис, феруза конлари ҳам Андроново қабилаларининг қизиқишига сабаб бўлган[8. Стр. 55]. Бу ҳолат бронза даври металллар хомашёси ва минерал тош конлари нафақат Қурама, Чотқол тоғлари, Зарафшон тизмиси, Нурота тоғлари ёки Қизилқумда, балки Моргузар тоғларида ҳам фаол ўзлаштирилганлигини кўрсатади. Уларга таяниб айтиш мумкинки, Уструшона худудининг металлга бой тоғ ва тоғ ёнбағирлари, тоғликлар орасидаги чорва йўллари кесишмалари ва дарё воҳаларидаги яйловлар бронза даврида фаол ўзлаштириб бошланган. Худудда ўрганилаётган материаллар минтақада хўжалик маданий типларининг шаклланиши ва кўчманчиларнинг бронза давридаги миграцияси билан боғлиқ саволларга ойдинлик киритади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кубарев В.Д. Памятники Каракольский культуры Алтая. Новосибирск, 2009.
2. Шишлов А.В., Федоренко Н.В. Погребальный обряд племен северо-западного побережья Кавказа в конце VII – V вв. до н.э. (по материалам Владимировского могильника). Аргонавт. Черноморский исторический журнал. 2006. №2.
3. Сулейманов Р.Х., Гордеева Е.А. К вопросу об особенностях культурогенеза и урбаногенеза юга Уструшаны // “Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт)” (Республика илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах, 2019.
4. Сағдуллаев А.С., Холматов Н.Ў., Абдуллаев Ў.И. ва бошқ... Марказий Осиёда тарихий маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. Тошкент, “Университет”, 2020.
5. Жўракулов М.Ж., Аванесова Н.А., Амиркулов Б.А. Зарафшон воҳасининг ибтидоий маданияти. – Самарқанд, 1994.
6. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, 2015.
7. Тереножкин А.И. Клад андроновских бронзовых предметов из с. Бричмулла близ Ташкента. 1/ СА. 1962. УЧ 3.
8. Аванесова Н.А. Культура пастушеских племен эпохи бронзы азиатской части СССР. (По металлическим изделиям). Ташкент, 1991.
9. Максудов Ф.А. Ўрта асрларда тоғли Уструшона кўчманчи маданияти. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2020.
10. Гулямов Я.Г. Кладбище Кулпи-Сар // ИМКУ, Вып.2. Т., 1961.
11. Хасанов М. Бахмалсойдан топи́лган бронза даври топи́лмалари. «Евроосиё халқлари маданий мероси: замонавий тадқиқотлар, муаммо ва ўрганиш усуллари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (1-қисм). Жиззах 2022.
12. Сверчков Л.М. История изучения древних выработок Узбекистана (краткий обзор) // ИМКУ. Вып. 35. Ташкент, 2006.
13. Сулейманов Р. Х. Вопросы культурогенеза и глоттогенеза Центральной Азии эпохи бронзы и раннего железного века\ Культура азиатской части Евразии в древности и средневекья. Самарқанд, 2021.
14. Максименков Г.А. Андроновская культура в Енисее. Ленинград, 1978.
15. Хотинский Н.А. Природные условия в неолитическую эпоху. Неолит Северной Евразии. 1/ М., 1996.
16. Кузмина Е.Е. О южных пределах распространения степных культур эпохи бронзы в Средней Азии // Памятники каменного и бронзового века Евразии. Москва, Наука, 1964.
17. Тошбоев Ф. Э. Взаимовлияние степной и оседлоземледельческой культур Уструшаны в эпоху античности и раннего средневековья. // ВЕСТНИК МИЦАИ. Вып. 23. Самарқанд, 2016.

УЎК 94(575.1)/61

БХСРДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

(Жанубий ҳудудлар мисолида)

М.Тўраева, доц., Қариши Давлат Университети, Қариши

Аннотация. Мазкур мақолада БХСРда Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида яшаган аҳолининг ижтимоий аҳволи, соғлиқни сақлаш соҳасини яхшилаш мақсадида амалга оширилган ишлари ёритиб берилди. Аҳоли ўртасида юқумли касалликларга қариши курашиши жараёнлари, ташиқил этилган тиббиёт муассалари фаолияти кўрсатиб берилди.

Калит сўзлар: БХСР, Қашқадарё, Сурхондарё вилояти, “Бухоро ахбори”, “Озод Бухоро”, халқ табобати, ваража касаллиги, лектом, санитар – таржимон.

Аннотация. В данной статье освещены социальное положение людей, проживающих в южных районах Узбекистана в БНСР, и проводимая работа по улучшению здравоохранения.

Демонстрировались процессы борьбы с инфекционными заболеваниями среди населения, деятельность созданных медицинских учреждений.

Ключевые слова: БХСР, Кашкадарья, Сурхандарьинская область, “Бухарские новости”, “Азод Бухара”, народная медицина, малярия, лекпом, санитарно-переводчик.

Abstract. This article highlights the social situation of people living in the southern regions of Uzbekistan in the BPSR, and ongoing work to improve healthcare. The processes of combating infectious diseases among the population, the activities of established medical institutions were demonstrated.

Key words: BPSR, Kashkadarya, Surkhandarya region, “Bukhara news”, “Azod Bukhara”, folk medicine, malaria, lekpom, sanitary translator.

Кашкадарё ва Сурхондарё воҳалари барча тарихий даврларда ўзига хос ўрин эгаллаб келган ҳудудлардан ҳисобланади. XX асрнинг бошларида мазкур ҳудудлар Бухоро амирлиги таркибида бўлиб, аҳоли саломатлигини сақлаш жараёнларида асосан халқ табobati хизматидан фойдаланиб келинган. Октябрь тўнтаришига қадар, Қарши шаҳрида битта хусусий шифохона мавжуд эди. Шифохонанинг 35 ўринли даволаш ўринларида асосан русларнинг ўзи, аҳёнда эса маҳаллий кишилар даволанган [1]. Даволаш хизмати жуда қиммат бўлиб, шаҳар ва атроф ҳудуддаги аҳолига пуллик хизмат кўрсатилган. Мазкур даврда Термиз чегара шаҳар бўлганлиги боис, Патта-Кесар қишлоғида ҳарбий қисм жойлаштирилган. Маҳаллий аҳоли асосан халқ табobati хизматидан, воҳанинг Россия империясида таркибида бўлган русийзабон кишилар истикомат қиладиган қисмидаги кишилар эса асосан ҳарбий шифокорлар хизматидан фойдаланишган. Ана шу ҳарбий қисм ихтиёрида кичкина касалхона бўлиб, битта ҳарбий врач фаолият олиб борган [2]. Ушбу касалхонада Термиз шаҳари ва унинг атрофидаги аҳолига пуллик хизмат кўрсатилган. Жумладан, қатнаб даволанаётган аҳолига 20 тийин, ётиб даволаниш учун бир ойда шаҳар аҳолисига 5 рубль (беш сўм), шаҳар атрофида яшовчи кишилар учун эса 8 рубль тўланиши белгилаб қўйилган. Ичимлик сувларининг сақланиш шароитлари ҳам яхши бўлмай, аҳоли очик ҳавзалардаги сувлардан истеъмол қилган. Мазкур ҳудудларда иқлимнинг ниҳоятда кескин континентал эканлиги, айниқса ёз ойларида турли юқумли касалликларнинг авж олиб кетишига сабаб бўларди. Бунинг оқибатида аҳоли ўртасида юқумли касалликлардан чин чечак, вабо, безгак, сил, ришта, ичбуруғ, тери-таносил касалликлари, болалар орасида қизамиқ, қизилча, бўғма, кўк йўтал каби хасталикларнинг кўплаб тарқалишига ва аҳоли ўртасида ўлим ҳолатларининг кўпайишига сабаб бўлди.

1920 йил 2 октябрда ҳокимият тепасига келган БХСР ўз фаолиятини жуда оғир шароитда, яъни сиёсий қарама-қаршилиқ кучайган, ижтимоий муаммолар ниҳоятда кескинлашган, ўлка турли эпидемиялар ўчоғига айланган бир шароитда бошлади. Аҳоли саломатлигини муҳофаза қилишга доир кескин муаммоларни ҳал этишда муайян қадамлар қўйилди. Амирлик давридан асорат сифатида сақланиб келинаётган ягона соғлиқни сақлаш тизимининг яратилмаганлиги туфайли БХСР ҳукумати бу соҳада махсус нозирлик ва бошқарув идоралари тузишга алоҳида эътибор қаратди. Дастлабки йилларда соғлиқни сақлаш соҳаси Маориф нозирлиги таркибида эди. Мазкур даврда ҳам республика аҳолиси ўртасидаги очарчилик, кашшоқлик, ичимлик суви муаммоси, кўпгина ҳудудларда курук, чанг-тўзонли, ўта иссиқ гармселли об-ҳаво, қиш фаслида иситиш шароитларининг яратилмаганлиги сабабли касалликлар ва юқумли эпидемияларнинг кўплаб турларининг тарқалишига сабаб бўлди. “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталарида ёзилишича, вабо, иситма, ришта (тери ости қуртлаши), безгак, чечак, бўғма, захм, тери-таносил, кўз оғриғи каби касалликлар мавжудлиги санаб ўтилади [3]. Жумладан, 1920 йилнинг октябрь ойида Бухорода аҳоли ўртасида чечак ва терлама касаллиги эпидемияси кенг тарқалди [4]. Ушбу эпидемия жанубий ҳудудлардаги аҳоли ўртасида ҳам юз берди. Аҳолининг катта қисми ушбу касалликлардан азият чекди. Мазкур ҳолат республикада соғлиқни сақлаш ҳолатини яхшилаш, қўшимча тиббий ёрдам кўрсатиш ишларини йўлга қўйиши лозимлигини талаб қилди. 1920 йилнинг 15 октябрида Бухорога Москвадан врач Ширикин раҳбарлигида 19 кишидан иборат эпидемия отряди юборилди [5]. Мазкур отряд аъзолари томонидан эпидемияга қарши курашиш чора-тадбирлари ишлаб чиқилди. Ушбу

ҳолат соғлиқни сақлаш борасида кескин чоралар кўришни тақоза этди. 1920 йил 1 ноябрида соғлиқни сақлаш халқ нозирлиги маориф нозирлиги таркибидан мустақил нозирлик сифатида ажралиб чиқди. Нозирлик зиммасига касаланганларни даволаш, санитария-гигиена шароитларини яхшилаш каби вазифалар юклатилди [6]. 1920 йилнинг 14 ноябрида соғлиқни сақлаш нозирлиги томонидан тайёрланган махсус маърузада мазкур нозирликнинг ташкил топиши, унинг бўлим ва шўъбалари фаолияти кўрсатиб ўтилган. Жумладан, нозирликда даволаш, санитария-эпидемия, фармацевтика, санитария маорифи, ветренария, она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш каби бўлимлар фаолият олиб борди.

1921 йил октябр ойида Қарши шаҳрида амбулатория пункти очилди [7]. Мазкур даволаш муассасасида асосан европалик тиббиёт ходимлари фаолият кўрсатди. Масалан, жарроҳ Кудинова, терапевт Ф.З.Константинова, гинеколог Лебедева, окулист Н.В.Пугонина, венеролог Антонова, тиш шифокори К.А.Львовалар шулар жумласидандир [8]. Мазкур даврда нафакат чечак ва ваража касалликлари, балки вабо, бўғма, захм, терлама каби касалликлардан ҳам одамлар қийналарди. Меҳнатга қобилиятли аҳолининг асосий қисми касалланганлиги туфайли баъзи вилоятларда дала ишлари айни мавсум пайтида қолиб кетган. Жумладан, 1922 йилда «Бу йил Қарши вилоятида экин авж даражада бўлсада халқнинг ҳаммаси иситма билан касал бўлмоғи сабабли экин саҳрода қуриб бормоқдадур. Йиғнарға саломат одам йўқ» -деб ёзади, «Бухоро ахбори» газетасида. Бу ҳолатдан шундай хулоса қилиш мумкинки, аҳоли ўртасида турли хил касалликлар кенг тарқалган бўлиб, соғлиқни сақлаш тармоғи ходимлари уларнинг олдини олишга ожиз эди.

1922 йил 22 декабрда Советларнинг Умум Бухоро сессияси йиғилишида «Соғлиқни сақлаш ишини келгусида яхшилашнинг чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори қабул қилинди [9]. Сессияда безгак касаллигининг тарқалишининг олдини олиш бўйича фикр мулоҳазалар баён қилинади. «Бухоро ахбори» газетасида безгак касаллигининг бошланиши оқибатида хориждан 40.000 сўм (олтин оқча ҳисоби билан)дан ошиқроқ маблағга дори-дармон олиб келинганлиги алоҳида қайд қилинади [10]. «Озод Бухоро» газетаси саҳифаларида қайд қилинишича, «Халқ саломатлигини сақлаш марказий идораси» тўғрисида махсус низомнома имзоланиб, унда республика ҳудудида юқумли касалликларга қарши кураш марказларини очиш, хориждан дори-дармонлар келтириш, дорихоналар қуриш ва фаолиятини йўлга қўйиш, болалар ва ҳарбийлар саломатлиги марказларини очиш, хориждан тиббий мутахассисларни жалб қилиш каби масалалар муҳофаза қилинган. Мазкур ҳужжат ижроси асосида 1922-1923 йилларда Германиядан БХСРга катта миқдорда дори-дармонлар, тиббий асбоб-ускуналар келтирилди [11]. 1922-1923 йилларда БХСР ҳукумати безгак касаллигининг тарқалишига қарши дори-дармонлар харид қилиш, касалхона ва профилактика муассасалари қурилиши учун 1 млн. олтин сўмдан ортиқ маблағ сарфлади [12]. Мазкур касаллик жанубий ҳудудлар аҳолиси ўртасида ҳам кенг миқёсда тарқалади. Аҳоли ўртасида безгак касаллиги унинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида тушунтириш ишлари олиб борилади. Ҳатто 1923 йилда Термиз шаҳрида безгак касаллигига қарши курашувчи станция ташкил этилди. Унинг таркибида 2 нафар врач, 1 нафар врач ёрдамчиси, 3 нафар безгак касаллигини ўрганувчи ва 1 нафар санитар ходимлар фаолият олиб борди. Уларнинг асосий вазифаси ҳудуддаги ботқоқлик жойларни аниқлаш, уларни дориланб йўқ қилиш ишларини амалга оширишдан иборат қилиб белгиланди. Шу йили аҳоли ўртасида чечак касаллиги тарқалганлиги ҳақида матбуот саҳифаларида мақолалар чоп этилди. Жумладан, 1923 йилда «Озод Бухоро» газетаси саҳифаларида «Термиз шаҳрида чечак оғриғи пайдо бўлди. Чечак оғриғи кичкина болалар ўртасидагина эмас, катталар ўртасида ҳам кучли тарқалмоқдадур. Ҳозиргача чечак билан касал бўлгон 200 киши қайд қилинди, ўлганларнинг сони 30 га етадур... Термиз вилоятининг Қўбодиён районида чечак касали кучли равишда ҳукм сурадур... бу касал билан 1114 киши оғриб, 50 фойздан ортиги ўлғондур [13]. Касалларни даволаш учун дори-дармон етишмайдур. Касалхоналар мавжуд эмасдур» деб ёзилади. Халқ нозирлар кенгаши раисининг бўйруғи билан безгакни даволаш учун қишлоқларга дори-дармонлар текин тарқатилди. «Халқ саломатлигини сақлаш марказий идораси» тўғрисида махсус низомнома тузилиб, уни Ф. Хўжаевнинг шахсан ўзи имзолаган эди. Низомнома дори-дармонлар келтириш, юқумли

касаликларга қарши кураш марказларини очиш, аскарлар саломатлиги пунктларини ташкил этиш, дорихоналар куриш, болалар саломатлиги марказлари ишини йўлга қўйиш каби масалалар қайд қилинган эди. Хорижга чиқарилган пахта, жун, қорақўл тери, ширинмия. ичак-човоқ ҳисобига дори-дармонлар сотиб олинди.

1923 йилдан бошлаб республика ҳудудида тиббиёт муассасалари тармоғи кенгайиб борди. Республика ҳудудида 240 ўринга эга бўлган 5 та касалхона фаолият юритди. Жумладан, жанубий ҳудудларнинг Шеробод, Дарбанд, Шаҳрисабз, Қарши каби шаҳар ва вилоятларда касалхоналар очилди.

1924 йил 8 мартда БХСР Халқ Нозирлари Кенгашининг йиғилишида “Соғлиқни сақлаш марказий бошқармаси фаолияти тўғрисида”ги масала муҳокама этилиб, йиғилишда ушбу масала юзасидан қабул қилинган қарорда қуйидагилар белгилаб берилган: маҳаллий аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш ишини кенгайтириш, соғлиқни сақлаш бошқармасининг асосий эътиборини безгак касаллигига қарши курашга қаратиш ва жорий йилда бу масала бўйича режа ишлаб чиқиш, бошқарманинг филиалларини вилоятларда ташкил этиш ва ҳар бир вилоятда биттадан дорихона ва врач бўлинмасини таъминлаш, тиббиёт ходимлари, албатта маҳаллий тилларни билиши шартлиги, бошқарма қошида тиббий курслар ташкил этиш кабилар шулар жумласидандир [14].

1924 йилга келиб, Қашқадарё ижроия комитети қошида соғлиқни сақлаш бўлими ташкил этилди. Қашқадарё вилояти соғлиқни сақлаш бўлими бошлиғининг мазкур йилнинг 3 ноябрида ёзган ҳисобат маърузасида айтилишича, шу вақтга қадар бу ҳудудда 2 врач, 5 дорихона, 1 акушер фаолият кўрсатиб турган. Маълум бўлишича вилоятнинг бутун қишлоқлари бўйича битта дорихона (лекпом-дори дармон ёрдами) мавжуд бўлган. Ўша йилларда бир шифохонага 270517 одам тўғри келган, бир бемор ўрнига 27051 киши тўғри келган. Вилоятда аҳоли сони 209 мингдан кўпроқ бўлиб, фақат Беҳбудий ва Шаҳрисабз шаҳарларидагина даволаш муассасалари мавжуд эди. Шу тариқа ҳар юз минг кишига бита шифокор, ҳар қирқ минг аҳолига битта дорихона тўғри келган. 5 нафар санитар – таржимон фаолият юритган. Бу даврда аҳоли орасида турли юқумли касалликлар кенг тарқалиб, областда тиббий назоратдан ўтказилган аҳолининг 40 фоизида захм, 35 фоизида шилпик, 25 фоизида сил касаллиги аниқланган.

1924 йилда Термизда маҳаллий аҳолига хизмат қилувчи 25 ўринга мўлжалланган шифохона ва амбулатория фаолияти йўлга қўйилди. Бу муассасаларда ҳарбий горнизоннинг тиббиёт ходимлари ўриндошлик асосида даволаш ишларини олиб боришди [15]. Сурхондарё ҳудудида соғлиқни сақлаш ишини йўлга қўйишда, эпидемияларга қарши курашишда врачлардан А.С.Миушкин, эр-хотин Тюменевлар, С.М.Салмин, П.Ф.Забродина, А.Г.Нижегородова, ўрта маълумотли тиббиёт ходимларидан Т.Е.Арская, Д.С.Сергев, А.П.Волкова, А.М.Ряхина, П.С.Парева, Д.Т.Гордеваларнинг хизматлари катта бўлди [15].

Хуллас, Бухоро Халқ Совет республикаси йилларида Ўзбекистон жанубий ҳудудлари соғлиқни сақлаш соҳасида маълум ўзгаришлар қилинди. Аҳоли ўртасида мавжуд бўлган юқумли касалликларнинг олдини олиш мақсадида аҳоли ўртасида кенг қўламдаги тарғибот-ташвиқот ишлари амалга оширилди. Жанубий ҳудудларнинг марказий шаҳарларида даволаш муассасалари фаолияти йўлга қўйилди. Соғлиқни сақлаш муассасалари тармоқлари кенгайтирилди. Аммо тиббиёт муассасаларини кадрлар билан таъминлаш борасидаги муаммолар сақланиб қолинди.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Рустамов П.Н. Нурли маскан. Қарши, Насаф. 1996. Б.3.
2. Парфенов Т.В. Охрана народного здоровья хранения Сурхандарьинской области. Сурхондарё вилоят ўлкашунослик музейи. № 242. Б 16.
3. Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи-матбуот саҳифаларида. (1920-1924 йиллар) .- Т.:2012. Б 77.
4. Истории Бухарской Народной Советской Республики. Сборник документов. (1920-1924 гг) –Т.:1976. С 420.
5. Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи. (1917-1991 йиллар). –Т.: Янги нашр. 2015. Б 71.
6. Ўз МА. 61-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 108-109 варақлар.

7. История Бухарской Народной Советской Республики // Сб. документов. –Т.: Фан, 1976. –С. 356.
8. Чариев А., Ачилов М. Кашкадарьинская область. –Т.: Узбекистан, 1974. – Б. 71-72.
9. Термизда чечак касали //Озод Бухоро, 8-сон,1923 йил 6 ноябрь, 1923 йил 6 декабрь.
10. Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи-матбуот саҳифаларида. (1920-1924 йиллар) .-Т., 2012. Б 78.
11. Ҳайитов Ш. ва б. Бухоро Халқ Респуликаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). -Т.: Фан, 2004.-Б. 64.
12. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. К 2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.-Т.:Шарқ, 2000. Б 248.
13. Озод Бухоро. 8-сон. 1923 йил 6 ноябр; 20-сон. 1923 йил 6 декабр.
14. Мўминова Г.Э.Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш иши тарихи (1917-1991 йиллар)–Тошкент, “Янги нашр” 2015.– Б.77-78. (336)
15. Бичков Д., Блинные А. Сурхондарё области. –т.: Ўзбекистон, 1970. Б 24.

УЎК 93/94

**ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ – ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ
ҚЎМИТАСИ РАИСИ ЛАВОЗИМИДАГИ ФАОЛИЯТИ
У.Я.Ҳайитов, PhD, Навоий давлат педагогика институти, Навоий**

Аннотация. Ушбу мақолада 1924-1925 йилларда Ўрта Осиёда амалга оширилган миллий-ҳудудий чегараланиш сиёсати ва Ўзбекистон ССРнинг ташкил топиш жараёнида Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Комитети Раиси лавозимида фаолият юритган Файзулла Хўжаевнинг фаолияти ёритилган.

Калит сўзлар: Бухоро Халқ Совет Республикаси, Ўзбекистон Совет Социалистик Республикаси, Хоразм Халқ Совет Республикаси, Туркистон Автоном Совет Социалистик Республикаси, РКП(б) МК Ўрта Осиё бюроси, Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Комитети, миллий-ҳудудий чегараланиш сиёсати.

Аннотация. В статье освещена политика национально-территориального размежевания в Средней Азии в 1924-1925 годах и роль председателя Революционного Комитета Узбекской ССР Файзуллы Ходжаева в образовании Узбекской ССР.

Ключевые слова: Бухарская Народная Советская Республика, Узбекская Советская Социалистическая Республика, Хорезмская Народная Советская Республика, Туркестанская Автономная Советская Социалистическая Республика, Среднеазиатское бюро РКП(б), Революционный Комитет Узбекской ССР, политика национально-территориального размежевания.

Abstract. The article highlights the policy of national-territorial delimitation in Central Asia in 1924-1925 and the role of the chairman of the Revolutionary Committee of the Uzbek SSR Fayzulla Khodjaev in the formation of the Uzbek SSR.

Key words: Bukhara People's Soviet Republic, Uzbek Soviet Socialist Republic, Khorezm People's Soviet Republic, Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic, Central Asian Bureau of the RCP(b), Revolutionary Committee of the Uzbek SSR, policy of national-territorial demarcation.

Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш арафасида минтақада Туркистон АССР, ХХСР ва БХСР каби давлатлар мавжуд эди. Ўрта Осиёда миллий-ҳудудий чегараланиш ўтказиш сиёсати 1922 йил 30 декабрда СССР ташкил топгандан сўнг янги босқичга кирди. Большевикларнинг мақсадларидан бири Ўрта Осиёни миллий бирликлар асосида парчалаб, унинг ўрнида ташкил этилган миллий республика ва вилоятларни СССР таркибига киритиш эди[1].

1924 йил 17 ноябрда Бухоро Совет Социалистик Республикаси (БССР) Халқ Нозирлар Шўросининг охириги йиғилиши бўлиб ўтди. Унда БССРни тугатиш бўйича А.Мухитдинов бошчилигида 11 кишидан иборат ҳукумат комиссияси тузилди [2]. Мазкур комиссия 1924 йил 18 ноябрда БССР ҳокимият органларини тугатишга киришди[3]. Бундай тадбирлар Туркистон АССР ва ХСРда ҳам амалга оширилди. 1924 йил 18 ноябрда Туркистон АССР, БССР, ХСР Марказий Ижроия Қўмиталари қўшма қарор қабул қилдилар. Унда Порсо Хўжаев (пойтахтни

кўчириш бўйича Марказий комиссия раиси), Рустам Исломов (Ўзбекистоннинг мухтор вакили), Абдулла Раҳимбоев, Давлат Ризаев (Маориф халқ комиссарининг биринчи ўринбосари), Султон Қори (Хоразм вакили), Гольдбер (раис ўринбосари), Владимир Иванов (Тошкент Янги шаҳар ижроия комитетидан), Иномжон Хидиралиев (Ер ишлари халқ комиссари), Мухторжон Саиджонов (Ички ишлар халқ комиссари), Манжара, Қори Йўлдош Пўлатов (Молия халқ комиссари), Лукьянов, Исҳоқ Газиёв (Адлия халқ комиссари), Чинор Имомов (Тожикистон ревкоми вакили) ва бошқалардан иборат 15 кишилик таркибдаги Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитаси тузилди [4]. 1924 йил 5 ноябрда РКП(б) Марказий Комитетининг қарори [5] ва 1924 йил 18 ноябрда Туркистон АССР, БССР, ХХСР Марказий Ижроия Қўмиталари қўшма қарорлари ва Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитасининг 1924 йил 18 ноябрдаги 1-сонли буйруғи [6] асосида Файзулла Хўжаев Ўзбекистон Ревкомининг раиси этиб тасдиқланди. Мазкур қўшма қарорга кўра уч республиканинг Марказий Ижроия Қўмиталари ўз ваколатларини Файзулла Хўжаев раислигида ташкил этилган Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Комитетига топширдилар. Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Комитетининг асосий вазифаси Ўзбекистон ССРни ташкил этишни бошқариш ва назорат қилишдан иборат эди.

1924 йил 21 ноябрда Файзулла Хўжаев Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Комитетига раҳбарлик қилиш учун Тошкент шаҳрига етиб келди ва шу ерда мазкур комитет раиси сифатида фаолият олиб борди. 1924 йил 24 декабрда Файзулла Хўжаев Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Комитет раислигидан ташқари СССР Революцион Ҳарбий Совети томонидан Туркфронт Ҳарбий совети аъзоси ва СССР Ҳарбий-денгиз ишлари халқ комиссарлигининг Ўзбекистон бўйича вакили этиб тасдиқланди [7].

Файзулла Хўжаев Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Комитети раиси лавозимига келган кунларданок Ўзбекистон ССРни ташкил этиш борасида кўплаб ишларни амалга оширишга киришди. Масалан, унинг 1924 йил 27 ноябрдаги 1296-рақамли алоқа хатида Зарафшон вилоят ижроия қўмитаси раиси Субҳонқули Муродовга ёзган хати айниқса диққатга сазовордир. Хатда қозоқ, қирғиз, найман халқлари учун алоҳида район усулида вилоят ташкил қилиниши ва бу вилоят тўғридан тўғри Ўзбекистон Марказий ҳукуматига қарашини таъкидлади [8]. Кейинчалик Ўзбекистон ССРда Конимех ва Томди қозоқ маъмурий тузилмалари (махсус автоном районлар) ташкил этилди. [9] Файзулла Хўжаев Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Комитети раиси лавозимида ишлаган даврда унинг бевосита йиғилишларига раислик қилди. Бу йиғилишларда Ўзбекистон ССР ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий ҳаётига доир кўплаб масалалар кўриб чиқилди.

Масалан, 1924 йил 24 декабрда “Правда Востока” газетасида Файзулла Хўжаевнинг “Қуйи совет аппаратини жонлантириш ва мустаҳкамлаш” номли маърузаси эълон қилинди. Маърузада муаллиф Туркистон АССРнинг Самарқанд ва Фарғона вилоятларида, Бухоронинг бир қадар ҳудудларида совет ҳокимияти деярли мавжуд эмаслигини, Туркистонда инқилобий ҳаракат асосан европалик аҳоли орасида кенг ёйилганлигини, маҳаллий аҳоли эса бу ҳаракатларга фаол бўлмагани ҳақида очиқ айтиб ўтди [10].

1924 йил 5 декабрда Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Комитети Ўзбекистон ССР тузилганлигини тантанали равишда эълон қилди [11]. Худди шу куни “Правда Востока” газетасида Файзулла Хўжаевнинг “Совет қурилишининг навбатдаги вазифаларига доир” [12] номли мақоласи эълон қилинди. Мақолада муаллиф кенг деҳқонлар оммасини манфаатларини рўёбга чиқаришга хизмат қила оладиган фаол соф виждонли кишиларни топиб, уларни уезд ва волость органларига тортиш, яқин келгусида иш юритишни ҳар бир райондаги аҳоли кўпчилигининг тилида олиб боришни жорий қилиш йўли билан аппаратни аҳолига яқинлаштирадиган қилиб қайта ташкил этиш, яқин келгусида уезд ва волость ташкилотларида бутун иш юритишни ўзбек тилида олиб бориш, аҳолининг кўпчилиги ўзбек тилида гапирмайдиган район ёки шаҳарларда эса иш юритиш баб-баравар икки тилда – ўзбек тилида ва кўпчилик аҳоли тилида жорий қилиш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш лозимлигини таъкидлади. Шунингдек, у иш юритишни ҳозирча рус тилида олиб бораётган марказий органлар махсус ўзбек ячейкасини тузишини ва бу ячейканинг вазифаси иш

юритишни аста-секин ўзбек тилига ўтказишдан иборат иборат бўлишлигини уқтириб ўтади[13].

1925 йил 20 январь куни Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитасининг совет аппаратини жонлантиришга бағишланган йиғилиши бўлиб ўтди. Уни Ўзбекистон ССР Муваққат Инқилобий Қўмитасининг раиси Файзулла Хўжаев олиб борди ва нутқ сўзлади. У ўз нутқида Октябрь воқеалари ва унинг ғоялари минтақага европалик ишчилар томонидан олиб кирилганлигини, аҳолининг бир қисмигина бу воқеаларда иштирок этганлигини ва аҳолининг катта қисми бу воқеаларга бевосита қатнашмаганлигини яна бир бор таъкидлади [14]. Тугатилган Туркистон АССРда совет ҳокимияти қишлоқда ҳақиқатдан мавжуд эмаслигини, Ўзбекистон ССРда қишлоқ ва уездларда яшовчи аҳоли совет ҳокимияти ҳақида ҳеч нима билмаслигини ва бу ҳокимият олдида қандай вазифа турганлигидан беҳабарлигини алоҳида баён қилиб ўтди [15]. У уезд, ҳатто областлардаги совет аппарати моддий жиҳатдан таъминланмаганлиги ачинарли ҳол эканлигини ўз маърузасида алоҳида таъкидлади [16].

Файзулла Хўжаев Ўзбекистон ССР ХКС раиси лавозимида фаолият кўрсатган ўн икки йил мобайнида Ўрта Осиёда амалга оширилган миллий-ҳудудий чегараланиш сиёсати тўғрисида кўплаб маърузалар қилди. У ўз маърузаларида Ўрта Осиёдаги миллий-ҳудудий чегараланиш сиёсати ва Ўзбекистон ССРнинг ташкил топиш жараёнини ҳукмрон расмий мафкура доирасида ёритишга мажбур бўлди.

Бунга мисол тариқасида унинг 1925 йил 5 декабрда Ўзбекистон КП(б) Марказий Комитети, Ўзбекистон ССР Марказий Ижроия Комитети ва Халқ Комиссарлари Совети билан Ўзбекистон Коммунистик партияси Самарқанд область ва шаҳар комитетларининг ҳамда ишчи, деҳқон ва қизил аскар депутатлари Советлари Ижроия Комитетларининг тантанали мажлисида “Ўзбекистон ССР ташкил этилганлигининг бир йиллиги тўғрисида” [17], 1926 йил 5 январда Москвадаги Шарқ меҳнаткашлари Коммунистик университети тингловчилари йиғилишидаги “Миллий давлат чегараланиши ва республика ташкил этилгандан бери ўтган бир йил ичида Ўзбекистоннинг муваффақиятлари” [18], 1932 йил нашр этилган “Бухородаги революция ва Ўрта Осиёнинг миллий чегараланиши тарихига доир” асари [19], 1934 йил 4 сентябрда ВКП(б) Марказий Комитети Ўрта Осиё бюроси пленумида “Ўрта Осиё республикаларини миллий чегаралашининг ўн йиллиги тўғрисида” [20], “Огонёк” журналининг махсус сониди “Десять лет советского Узбекистана” [21], 1935 йил нашр этилган “10 лет побед” [22] номли брошюраси ва бошқа маъруза ҳамда нутқларини киритиш мумкин. Гарчи юқорида тилга олинган асар, маъруза ва нутқларда Ўрта Осиёда амалга оширилган миллий-ҳудудий чегараланиш ва Ўзбекистон ССРнинг ташкил топиш жараёни совет миллий сиёсатининг ютуғи сифатида талқин қилинса-да, аммо ушбу асарлар Ўрта Осиёда амалга оширилган миллий-ҳудудий чегараланиш сиёсати тарихини ўрганишда муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Файзулла Хўжаев раҳбарлик қилган Ўзбекистон ССР Марказий Инқилобий Қўмитаси ўзининг уч ойлик фаолияти давомида янги ташкил қилинаётган Ўзбекистон ССРни ташкилий жиҳатдан тузиш ва шакллантириш учун салмоқ ишларни амалга оширди. Ревком фаолиятида таниқли давлат арбоби Файзулла Хўжаев муҳим роль ўйнади.

Фойдаланилган адабиёт рўйхати:

1. Ражабов Қ. Ўрта Осиёда ўтказилган миллий-ҳудудий чегараланиш сиёсати: мақсад, режа ва амалиёт // Турон тарихи (Тошкент). 2015. № 2-4. – Б. 26-27.
2. Ўзбекистон миллий архиви, 17-фонд, 1-Рўйхат, 1226- йиғма жилд, 80-варақ.
3. Правда Востока (Ташкент). № 1 (540). 25 ноябрь 1924 г.
4. Ўзбекистон миллий архиви, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 1545-иш, 340-варақ.
5. Нуриллин Р., Ҳасанов К., Шек Л. Файзулла Хўжаев. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. – Б. 35.
6. Ўзбекистон миллий архиви, Р-87-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 1-варақ.
7. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 529.
8. Бақоев М. Файзулла Хўжаев журналист ва публицист. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 41.
9. Қаранг: Норматов О. Ўрта Осиёда 1926 йили ўтказилган районлаштириш сиёсатининг Ўзбекистон ижтимоий ва иқтисодий ҳаётига таъсири. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – Б. 18.
10. Ходжаев Ф. Оживление и укрепление низового советского аппарата // Правда Востока. №26 (565). 24 декабря 1924 г.

- 11.Правда Востока. №10 (549). 5 декабря 1924 г.
- 12.Ходжаев Ф. К очередным задачам советского строительства // Правда Востока. №10 (549). 5 декабря 1924 г.
- 13.Правда Востока. №10 (549). 5 декабря 1924 г.
- 14.Ўзбекистон миллий архиви, 837-фонд, 15- Рўйхат, 3- йиғма жилд, 2- варақ.
- 15.Ўзбекистон миллий архиви, 837-фонд, 15- Рўйхат, 3- йиғма жилд 3- варақ.
- 16.Ўзбекистон миллий архиви, 837-фонд, 15- Рўйхат, 3- йиғма жилд 6- варақ.
- 17.Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 2- жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 657.
- 18.Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 2- жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 453-479.
- 19.Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 1- жилд. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 208-343.
- 20.Ходжаев Ф. О национальном размежевании Средней Азии. Доклады на пленуме Средазбюро ЦК ВКП(б) 5 сентября 1934 г. – Москва-Тошкент: Объединение государственных издательств Среднеазиатское отделение, 1934. – С.1-16.
- 21.Ходжаев Ф. Десять Советского Узбекистана // Огонёк. Специальный номер. – Москва: Журнально-газетное объединение, 1934. – С.18-20.
- 22.Ходжаев Ф. 10 лет побед. – Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1935.

УЎК:930.25(584.4)

ЎЗБЕКИСТОНДА БИР МАРТАЛИК СОЛИҚ ЙИГИМЛАРИ ТАРИХИГА ОИД АРХИВ ҲУЖЖАТЛАР ТАҲЛИЛИ (1924-1941 ЙИЛЛАР)

Ш.Ш.Чориев, доц., Ўзбекистон Миллий университети, Тошкент

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон Миллий архивида сақланган архив ҳужжатлари асосида Ўзбекистонда 1924-1941 йилларда олинадиган бир марталик солиқ йиғимлари ҳақида маълумотлар берилган. Шунингдек, тадқиқотда Ўзбекистон ССР Молия комиссарлиги архив фондида сақланган бир қатор тарихий ҳужжатлар илмий истеъмолга киритилган.

Калим сўзлар: Ўзбекистон ССР, Молия комиссарлиги, солиқ, Ўзбекистон Миллий архиви, патент, герб йиғими, бозорлар, колохозлар.

Аннотация. В статье анализируются сведения о разовых налоговых сборах, собиравшихся в Узбекистане в 1924-1941 гг. на основе архивных документов, хранящихся в Национальном архиве Узбекистана. Также в исследование был включен ряд исторических документов, хранящихся в архивном фонде Наркомата финансов Узбекской ССР.

Ключевые слова: Узбекская ССР, Наркомфин, налог, Национальный архив Узбекистана, патент, гербовой сбор, базар, рынки, колхозы.

Abstract. The article analyzes information about a one-off fee in Uzbekistan in 1924-1941. based on archival documents stored in the National Archives of Uzbekistan. The study also research a number of historical documents stored in the archival fund of the People's Commissariat of Finance of the Uzbek SSR.

Key words: Uzbek SSR, Narkomfin, tax, National Archives of Uzbekistan, patent, stamp duty, bazaars, kolkhozes.

Кириш. XX асрнинг биринчи ярмида совет ҳокимиятининг миллий-худудий чегараланиш сиёсатидан сўнг Ўзбекистон ССР ташкил этилди. Ўзбекистон ССР дастлаб ташкил этилгач, республикада совет ҳокимиятини мустаҳкамлаш ва уни мустамлака сиёсатининг янгича кўринишини олиб боришда янги давлат органларини ташкил этиш дастлабки масалалардан бири эди. Шу қаторда, мамлакатнинг бюджет маблағларини шакллантириш ишлари ҳам энг муҳим масалалардан бири эди. Нафақат Ўзбекистонда балки, СССР миқёсида бошқа республикаларда ҳам кишлоқ хўжалиги давлат бюджетининг асосий даромад манбаи ҳисобланар эди. Аммо совет ҳокимияти ўрнатилгач, республикада бир қанча солиқ турларини жорий этди. Республиканинг асосий солиқ сиёсатини амалга оширувчи орган бу Ўзбекистон ССР Молия комиссарлиги бўлиб, унинг архив ҳужжатлари бугунги кунда Ўзбекистон Миллий архивида сақланиб келмоқда. Айнан ушбу ташкилот ҳужжатларининг

бугунги кунгача манбавий аҳамиятини очиб беришга бағишланган тадқиқотлар амалга оширилмаган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Мавзунинг ўрганилиши билан боғлиқ масалага эътибор қаратиладиган бўлса, мавзу доирасида адабиётларни совет, мустақиллик даври ва хорижда ёзилган илмий тадқиқотларга бўлиш мумкин.

Совет даврида Г. Марьяхин [1], мустақиллик йилларида эса Ш.Жўраев, С.Бобоев [2], Н.Обломуродов, Ф.Толипов [3], Р.Дусчанов [4] совет даври солиқлар тарихи масалалари бўйича муҳим маълумотлар ёритилган. хорижий тадқиқотларга Буюк Британия [5] ва Канада давлатларида [6] нашр этилган китобларни киритиш мумкин. шунинг ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, бугунги кунгача совет даврида олинган бир марталик йиғимлар масаласи алоҳида тадқиқот сифатида ўрганилмаган. Ушбу мақола натижасида олинган маълумотлар кейинги тадқиқотларга тўлдирувчи маълумот сифатида хизмат қилади.

Олинган натижалар таҳлили. Ўзбекистон ССР иқтисодий сиёсатини олиб боришда муҳим орган бўлган Молия комиссарлиги ҳужжатлари (Р-93) 20 та рўйхатда жамланган бўлиб, уларда 17839 та й/ж бор. 15-рўйхат ҳужжатлари 1937-1991 йилгача бўлган даврни қамраб олади.

Бугунги кунда Ўзбекистон Миллий архивида Ўзбекистонда солиқ масалаларига оид тарихий маълумотлар асосан Ўзбекистон МИҚ, ХКС, Молия комиссарлиги архив фондлари ҳамда вилоятлар давлат архивларида сақланиб келмоқда. Архивларда соҳага оид маълумотлар конъюнктур ҳисобот, жадвал, статистик, ҳисобот, маъруза, тезис кўринишларида сақланган.

Солиқнинг яна бир тури бу бир марталик йиғимлар бўлиб, улар маҳаллий бюджетнинг асосий даромад манбаларидан бири бўлиб ҳисобланган. Республикада 1924-1941 йилларда дарё тарнпортида юк олиб ўтиш учун йиғим, патент, герб ва бир марталик йиғимлар олинган.

Патент йиғими савдо, саноат, ишлаб чиқариш ёки бошқа мақсадларда ундирилган. Масалан, 1925/26 йилларда савдо патентидан 50.106, саноат патентидан -3.047, шахсий ишлаб чиқарувчилар патентидан -25.655 рубл солиқ олинган. Олинган патентларнинг ишлаб чиқарувчиларидан ҳисобот йилида 1871.573 товар рубли, 1925/26 йилда 1.287.100 товар рубли миқдорида даромад олинган [7].

Герб йиғимлари бу - ҳужжатларни расмийлаштириш, яъни нотариус, савдо операцияларини амалга оширишга ҳужжатларни расмийлаштириш учун пул кўринишида олинадиган солиқ солиқ тури ҳисобланади. Герб йиғимлари тўғрисида СССРда 1924 1927, 1930 йилларда қарор ва кўрсатмалар қабул қилнган. Герб йиғими қиймати агар йиғимга маълум миқдорда турлов нархи белгиланган бўлса, тўлов шунга қараб тўланган, агар тўлов миқдори белгиланмаган бўлса ҳужжатни расмийлаштириш жараёнида келишилган ва уни пул ёки натура шаклида ҳам тулаш мумкин бўлган [8].

Герб йиғимининг оддий кўриниши ҳам бўлиб, бу турдаги йиғим республикада фуқароларнинг мурожаатлари учун олинган. Архив ҳужжатларида бу ҳақида ҳам бир қатор маълумотлар учрайди. Фуқаролар мурожаат қилганда марка учун ва ариза топширгани учун давлат божи тўланган тўланган. Шикоят аризалари тўлов тўланмагунча кўриб чиқилмаган. Тўлов қобилятига эга бўлмаганлар бу ҳақида асосланган маълумотнома тақдим этиши лозим бўлган. Кассация билан боғлиқ ишлар оининг охирида кўриб чиқилган.

Йиғимларнинг яна бир тури Маҳаллий бозорлардан тушадиган бир марталик йиғим ҳисобланиб, улар айниқса маҳаллий бюджетга катта даромад келтирган.

Молия комиссарлигининг фондида СССР Молия комиссари Г.Гринко ва Ички савдо комиссари И.Я.Вейцер томонидан имзолаган қарорининг ЎзССР молия комиссарлиги котиби томонидан тасдиқланган ҳужжатида кўра, Маҳаллий бозорлардан тушадиган бир марталик йиғим, хизмат кўрсатиш тўлови, ижара ҳақи ва бошқалар маҳаллий бюджетларга тушиши белгиланган [9].

Бир марталик йиғимларнинг асосий қисми бозорларда йиғилган бўлиб, бозорлар фаолияти ўша пайтда ички савдо комиссарлиги тасарруфида бўлган. Р-93-фонд таркибида ЎзССР Ички савдо комиссарлигининг 1935 йил 11 августдаги бозорларда тарози йиғими учун тарифлар кўрсатмаси сақланган ва ушбу ҳужжат барча туман ички савдо бўлимларига

жўнатилганлиги ҳужжатда кўрсатиб ўтилган. Кўрсатмага кўра, бозорларда тарозидан бир марта фойдаланишнинг тариф нархлари қуйидагича бўлган:

Бозорларда тарозидан бир марта фойдаланишнинг тариф нархлари

№	Махсулот номи	Тарозига тортиш нархи
1	1 кг ун	3 тийин
2	1 кг сабзавот	2 тийин
3	Курук ва ҳўл мева	3 тийин
4	Буғдой ва ун махсулотлари	3 тийин
5	Сут махсулотлари	5 тийин
6	Гўшт махсулотлари	5 тийин

Жадвал маълумотидан кўриниб турибдики, бозорларда гўшт ва сут махсулотларига энг баланд, сабзавот махсулотларига эса энг паст йиғим белгиланган.

Шунингдек, ҳужжатда махсулотларни катта тарозиларда тортиш ва бозор омборларида сақлаш тариф нархлари ҳам кўрсатиб ўтилган. Масалан, тарозида тортилган 8 кг дан ортик махсулотларга чегирмалар берилган бўлса, 1 кг. кам бўлган махсулот учун ҳам 1 кг тарози ҳақи ундирилган. Ҳужжатга кўра, бозор раҳбариятининг ошхона тарозисидан фойдаланиш учун бир кунга -1 рубл, гўшт киймалагичдан ўтказилган ҳар бир кг гўшт учун 10 тийин, музлатгичсиз омборда махсулотни сақлаш 1 кг махсулот учун суткасига 8 тийин, музлатгичли омборда сақлаш суткасига 10 тийин миқдорида бир марталик йиғим олинган [10].

1936 йил 4 февралда СССР ХКСнинг маҳаллий бозорларни бошқариш бўйича қарори қабул қилинган [11]. ЎзССР Молия комиссарлигининг ушбу қарор ижроси бўйича хати сақланган бўлиб, хатда маълумот берилишича, бозорда лотокларда савдо қилувчилардан 20 тийингача, ҳориж махсулотлари билан савдо қилувчилардан 1 рублгача бир марталик йиғим олинганини ҳақида кўрсатма берилган [12].

Ҳужжатларда қайд этилишича, ЎзССР МИҚ ва ХКСнинг мажлисида 1936 йил 27 февралда тасдиқланган маҳаллий солиқлар ва йиғимлар бандига ўзгартиришлар киритиш масаласи қайта кўриб чиқилган ва қарор қабул қилинган. Қарорнинг кўчирмаси ЎзССР МИҚ, ХКС, Молия, Ер ишлари, Ички савдо комиссарликлари ва Тошкент шаҳар Кегашига жўнатилганлиги ҳужжатда кўрсатилган. Унда маълумот берилишича, ўзининг қишлоқ хўжалиги ерларидан, кустар ишлаб чиқариш махсулотлари, саноат товарлар махсулотларини бозорларда сотиш учун барча фуқаролар бир марталик йиғим тўлайди деб бегилаб берилган.

Бир марталик йиғимлардан колхозчилар, якка тартибдаги ишчиларнинг ўз хўжаликларининг (продажие с рук) парранда, тухум, ёғ, сут ва пишлоқ махсулотларини сотиши учун бир марталик йиғимдан ва бозордаги жой учун ижара тўловидан ҳам озод қилинган.

Бозорда савдо қилмоқчи бўлган бошқа фуқаролардан қуйидаги нархларда бир марталик тўлов ундирилган.

- Лоток қутиларда савдо қилиш учун -20 тийин

- Арава (юкли арава) учун -1 рубл

-Кичик мол учун - 50 тийин

-Йирик мол учун – 1 рубль [13].

- Кенг фойдаланиладиган саноат товарлари ва эски (фойдаланилган эски-туски) товарлардан -20 тийин ундирилган [14].

Ҳужжатлар таҳлилига кўра, шаҳар ва қишлоқ деҳқонларидан бозорда сотмоқчи бўлган ўз махсулотларидан бир марталик йиғим ундириш бўйича эътирозлар келиб тушган. Ушбу эътирозларга кўра 1936 йил 28 майдаги Ички савдо комиссарлигининг район бўлимларига жўнатган хатига кўра, колхоз ва якка тартибдаги хўжаликлар деҳқонлари томонидан етиштирилган парранда, тухум, ёғ, пишлоқлардан бир марталик йиғим олинмаслиги аммо шаҳарда яшовчи сут сотувчилардан йиғим олиш мумкинлиги кўрсатилаган [15]. Аммо Ички савдо комиссарлигининг бу кўрсатмаси 1936 йил 21 июнда бекор қилинган. 1936 йил шаҳар ҳудудида жойлашган қишлоқ хўжаликларининг сут ва сут махсулотларидан бир марталик йиғим олишни бекор қилиш бўйича хати жўнатилган.

Архивда сақланган ҳужжатларда бозорларда бир марталик йиғимни йиғиш тартиб қоидалари бўйича ҳужжатлар ҳам сақланган. Ҳужжат СССР Ички савдо комиссари И.Я.Вейцер томонидан имзолаган ҳужжатнинг котиб имзоси билан тасдиқланган нусхаси эканлиги кўрсатилган. Ҳужжатда берилишича, СССР Ички савдо комиссарлигининг 1936 йил 21 июл №942 Қарори қабул қилиниб, унда барча хусусий шахслардан бозордаги кенг истемолда бўлган маҳсулотларни сотиши учун бир марталик йиғим ундириш тартиблари кўрсатиб ўтилган. Йиғимни тўловчиларга типогафик йўл билан нашр этилган “За продажу промышленных товаров и вещей с рук” деган талон берилиши лозим бўлган. Талонни беришда бозор ходими сотувчининг фуқаролигини тасдиқловчи ҳужжати асосида бозор қайднома дафтарида қайд этиши лозим бўлган. Шунингдек, қарорда бозор маъмурияти ушбу талонларни ҳисобот ҳужжати сифатида сақланиши лозимлиги ҳам алоҳида таъкидлаб ўтилган [16]. Бозор ишлари тафтиш қилинганда ушбу талон ҳужжатлари асос бўлиб хизмат қилинган.

Хулоса. XX асрнинг биринчи ярмида совет ҳокимиятининг миллий-худудий чегараланиш сиёсатидан сўнг Ўзбекистон ССР бюджет тизимини шакллантириш мақсадида кўплаб солиқ турлари жорий этилган. Айнан, Бир марталик солиқ йиғимлари ҳақидаги муҳим маълумотлар Ўзбекистон Миллий архивининг Р-93 фондида муҳим маълумотлар жамланган. Шунингдек, Ўзбекистон МИҚ ва ХКС органларининг архив фондларида ҳам бу солиқ йиғими ҳақида маълумотлар учрайди.

Бир марталик йиғимлар маҳаллий бюджетнинг асосий даромад манбаларидан бири бўлиб, патент, герб, фуқароларнинг мурожатларидан ва бир марталик йиғимлари олинган. Улар ичида

фуқароларнинг мурожаатлари учун олинган. Архив ҳужжатларида бу ҳақида ҳам бир қатор маълумотлар учрайди. Фуқаролар мурожаат қилганда марка учун ва ариза топширгани учун давлат божи тўланган тўланган. Шикоят аризалари тўлов тўланмагунча кўриб чиқилмаган. Тўлов қобилиятига эга бўлмаганлар бу ҳақида асосланган маълумотнома тақдим этиши лозим бўлган.

Оммавий коллективлаштириш жараёнида колхозларнинг ва якка тартибдаги хўжаликларнинг гўшт, сут маҳсулотларини бозорларда сотишда бир марталик йиғим жорий этилган бўлса, кейин шикоят ва мурожаатлардан сўнг республика ҳукумати уни бекор қилишга мажбур бўлган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Марьяхин Г. Очерки истории налогов в СССР. – Москва. Госфиниздат, 1964. – С.318.; (Maryakhin G. Essays on the history of taxes in the USSR. - Moscow. Gosfinizdat, 1964. - P.318)
2. Жўраев Ш., Бобоев С. Маҳаллий солиқлар тарихи. – Бухоро, 2004. – 78 бет.;
3. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Тошкент, 2009. – 180 бет.;
4. Дусчанов Р.Р. Ўзбекистонда совет давлатининг солиқ сиёсати (1946-1991 йиллар)./ Тарих. фан. бўйича фал. докт. (PhD) дисс. ... автореф. – Тошкент, 2022. – 24 бет.;
5. Alec Nove. An Economic History of the USSR. – England, 1990. – P. 428.; Yanni Kotsonis Taxes and citizenship in the Russian empire and early soviet republic. - London, 2014 y. – P. 632.; Parthasarathi Shome. Taxation History, Theory, Law and Administration. – London, 2021. – P. 507.
6. Yanni Kotsonis. [Taxes and Citizenship in the Russian Empire and Early Soviet Republic](#). – Toronto, 2016. – P. 483.
7. ЎзМА, Р-837-фонд, 3-рўйхат, 240-йиғмажилд, 11-20-варақлар
8. Известия Народного Комиссариата Труда СССР. /Официальная Издания №5 10 феврал 1924 года. –С.1-7 (News of the People's Commissariat of Labor of the USSR. / Official Edition No. 5 February 10, 1924. –S.1-7)
9. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 212-йиғмажилд, 48-варақ
10. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 212-йиғмажилд, 36-варақ
11. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 212-йиғмажилд, 43-варақ (Асос: собрания законов СССР 1936 г. №7 ст.65)
12. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 212-йиғмажилд, 43-варақ
13. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 212-йиғмажилд, 30-варақ
14. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 212-йиғмажилд, 31-варақ
15. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 212-йиғмажилд, 46-варақ
16. ЎзМА, Р-93-фонд, 15-рўйхат, 212-йиғмажилд, 40-44-варақлар

ТОЖИК ХАЛҚИ ЗАРГАРЛИК МАДАНИЯТИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР

(Самарқанд вилояти аҳолиси мисолида)

Ҳ.С.Шукурова, ўқитувчи, Самарқанд Давлат Университети, Самарқанд

Аннотация. *Халқларнинг тарихи ва маданияти, жумладан, жаҳон цивилизациясида из қолдирган эроний халқларнинг тарихий-этнографик қадриятларини ўрганиш, кўҳна ва ҳаммиша навқирон Самарқанд вилояти аҳолисининг бой маданий қадриятлари сирларидан баҳраманд бўлиш - бугунги кунда этнология олдида турган энг долзарб масалалардан биридир.*

Калим сўзлар: заргарлик буююмлари, урф-одатлар, этнография, миллат, этнос, ҳунармандчилик

Аннотация. *Изучение истории и культуры народов, в том числе историко-этнографических ценностей иранских народов, оставивших свой след в мировой цивилизации, приобщиться к тайнам богатых культурных ценностей жителей старинной и всегда популярной Самаркандской области - это одна из самых актуальных проблем, стоящих сегодня перед этнографией.*

Ключевые слова: *Ювелирные изделия, обычаи, этнография, нация, этнос, ремесла.*

Abstract. *Studying the history and culture of peoples, including the historical-ethnographic values of the Iranian peoples who have left a mark on the world civilization, enjoying the secrets of the rich cultural values of the inhabitants of the ancient and ever-popular Samarkand region - is one of the most urgent issues facing ethnology today.*

Key words: *jewelry, customs, ethnography, nation, ethnos, craft.*

Ўрта Осиё халқларининг миллий ўзига хос хусусиятларини акс эттирувчи қадимий маданияти ва тарихи билан узвий боғлиқ бўлган муҳим маданий объектлардан бири - заргарлик буюмларидир. Ҳар бир минтақа маданиятида заргарлик ҳунарининг ўзига хос фарқ ва хусусиятлар мавжуд.

Тарихий даврлар ўзгарувчанлиги мобайнида Марказий Осиёда бадиий ҳунармандчилик энг ривожланган давр XIX-XX асрларда бошланган эди. Айниқса ўзбек хонлиқари ўлкаларида заргарлик ҳунари тез суръатлар билан ривожланди. Кўпгина шаҳарларда масалан, Хива, Бухоро, Қўқон, Самарқанд, Қарши, Шахрисабз, Тошкент, Андижон, Урганч, Нурота, Китоб, Чуст, Асака, Гиждивон, Марғилон ва бошқа жойларда уста заргарлар бўлиб, улар махсус маҳалла-маҳалла бўлиб яшаганлар. Шунинг учун заргар (заргарон) маҳалла деб юритилган. Самарқандда 1893 йили 20 дан ортиқ заргарлар дўконлари бўлган.

Маҳаллий аҳоли турмушида заргарлик буюмларининг аҳамияти катта бўлиб, шу зеб-зийнатлар соҳибалари ва уларнинг оила аъзоларининг ижтимоий ўрни ҳамда мавқеи қай даражада эканлиги кўриниб турган. Бундан ташқари, бадиий жиҳатдан қандай қимматбаҳо тошлар билан безатилгани, қайси моҳир усталар томонидан ясалганлигига қараб ҳам баҳоланган.

Марварид ва ноёб тошлар билан безатилган зеб-зийнатлар асосан аслзодалар, хон ва амирлар саройи аъёнлари учун ишланган. Ўртаҳол аҳоли табақалари орасида кўпроқ кумуш суви юритилган, ранго-ранг тош ва шишачалар билан безатиладиган тақинчоқлар русм бўлган. Камбағаллар кумуш, мис, биринж ва шишалардан ишланган заргарлик буюмларини тақишган. Энг оммавий равишда тарқалган зийнатлар асосан кумушдан ясалган.

Зеб-зийнатлар турли техник усуллар қўлланилиб ясалган: олтин, кумуш, мис, қалайи, жез каби хомашё маъданларни эритиш ва қуйиш (табанак), хойис болға билан болғалаш (хоискори), қолиплаш (қолипаки), (шабака), майда-нозик ишларни бажариш (рахкори), зиғирак ва ҳоказо.

Заргарлик буюмларини жимжимадор ўйма нақшлар (кандакори), шакллар (чизма) билан безаганлар. Гул-нақшлар ва улар атрофига қора кумуш суви ёки мийно эмалини бир текис суртиб, жило берганлар. Узук, зирак, тиллақош, зебигардон ва бошқаларга феруза, маржон,

садаф, ёкут, зумрад, дур кабилардан кўз солганлар, бундай кўзлар ўрнига кўпинча шиша ва маржон, рангдор ойна ҳамда майда мунчоқларни ҳам ўрнатишган.

Аёллар тақинчоқлари — мунчоқлар, сирғалар, билагузуклар ва узуклар асосан кумушдан ясалган бўлиб, тилла ва зардўзли буюмлар фақат бадавлат кишиларга (айниқса, ўтроқ аҳолига) эга бўлган. Уларни бухоролик ва самарқандлик заргарлар ясаган.

Заргарлик буюмлари орасида маржон бонсуқлар барча ёшдаги аёллар (чин маржони), ёш аёллар эса мунчоқ ва кумуш тангалар (зебигардон) тақиб юришган.

Тиллақош — юпқа тилла ҳал юритилган кумуш пластинкадан ясалиб, феруза ва бошқа қимматбаҳо тошлар билан безатилган. Самарқанд аҳолисига русм бўлган. Бу буюмдан ҳозирги кунда ҳам фойдаланадилар келинларнинг асосий безакларидан ҳисобланади.

Зебигардон — бўйинга тақилиб, кўкракка тушириб қўйилади, ҳалқача, садаф, мунчоқ маржонлар бир-бирига бириктириб ясалишидан ҳосил бўлади, қуббалари қимматли тошлар билан безатилган. Олдинги даврларда “тангашадда” деган заргарлик буюми мавжуд бўлиб, ҳақиқий тангалардан ясалган ҳозирда унинг нусхалари жуда кам қолган. Бугунги кунда зебигардонларнинг замонавий шакллари тақалади. Булар кумуш ва бошқа турдаги металллардан ясаган бўлиб, турли мунчоқлар билан безалган.

Узук — учинчи бармоқдан ташқари барча бармоқларга тақса бўладиган зийнат белгиси бўлиб, ўртасидаги кўзига нодир тошлар ўрнатилган, ўзи олтин, кумуш, мисдан ясалган.

Билакузук, дастпона — тилла, кумуш, мисдан, мунчоқ, маржон шодаларидан ҳам ясалиб, бодомча, япалоқ, илонбоши, бақабоши, товус, қуйма, кичик билакузук каби турлари мавжуд. Самарқандда шабака билакузуклар кўпроқ учрайди.

Исирға, зирак — аёллар ёқтирган бу зийнат буюмнинг кўзида ноёб тош ўрнатилиб, майда шиша тошчалардан иборат шокилалари ҳам бўлади, қашқарбалдоқ, ойбалдоқ, ҳалқа кабилар ҳам кулоққа тақилиб, олтин ва кумушдан ишланади, Самарқандда булардан ҳалқа варианты кўпроқ учрайди.

Биз таърифлаб ўтганларимиздан ташқари кўкракка — мурғак, нозигардон, бўйинга — тумор, маржон, бозбанд, бошга олтин тумор, қўлтиқ остига — қўлтиқ тумор, белга — камарбанд, сочга — сочпопуклар, туф, зулфи тилло, осма безак, бутундирнок, яримдирнок кабилар тақиб юрилган. Самарқандда яшаб, ижод этган моҳир заргарлар ўз нафис буюмларини ўша даврларда расм бўлган намуна — андазалар асосида истеъмолчиларнинг буюртмаларидан келиб чиқиб ясаганлар. Маҳаллий халқ усталари ижодида кўшни мамлакатлар билан маданий-иқтисодий алоқалар ва мазкур ўлкаларда яшаган усталарнинг тажрибаси акс этган. Улар нафақат аёллар учун, балки бу нафис хунармандчилик қадрига етадиган юксак дидли кишилар учун тинимсиз меҳнат қилиб, чинакам санъат асарларини яратганлар.

XIX-XX асрларда заргарлик санъати юксак даражада ривожланган. Булар, асосан, аёллар тақинчоқлари ва эркаклар бош тасмалари, камарлари ва бошқа буюмларни яратиш билан шуғулланади. Кумуш ва олтин буюмларга талаб катта бўлган. Ҳар бир катта кишлоқнинг ўз заргарлари бўлиб, улар қўшни кичик кишлоқларнинг эҳтиёжларини ҳам қондирди.

Заргарлар буюртмани ўз уйларида қабул қилишган, баъзан эса мижозлар ўзлари уйларида ишлашга таклиф қилишган. Камдан-кам ҳолларда заргар асбоб-ускуналарини олиб, кишлоқма-кишлоқ юриб, буюртмалар қабул қилган. Буюртма битгач ишдан кейин иш ҳаққини нақд баҳолаб заргарга тўлаган. Баъзи заргарлар кумуш тангалар билан тўлашни талаб қиларди. Заргарлик буюмларига бўлган талаб юқорилиги боис, мижоз ўз буюртмасини бир неча ой кутишга мажбур бўлган ҳолатлар мавжуд. Заргарлик буюмларида фарқ жуда кам бўлган. Заргарлик устаси яқин қариндошларининг ёки ўзининг ўғлини шогирдликка олиб хунар ўргатарди. Ижтимоий ҳаёт қийинчиликлари боис, заргарларнинг аксарияти бу хунардан тирикчилик қила олмай, деҳқончилик ва чорвачилик билан шуғулланиб кетган.

Самарқанд заргарлари турли хил аёллар тақинчоқлари: сирғалар, билагузуклар, узуклар, хайкалчалар, узуклар, туморлар ва бошқалар ясаганлар. Кўпгина заргарлар мис қумғонлар, кўзалар, косалар, сандиқ кулфлари ва бошқа буюмларни нарсаларни ясаган. Улар асосан бой одамлар томонидан буюртма қилинарди. Қимматбаҳо тошлар, олтин ва кумушлар билан

безатилган камарлар, шунингдек, эркаларнинг маржонлари фақат бадавлат кишиларнинг чўнтагига қўтариши мумкин эди.

Баъзи заргарларнинг махсус устахонаси йўқ эди, бунақа ҳолларда заргарлар ўз уйида маҳсулот буюртма олишган.

Заргарлик асбобларини дурадгорлар, баъзан эса ўзлари ясаган. Заргарнинг меҳнат куруллари авлоддан-авлодга ўтиб келган. Заргарлик асбоблари сандиқ, болға, безак, қолип, арра, кески, қисқич, пенсе, сим, бурғу, пайвандлагичлардан иборат эди.

Заргарлик буюмлари учун асосий материал кумуш эди, олтин камдан- кам ишлатилган. Баъзан кумуш ва олтин аралашмаси қўшилиб, оч сариқ рангли металл ҳосил бўлган, уни "олтин" деб аташган. Ундан сирға, узук, билагузук ясаган [3, 56-бет].

Хулоса қилиб айтганда, келтирилган сўз, истилоҳ ва мажозий ифодалардан маълум бўлади ким, заргарлик лексикаси луғавий таркиби бой бўлиб, иттифоқдош касблар машғулият доирасини қамраб олади. Аммо шунини таъкидлаш керакки, бу соҳанинг луғат бойлигини тузиш тарихий вазифага айланиб бормоқда, чунки техник воситаларнинг жадал ривожланиши натижасида ҳунармандчилик, жумладан, заргарлик соҳасида ҳам туб ўзгаришлар рўй берди.

Заргарлик буюмларини ишлаб чиқариш ва тайёрлаш билан шуғулланадиган заргарлик буюмлари (савоткорй, мийногарй, гаҳчигй ва бошқалар) билан боғлиқ бўлган айрим тармоқлар, афсуски, йўқолди. Бинобарин, бу бетакрор касбга оид сўз ва сўз бирикмаларни халқ орасидан, ишончли манбалардан тез йиғиб, илм аҳлига етказишимиз ва тил луғатининг мана шу қатламини муҳофаза қилишимиз зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдуллоева Г.З. Лексика Каратагского говора: Автореф. дис. ...канд. филол. наук: 10. 02. 22. - Душанбе, 2013. - 22 с.
2. Булатов. С. Ўзбекистон санъати тарихи. Тошкент. 1991 йил.
3. Гадоев Н. Лексикаи лаҳҷаи Тагнов. Монография. - Душанбе: Ирфон, 2012. – 209 с.
4. Ермакова Е.С. Женские ювелирные украшения Бухары конца 19- начала 20 века. Монография. – М., 2000. -166 с.
5. Истамова М. Дж. Лексика швейного и вышивального искусства в Самаркандских говорах таджикского языка: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10. 02. 22. - Душанбе, 1983. – 20 с.
6. Этнографические очерки Узбекского сельского населения. – М.: Наука, 1969. – 284 с.
7. Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. – Ташкент: «Изд-во лит. и искусства», 1988. - 204 с.

УЎК 902

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ВАКИЛЛИК ОРГАНЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАРНИ ИЖТИМОЙ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ РОЛИ

Т.Ё.Якубов, эркин изланувчи, Қариш Давлат Университети, Қариш

Аннотация. Мазкур мақолада маҳаллий ҳокимият вакиллик органлари томонидан аҳоли турмуш даражаси ва фаровонлигини оширишга, ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий соҳаларни ривожланишига оид самарали ишлари тарихий ва илмий манбалар асосида ёритилган.

Калим сўзлар: Мустақиллик, Ўзбекистон, вилоят, маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари, иқтисодий, ижтимоий, саноат.

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективная работа местных органов власти по повышению уровня жизни и благосостояния населения, развитию социально-экономической и культурной сфер регионов на основе исторических и научных источников.

Ключевые слова: Независимость, Узбекистан, Регион, представительные органы местной государственной власти, экономический, социальный, промышленный.

Abstract. This article covers the effective work of local authorities on improving the standard of living and well-being of the population, the development of socio-economic and cultural spheres of the regions on the basis of historical and scientific sources.

Keywords: *Independence, Uzbekistan, Region, representative bodies of local state authorities, economic, social, industrial.*

Ўзбекистонда истиқлолнинг илк кунларидан бошлаб маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органларининг ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий ҳаётига раҳбарлик соҳасидаги фаолияти самарадорлиги, унинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги ўрни ва ролининг ошиб боришини мамлакат тақозо қилди.

Халқ депутатлари Фарғона вилоят Советининг навбатдан ташқари сессиясида “Савдо хизматини ва аҳолининг кундалик истеъмол моллар билан таъминлашни янада яхшилаш борасида вилоят советлари, хўжалик ҳамда ширкат ташкилотлари олиб бораётган ишлар, навбатдаги вазифалар тўғрисида”ги масалани муҳокама қилди. Фарғона вилоятининг 1991 йилги сессиясида бозор иқтисодиёти муаммолари, аҳоли турмушидаги муаммолар нафақат депутатларни, бутун аҳолини қаттиқ ташвишга солаётгани жиддий айтилди. Фарғона шаҳрида 1990 йилнинг октябрида ҳар куни 45-50 тонна атрофида ун қорилиб, нон ва нон маҳсулотлари тайёрланган бўлса, 1991 йил шу даврига келиб икки баробар кўп – 100 тоннага яқин ундан маҳсулот ишлаб чиқарди. Президент фармонида биноан Фарғона вилояти бўйича аҳолига 1991 йилда 31 минг тонна ғалла берилди. Мол айрибошлаш йўли билан 10 минг тонна ун, 2,5 минг тонна – гуруч келтирилди. Фақат 1991 йилнинг ўзида 20 минг гектар ерга кузги бугдой сепилди. Бу аҳолини ижтимоий аҳволини яхшиланишига хизмат қилди[1].

1994 йилда Бухоро вилоятида қишлоқ шифокорлари ва врачлик пунктларининг 80 фоизи номигагина мослаштирилган биноларга жойлаштирилган. Бухоро шаҳрида аҳолининг 81 фоизи ичимлик сув билан таъминланган бўлса, қишлоқда бу кўрсаткич бор-йўғи 15 фоизни ташкил этади. Чикинди сувларнинг чиқиб кетиши шаҳарда 44, қишлоқда эса қарийб 9 фоиз таъминланган. Бу эса юқумли касалликларнинг тарқалишига сабаб бўлганлиги вилоят Кенгаши сессиясида танқид қилинди. Шунингдек, вилоятда 1992 йилга нисбатан 1994 йилда қасддан одам ўлдириш 20 фоиз, номусга тегиш 26 фоиз, талончилик 36 фоиз, безорилик 51 фоиз, товламачилик 51 фоиз ортган[2].

Сурхондарё вилоятида газ қувурлари ётқизиш режаси 1999 йили Бандихон туманида атиги 5,3 фоизга бажарилган. Бу кўрсаткич Қумқўрғон туманида 55, Термиз туманида 58,5, Узун туманида 54,9, Шеробод туманида 86,4 фоизни ташкил этади. Ичимлик сув тармоқларини ётқизиш режасининг бажарилиши эса Узун туманида 20,6 фоиз, Шеробод туманида эса 45,5 фоиздан ошмади. 2000 йилда вилоят бўйича 46 та қурилиши бошланган иншоот мавжуд. Соғлиқни сақлаш ва халқ таълими соҳаларига қарашли кўплаб шифохоналар ва мактаб биноларининг 7-9 йил муқаддам бошланган қурилиши якунланмади. Хусусан, 1996-1999 йиллар мобайнида қишлоқ жойларида мактаблар қуриш режаси атиги 64,6 фоизга бажарилган. Бир неча йиллар олдин бошланган 27 та мактаб биносининг қурилиши тўхтатиб қўйилди[3].

2002 йилда Сурхондарё вилоятида турар-жой фондини газ ва сув ўлчаш мосламалари билан таъминлаш ишларида силжиш бўлмади. Кўп қаватли уйлардаги хонадонлар ва шахсий уй-жойларнинг 3 фоизигина газ, 1 фоизигина сув ўлчаш мосламалари билан таъминланди. Аҳолини газ ва ичимлик сув билан таъминлаш борасида олиб борилаётган ишлар бугунги кун талабларига жавоб бермайди. Хонадонларни газлаштириш даражаси вилоят бўйича 58 фоизни, қишлоқ жойларида эса 51 фоизни ташкил этди. Бу эса мамлакат миқёсидаги энг паст кўрсаткич ҳисобланди. Вилоятдаги мавжуд мактабларнинг 63 фоизи газлаштирилмаган, 243 таси таъмирга муҳтож. Умумий ўрта таълим муассасаларининг 73 фоизи компьютерлар билан таъминланмаган. Мактабларда техник асбоб-ускуналар, турли жиҳозлар, кўргазмали ўқув қуроллари етишмади. Ўқувчиларнинг бор-йўғи 17 фоизигина дарсдан ташқари пайтда спорт билан шуғулланди. Аҳоли соғлиғини сақлаш борасида олиб борилаётган ишлар одамларнинг ҳақли эътирозларига сабаб бўлмоқда. Бир неча бор танқид қилинганига қарамасдан, шошилинч тиббий ёрдам бўлимларининг зарур дори-дармон, асбоб-ускуналар билан таъминоти қониқарсиз деб топилди. Вилоятнинг Жарқўрғон, Узун, Қумқўрғон ва Термиз туманлари марказий шифохоналарининг моддий-техник базаси аянчли ҳолга келган, бинолари

таъмирланмагани учун Узун тумани марказий касалхонаси қиш кунлари иситилмади. Аҳолининг ўсиш суръатлари йилига 33 минг кишини ташкил этаётган бир пайтда янги иш ўринлари яратишга етарли эътибор берилмаяпти. Натижада ишсиз фуқаролар сони ҳозирги вақтда салкам 40 минг кишига етган. Бандихон, Денов, Термиз, Узун туманларида меҳнат бозоридаги вазият кескинлигича қолди[4].

Вилоятнинг Денов туманида жинойтчиликнинг барча турлари 2001 йил мобайнида кескин кўпайган. Жарқўрғон, Шеробод, Музработ туманларида қасддан одам ўлдириш ҳоллари 2-3 бараварга, Шеробод туманида ўғрилик жинойтлари 18 фоизга ортди. Охириги икки йил мобайнида вилоят қишлоқ хўжалиги соҳаси раҳбарларининг ярмидан кўпи, Ангор, Музработ, Термиз, Шеробод туманларида хўжалик раисларининг 75-90 фоизи алмаштирилган. Вилоят суд, прокуратура ва ички ишлар органлари фаолиятдан норози бўлган фуқаролардан тушаётган аризалар сони 30 фоизга ошди[5].

Мустақилликнинг дастлабки кунларидан бошлаб ҳудудларда ижтимоий муаммоларни бартараф этиш ва аҳолининг яшаш шароитини яхшилашга қаратилган Кенгаш йиғилишлари ва сессияларида мунтазам ўтказиб турилди. Жумладан, халқ депутатлари Фарғона вилояти Кенгашининг 2003-2005 йилларда 10 марта сессияси ўтказилди, 2003 йилда 8 та, 2004 йилда 10 та ва 2005 йилда 18 та ҳудудни ривожлантиришнинг истиқболга мўлжалланган дастурлари қабул қилинди[6].

Тошкент шаҳрида ҳудудий ички маҳсулотнинг ҳажми 2005 йилда 2004 йилга нисбатан 15 фоизга ўсиши режалаштирилди. Бунда саноатда ўсиш суръати 119 фоизни, пудрат ишларида 110 фоизни, чакана товар айланмаси 127 фоизни, пуллик хизмат кўрсатиш 123 фоизни ташкил этди[7].

2005 йилда Тошкентда аҳоли даромадларининг ўрта ҳисобда 33 фоизга кўпайиши кузатилди. Бюджет харажатларининг 55,4 фоизи ижтимоий соҳага ҳамда аҳолини моддий қўллаб-қувватлашга йўналтирилган, хусусан 20.431 та кам таъминланган оилага - 760 миллион сўм, 18 ёшгача фарзанди бўлган 17.841 та оилага - 1,9 миллиард сўм, икки ёшгача фарзанди бўлган 7.969 оилага 1,6 миллиард сўм, 867 нафар ёлғиз қарияларга. 77,7 миллион сўм ажратилди. Бундан ташқари, бюджет ҳисобидан ободонлаштириш ишларига - 13 миллиард сўм, иссиқлик қувватидан фойдаланиш учун тарифлар тафовутини қоплашга - 9,1 миллиард сўм, қозонхоналар ва иссиқлик қувурларини таъмирлашга 1,4 миллиард сўм сарфланди. 2005 йилнинг охирларида Тошкент шаҳрида “Бандлик” дастури доирасида қўшимча 39 мингта иш ўринлари яратилди[8].

Ижтимоий соҳага бўлган бюджет харажатлари динамикаси шуни кўрсатдики, Тошкент шаҳрида 2006 йилда бу борада харажатлар тўрт фоиздан кўпроққа ортиб, умумий бюджет қисмининг 60,5 фоизини ташкил этилиши кўзда тутилди. Шундан 34,4 фоизини эса таълим соҳасига ажратилади[9].

Мамлакат Президентининг “Ўзбекистон Республикасида 2006-2010 йилларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантиришни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони ижроси юзасидан пойтахтда махсус ҳудудий дастур ишлаб чиқилган бўлиб, унга мувофиқ 2010 йилга келиб хизмат кўрсатиш соҳасининг умумий иқтисодий кўрсаткичлардаги улушини 61,8 фоизга етказиш кўзда тутилди. Шу билан бирга ҳар йили 14 мингдан зиёд иш ўринлари яратилади бунда асосий эътибор уй шароитидаги меҳнат фаолиятига қаратилиши таъкидланди. Меҳнат ва аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш бош бошқармасининг дастлабки маълумотларига кўра, 2006 йил бошидан пойтахтда 25.366 та янги иш ўринлари яратилган бўлса, шундан 2.492 таси касаначилик шартномалари асосида ташкил этилди[10].

Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш борасида самарали ишлар ташкил этилди. Халқ депутатлари Жиззах вилоят Кенгашининг доимий комиссияси томонидан вилоят учун долзарб дастурлар, хусусан, “Фермер хўжалигини ривожлантириш”, “Ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш”, “Вилоят аҳолисини тоза ичимлик суви билан таъминлашни яхшилаш” дастурлари ишлаб чиқилди ва амалга оширилди[11].

Хуллас, маҳаллий ҳокимият вакиллик органлари аҳоли турмуш даражаси ва фаровонлигини оширишга, ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий соҳаларни ривожланишига йўналтирилган ҳудудий сиёсатни ишлаб чиқувчи ва амалга оширувчи институт сифатида ўзини намоён қилди.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Вилоят совети сессияси // Халқ сўзи, 1991 йил 24 октябрь.
2. Халқ депутатлари Бухоро вилояти кенгаши сессияси // Тошкент оқшоми // 1994 йил 22 март, №34, – Б. 2.
3. Халқ билан ҳамнафас яшаш ва ишлаш – олий бурч. Халқ депутатлари Сурхондарё вилояти кенгаши сессияси, Қишлоқ ҳаёти // 2000 йил 24 март.
4. Раҳбар, етакчи ўзи ёниб, ўзгаларни ҳам ёндириб яшаш керак. Сурхондарё вилоят Кенгашининг сессияси, Халқ сўзи // 2002 йил 22 февраль, №39, – Б.2-б. Яна қаранг: Қишлоқ ҳаёти // 2002 йил 22 февраль, Ўзбекистон овози // 2002 йил 26 февраль,
5. Раҳбар, етакчи ўзи ёниб, ўзгаларни ҳам ёндириб яшаш керак. Сурхондарё вилоят Кенгашининг сессияси, Халқ сўзи // 2002 йил 22 февраль, №39, – Б.2-б. Яна қаранг: Қишлоқ ҳаёти // 2002 йил 22 февраль, Ўзбекистон овози // 2002 йил 26 февраль,
6. Дехканов Н. Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органларининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи. – Т.: “Иқтисодиёт”, 2015.– Б. 107.
7. Ташаббускорлик ва фаоллик – муҳим омил // Тошкент оқшоми, 2007 йил 17 июль.
8. Тошкент шаҳар кенгашининг сессияси // Тошкент оқшоми, 2005 йил 26 декабрь.
9. Тошкент шаҳар кенгашининг сессияси // Тошкент оқшоми, 2005 йил 26 декабрь.
10. “Ислохотларни чуқурлаштириш ва иқтисодиётни эркинлаштириш йўлида” // Тошкент шаҳар Кенгаши сессияси, Тошкент оқшоми, 2006 йил 10 июль, №131. 2-б.
11. Олий Мажлис Сенатида // Халқ сўзи, 2008 йил 1 февраль, №23.

УЎК 903(379.851)

АРХЕОЛОГИЯ МУЗЕЙ, ПАРК ВА ҚЎРИҚХОНАЛАРИНИ БОШҚАРИШ

А.Яркулов, PhD, Маданий мерос агентлиги, Тошкент

Аннотация. Мақолада археология музей, парк ва қўриқхоналарини бошқариш ҳамда бошқарув режалари тўғрисида сўз юритилади. Бошқарув режаларининг аҳамияти, таркиби ва уларни ишлаб чиқиш муҳимлигини кўрсатиб беришга ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: археология мероси, музей-қўриқхона, бошқарув режаси, очиқ осмон остидаги музей, археология музейи, бошқарув, ЮНЕСКО, ИКОМ.

Hozirga qadar kompyuterli o'qitishning psixologik pedagogik nazariyasi ishlab chiqilmagan bo'lsada, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari yaratilmoqda va ta'lim tamoyillarini inobatga olgan holda amalda qo'llanilmoqda. Elektron darsliklar o'qitish sifatini oshirishga mo'ljallangan bo'lib, darsda taqdimotlar va nazorat ishlarini o'tkazishni yengillashtiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonini masofadan turib tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish imkoniyatlarini oshiradi. Natijada masofali ta'lim kompyuterli ta'limning eng yetakchi maqomini ola boshladi.

N. A. Muslimov elektron vositalari yordamida o'qitishni talabalarning mustaqil bilim olish tamoyiliga va o'rganiladigan asosiy o'quv materiallarini ta'lim oluvchiga yetkazishni ta'minlovchi axborot texnologiyalari majmuiga tayanilgan yangi ta'lim jarayoni tuzilmasi sifatida ta'riflaydi.

Rossiya tadqiqotchilari tomonidan 7 ta banddan iborat elektron ta'lim ashyolari sinfi ishlab chiqilgan. Ushbu klassifikatsiyaga muvofiq 33 % o'quv uslubiy, 34 % o'rgatuvchi va faqat 23 % dasturiy elektron ta'lim resurslaridir. Ushbu elektron resurslar faqat o'qituvchi uchun mo'ljallangan.

Qozoqiston tadqiqotchilari elektron nashrlarni quyidagi toifalarga ajratadilar.

1. Elektron o'quv nashrlari – o'quv dasturiga mos keluvchi turli ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya ishlari va keys texnologiyalar.

2. Multimediali o'rgatuvchi dasturlar – animatsiya va tovushli kuzatuvli o'quv kurslari.

3. Elektron darsliklar – o'qitishni avtomatlashtirishga mo'ljallangan elektron o'quv nashri.

4. Elektron o'quv qo'llanmalar – fanning alohida bo'limlari, mashqlar yoki masalalar to'plami, ma'lumotnoma va boshqalar.

Elektron o'quv adabiyotini shartli ravishda elektron o'quv-uslubiy majmua (EUUM) deb atash mumkin. Uning tarkibiga mazmunan o'zaro bog'langan quyidagi bloklar kiritiladi:

- tashkiliy-uslubiy blok;
- axborot-ta'lim bloki;
- ma'lumotlar bloki;
- amaliy mashq va topshiriqlar bloki;
- natijaviy nazorat bloki.

Hozirgi foydalanilayotgan elektron darsliklar quyidagi asosiy elementlardan tarkib topgan:

- Matnlar. Elektron darslikning asosiy qismini o'quv ma'lumotlari, topshiriqlar, testlar, izohlar, lug'atlar, amaliy mashqlar, ko'rsatmali materiallar tashkil etadi.

- Tasviriy materiallar. Elektron darslikdagi ob'ektlar, jarayonlar, hodisalarni tasvirlovchi sxemalarni turli rangdagi monitor ekranida tasvirlash mumkin. Ma'lumki ko'rgazmali informatsiyani matnli informatsiyaga nisbatan qabul qilish yuqoriroq bo'ladi. Grafik ob'ekt ko'rinishidagi obrazlar inson xotirasiga yaxlit qabul qilinadi va ko'p vaqtda saqlanadi.

- Tovushli kuzatish. Elektron o'quv nashrning ajralmas qismi hisoblanadi. Ob'ektlar bilan jarayonlar kechishi va hodisalar matnli, shovqinli-signalli, musiqali tarzda tovushli kuzatuv bilan tasvirlanishi mumkin. Tovush elektron nashrdagi videolavha va animatsiyalarni sinxron tarzda kuzatish mumkin. O'quvchining bir vaqtning o'zida axborotni matnli hamda tovushli qabul qilishi, uning axborotni tez o'zlashtirishga ijobiy ta'sir etadi.

- Animatsiya va videolavhalar. Ob'ektlar, jarayonlar va hodisalarning animatsiyali yoki videolavhalar ko'rinishida berilishi o'quv materialini tez vaqtda o'zlashtirishi va xotirada saqlashiga imkon beradi.

Ta'lim oluvchilar maxsus fan ma'ruza darslarida mahsulotlarga ishlov berish jarayonlari va metodlari, mashina va apparatlari tuzilishlari va ishlash prinsiplari to'g'risida nazariy bilimlarga ega bo'ladilar. Imitatsion o'yinlardagi maxsus dastur asosida ishlab chiqilgan ob'ektlar virtual stendlar deb yuritiladi. Virtual stendlarda asosan jarayonlar va ob'ektlar tuzilishlari va ishlash prinsiplari haqida jarayonlar kechishi virtual holda tasvirlanadi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan keyin ta'lim oluvchilar elektron darsliklardan foydalanib olgan bilimlarini mustaqil tarzda mustahkamlaydilar va nazorat testlarini topshiradilar. Ta'lim oluvchilar maxsus fan bo'yicha elektron darslik vositasida olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari kerak.

Keyingi yillarda elektron o'quv adabiyotlarini yaratish va elektron lug'atli-ma'lumotli materiallarni ishlab chiqish keskin rivojlandi. Elektron o'quv nashrlarni tarmoq orqali tarqatish imkoniyati yaratildi. Elektron o'quv adabiyotlarining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, undagi o'quv materiallari, tasviriy materiallar eskirmaydi va yemirilmaydi, saqlash uchun ko'p maydon va hajmni talab etmaydi. Elektron o'quv adabiyotlarni yaratish bosma nashrlardan ko'ra sezilarli darajada oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra jahon miqyosida bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish 60-70 % dan 35-50 % ga kamaydi. Elektron nashrlar ishlab chiqarish hajmi 25-30 % ga ortdi.

Har bir elektron o'quv adabiyoti o'quvchilar yoshiga, fanning o'quv dasturiga mos bo'lishi, mavzular to'la yoritilishi, fanlararo bog'liqlik, o'quv fani mavzularga mos dizaynlar tanlanishi, fanga nisbatan qiziqishini orttirishi, ta'limda samaradorlikka erishilishiga xizmat qilishi lozim.

Elektron o'quv adabiyotlar quyidagi afzalliklarga ega:

- Matn terish xarajatlarini kamaytiradi;
- Chop etish, saqlash va tarqatish xarajatlaridan xalos etadi;
- Ma'lumot kerak bo'lgan joydan darhol olinishi mumkin;
- Faqat zarur bo'lganidagina bosma ko'rinishida chiqarilishi mumkin.

Respublikamizda elektron o'quv adabiyotlarini qanday yo'lga qo'yish mumkinligi borasidagi ba'zi fikrlar ham keltirilgan:

• Mahalliy internet uzatuvchisi yordamida telefon tarmog'i orqali kasb-hunar kollejlari internetga ulanadi;

• Ommabop shaklda kitoblardan foydalanish va tahlil qilish uchun «nashr etish» vositasi sifatida internet sayti yaratiladi;

• Mualliflar darslik va o'quv qo'llanmalarni kompyuterda tayyorlaydilar;

• Tahrirdan so'ng kitobda ilova sifatida matnlar, rasmlar va hatto video kliplar internetga joylashtirilib berilishi mumkin;

• Matnlarning elektron versiyasi tayyorlanadi;

• Internet saytida elektron darslikni reklama qilinishi evaziga korxona va tashkilotlar muallifga homiylik qilishlari mumkin.

Yaxshi yaratilgan elektron darslik asosida ta'lim uzluksizligini va fanlararo uzviylikni ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хамдамова Венера Анваровна (2018). Таълимнинг узлуksizligi va muammolar echimiga ayrim ёндашувлар. Современное образование (Ўзбекистан), (1), 21-28.

2. Hamdamova, V. (2022). The role of historical information in teaching technology lessons. *Open Access Repository*, 9(11), 228-231.

UO'K 373.24 (091)

MAKTABGACA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISHNING MAZMUNI

Sh.K.Xo'jamberdiyeva, PhD, Namangan davlat universiteti, Namangan

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotnig o'rni hamda badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yetakchi usullari orqali bolalar nutqini rivojlantirish masalalariga oid tavsiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: badiiy asar, kitobxon tarbiyachi, muloqot, nutq, badiiy asarlar bilan tanishtirish, metod va o'yinlar.

Аннотация. В данной статье говорится о роли художественной литературы в развитии речи детей в дошкольных образовательных организациях, а также даны рекомендации по развитию речи детей через ведущие приемы приобщения к художественной литературе.

Ключевые слова: художественное произведение, педагог по чтению, общение, речь, знакомство с художественным произведением, приемы и игры.

Abstract. This article talks about the role of literature in the development of children's speech in preschool educational organizations, as well as recommendations on the development of children's speech through the leading methods of introduction to literature.

Keywords: literature work, reading educator, communication, speech, introduction to literature, methods and games.

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va qolaversa bolalar bilan bog'liq faoiyatga ega tashkilotlarda bolalar kitobi, bolalar adabiyoti, bolalar badiiy asarlari, bolalar kutubxonasi kabi atamalarga ko'p duch kelyapmiz. Bu atamalarning amaliyotda ishlashi bilan bog'liq

turli ko'rgazmalar, banerlarga ham guvoh bo'lyapmiz. Bu albatta, quvonarli hol. Lekin bolalar shuncha harakatdan yetarlicha ozuqa olyaptimi, degan savol tug'iladi. Kitob bo'lsayu, lekin o'qilmasa u ozuqa beradimi? Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari kitob o'qishni bilishmasa, xo'sh ularga qanday metodik yordam berish orqali kitob bilan anishtirish mumkin? Bu ishni kim qilishi kerak? Qanday qilsa bolaga oson tushunishga imkon yaratiladi? Bu kabi savollarga javob faqat bitta. Biz avvalo tarbiyalaovchilari tarbiyali bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Ya'ni, avvalo kitobxon tarbiyachi qiyofasini shakllantirishimiz kerak. Agar tarbiyachi kitobxon, axborot texnologiyalaridan xabardor, ped texnologiyalarini qo'llash borasidagi metodik bilimga ega hamda zamon bilan hamnafas holda milliy va jahon adabiyoti bilan tanish bo'lsa unday tarbiyachining pedagogik mahoratini yuqori baholash mumkin. Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishdan ko'zlangan maqsadga erishiladi. Shundan kelib chiqib tarbiyachilar bilan bog'liq ushbu masalaga aniqlik kiritishni zarur deb hisoblaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi" [1]. Darhaqiqat, bolalar bizning kelajagimiz, ertangi kunimiz egalari. Ularni to'g'ri tarbiyasi masalasi bizning bajarishimiz shart bo'lgan dastlabki vazifalarimizdan sanaladi. Biz ularning tarbiyasiga va rivojlanishiga beshikdaligidayoq to'g'ri yondoshishimiz talab etiladi. Aytilgan allaning o'ziyoq bolani ham axloqiy tarbiyasini, ham dunyoviy bilimini oshirishga xizmat qilishi kerak. Badiiy adabiyot qon-qonimizga onamizning allasi bilan kirgan va bu biz bilan bir umrga hamrox. Faqat uni rivojlantirish o'zimizga bog'liq. Zero, badiiy adabiyot axloqiy xulq-atvorni hamda estetik tarbiyani shakllantirishdagi dastlabki omillardan sanaladi.

I.Tixiyeva bolalarni nutqiga uning dastlabki yoshidanoq e'tibor berishni to'g'ri deb e'tirof etadi. Nutqni muntazam o'rgatish, nutq va tilni metodik rivojlantirish maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog'i lozim" [2] Shundan kelib chiqib bolalarni muloqotga o'rgatish, nutqiy zahirasiga e'tiborli bo'lish, aniq talaffuzini tiklash kabi masalalarda biz badiiy adabiyotga suyanamiz. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish davomida boladagi ilk yutuq, uning muloqotda harakatchanligi, o'zining mustaqil fikriga egaligi, ijtimoiy sherikchilikda ham faol bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Muloqotdagi do'stonalik, bola ehtiyojlarini tushunish, iliq munosabat bola tarbiyasida chinakam mo'jizalar hosil qilishi mumkin [3]. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ko'proq ertak, hikoya va she'r kabi badiiy asarlar o'rgatiladi. Sababi, bolalar har doim ixcham, qisqa, qiziqarli narsalarga o'ch bo'lishadi. Yuqorida sanaganlarimiz aynan shunday xususiyatga ega. Ya'ni, she'r nutqimizdagi ohangdorlik, musiqiylik bilan bolalarni o'ziga jalb qiladi. Hikoya aniqlikka, ertaklar ifodaviylikka urg'u beradi. Shuningdek, bolalar majoziy ifoda vositalaridan foydalanishga, ularni mag'zini chaqqani sari yanada qiziqish bilan eshitishga va o'zlarini dunyoqarashlari bilan tahlil qilishga harakat qiladilar. Badiiy asarlarni bolalarga tanishtirishdan asosiy maqsad ajdodlarining manaviy tajribasini o'zlashtirishga o'rgatishdir. Buning orqasidan esa bolani barkamol avlod bo'lib tarbiya topishiga imkon yaratishdir. Bunday imkoniyatga faqatgina bolani adabiyotga qiziqitirish orqaligina erishiladi. Qiziqitirish uchun esa badiiy adabiyot va bolalarni o'zaro ijtimoiy hamkorligini ta'minlash talab etiladi. Masalan, katta sinf o'quvchilarini badiiy asarlar o'qishga qiziqitirish uchun "tushunchalar tahlili", "ikki qismli daftar", "rolli o'yin" kabi o'quv metodlari tavsiya etiladi [4]. Har qanday metod yoki o'yinlar, texnologiya va usullar bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish uchun xizmat qilishini hisobga xuddi shunday maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotga qiziqishini orttirish maqsadida "ertakni tingla" metodidan foydalanishni tavsiya qilamiz [5]. Bu usul bolalarni ertakka qiziqitiribgina qolmay, balki bolalardagi ba'zi ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Ularning tinglash faoliyatini faollashtiradi. Natijada bolalar asarni idrok qilishi va tahlil qilishi yaxshilanadi. Bunday metodikalarni qo'llash badiiy adabiyotning barcha janrlari uchun to'g'ri tanlansa, albatta bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishdan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Bolalarni narsalarning nomlarini to'g'ri aytishga, ularning o'xshash va farqli tomonlarini tushunish, shakli, rangi, sifati, xossalarini, jinsi va turiga oid yo'naltiruvchi lug'atini faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, nutq madaniyatini shakllantirish, dialogik va monologik nutqini takomillashtirish va nihoyat savod o'rgatishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb

etadi [6]. Mana shunday qator vazifalarni ado etishda ham badiiy adabiyotga suyanamiz. Badiiy asarlarda keltirilgan obyektlar, obrazlar, vaziyatlar bolalarni har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Aslida o'yinlar bolalarni kundalik hayotlaridagi asosiy mashg'ulotlaridan sanaladi. O'yinga asoslangan dasturlar yosh bolaning rivojlanishi va o'qishiga asosiy hissa qo'shadi [7]. Shundan kelib chiqib biz bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda o'yinli texnologiyalarni qo'llashni tavsiya qilgan bo'lardik. O'yinli texnologiyalar ichida savol-javob, kuzatish, tahlil qilish kabi metodlardan foydalish mumkin bo'ladi. Bu bilan bolalarning dunyoqarashlari, o'zini keng jamoat oldida ham erkin tuta olish ko'nikmalari, mustaqil fikrga ega bo'lish qobiliyatini ham rivojlanishiga xizmat qiladi.

Lug'at boyligi yuqori bo'lgan bolalar, so'z boyligi past bolalarga qaraganda, o'qituvchining bergan savollariga mukammalroq javob beradilar [8]. Savol-javoblardan foydalanish ham bolalarga ham tarbiyachiga bir muncha qulayliklar yaratadi. Tarbiyachi qisqa vaqt ichida bolaning bilimini baholashga erishadi. Bolalarga esa qisqa va tez fursatlarda almashinib, o'zgarib turadigan jarayonlar yoqadi. Aynan shuning uchun ham o'yinga asoslangan texnologiyalarga savol-javobdan foydalanish metodini joriy qilishni ma'qul deb topdik. Savol-javob natijalaridan tarbiyachi ham, bolalar ham mamnun bo'lishlari kerak. Har qanday javob tarbiyachi tomonidan chiroyli, mazmunli olqish bilan rag'batlantirilishi lozim, xattoki u noto'g'ri javob bo'lsa ham. Boladagi tashabbusni so'ndirish keyingi safargi muloqotni tinglashga bo'lgan ehtiyojning susayishiga, fikrlashga bo'lgan turtkining yo'qolishiga va natijada muloqotga bo'lgan xohishning pasayishiga sabab bo'ladi [9]. Shu bilan birga tarbiyada qo'llangan har qanday usul bolalarning ruhiyatiga, hissiy sezuvchanligiga ta'sir qilishini unutmashimiz lozim. Shuning uchun ularni doim maqtash, olqishlash va rag'batlantirish kerak. Agar bolaga erkinlik, ishonch berilsa, u mustaqil ravishda fikrlab hikoya tuzishi ham mumkin bo'ladi. Bu uning badiiy adabiyotlar bilan to'g'ri tanishtirilganligi, bu yo'lda to'g'ri metodikadan foydalanilganlikning bir isboti sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning ilmiy usullari – tizimli tahlil, umumlashtirish kabi usullaridan xorijiy ilmiy ish ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bolalarda adabiyotga qiziqish qachon paydo bo'ladi degan savolga biz uning ilk yoshidanoq deyishimiz mumkin. Allani tinglagandayoq uning so'zga, ohangga nisbatan mehri ortadi. Bolalarga ko'proq rasmlar, rang-barang kitoblar yoqadi. Unday rasmlarni tomosha qilish orqali olgan taassurotlari tinglab olingan taassurotga nisbatan kuchli bo'ladi. Chunki, ko'rish orqali olingan ma'lumotning qamrovi kengroq hisoblanadi. Lekin doim ham hamma asarlarni rasmlar holda bolalarga taqdim etib bo'lmaydi. Ba'zida kattalar tomonidan o'qib berilishiga ham to'g'ri keladi. Shunday paytda bolalarning tinglash bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratshimiz kerak bo'ladi.

Badiiy asar bilan tanishtirishimiz davomida bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olishimiz o'ta muhim sanaladi. Sababi, bolalarda uch yoshdan boshlab tahlil qilish, xulosa chiqarish, qahramonlarga nisbatan taqlid qilish kabi jihatlar ko'zga tashlanadi. Aynan shu yoshdan boshlab e'tiborning kuchayishi natijasida bolalarda xattoki asar qahramonini hissiyotlarini boshdan kechirish, tasavvur qilish kabi holatlarini ham kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Aynan shu nuqtayi nazardan ham bolalarga asar tanlayotganimizda bolalarning ham yosh, ham ruhiy holatlarini hisobga olishni unutmashimiz kerak bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning asosiy mazmunini quyidagicha ifodalaymiz:

Birinchidan, bolalarni badiiy adabiyotga qiziqtirish natijasida ulardagi idrok qilish, tasavvur uyg'onish, tahlil qilish, taqlid qilish, hissiy munosabat bildirish olish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish;

Ikkinchidan, adabiy janrlar haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Aynan janr attamasini ma'nosini ilgamasalarda, lekin nomlanishi jihatidan farqlashga harakat qiladilar. (Masalan, sheri, hikoya, ertak, alla va hk.) Bolalar obrazlar, monolog, diolog, voqealar, personajlar harakatlari kabilarga diqqat qila bishlaydi. Shu sababli bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqib asar tanlash muhim sanaladi;

Uchinchidan, bolalar har qanday asarning ham qandaydir maqsadi borligini anglab yetadilar. Natijada ularda xulosa qilish ko'nikmasi shakllanadi. Asarning maqsadini anglab yetishga harakat ortadi;

To'rtinchidan, badiiy asar bilan tanishtirish davomida bolalarda tinglash, fikrlash qobiliyati ham rivojlanadi. Natijada, bolalarda jamoa bo'lib ishlashda bir-birini hurmat qilish, tinglash kabi ijobiy fazilatlar uyg'onadi.

Xulosa. Bizningcha, bolalar bilan tarbiyachi o'zaro hamkor, sherik, do'st bo'lishi kerak. Agar shunday bo'lsa, bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda hech qanday to'siq bo'lmaydi. Tarbiyachi bolalarga nima yoqishini bilishi, tarbiyalanuvchilar tarbiyachining oddiy mimikasi orqali ham ma'lumot olishga harakat qiladilar. Bunday hamkorlik natijasida bolalar uchun qo'yilgan maqsadga va tarbiyachi uchun qo'yilgan vazifani bajarilishiga to'laqonli erishiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, badiiy asarlar bilan tanishtirish davomida ko'proq tarbiyachi nutqi zarur sanaladi. Sababi, tarbiyachi asarni o'qib beradi. Xoh yoddan, xoh kitobdan bo'lsin, u nutq tushunarli va ta'sirli bo'lishi kerak. Ritm, ohang, ta'sir kuchiga ega bo'lishi zarur. Bolalarga yetkazib berishda tarbiyachining nafaqat ovozi, balki yuz ifodasi, kayfiyati ham muhim sanaladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish davomida ba'zida sahnalashtirish usulidan foydalanish ijobiy samara beradi. Sababi, bolalar sahnalashtirish usuli qo'llanganda obrazga kirishadilar, tasavvur qilish emas his etib ko'rish imkoniga ega bo'lalilar. Bu usulni tarbiyachining sozlab berish yoki o'qib berishdan keying samarali usullardan deyish mumkin. Bizningcha, tarbiyachilar ixcham, personaji kam va so'zi oson, tarbiyaviy ahamiyati yuqori asarlarni ko'proq sahnalashtirish orqali tanishtirganlari maqsadga muvofiqdir.

Bolalarni yosh xususiyatlari bilan bir qatorda vaqt masalasini ham doim yodda tutish zarur. Sababi, bolalar tez zerikishlari, o'zgaruvchan xarakterga ega ekanliklari unutmaslik lozim. Bizningcha, kichik guruh va tayyorlov guruhi bolalari uchun har xil badiiy asar turlari tanlanishi va bunda vaqt masalasini hisobga olib, u asarni o'qib berilishi, yoddan o'qilishi yoki sahnalashtirish orqali tanishtirilishini ham hisobga olish kerakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020 // I kun egalarimiz. Ularni ham <http://ma'rifat.uz>
2. Тихеева Е.И..Развитие речи детей. –М.: Просвещение, 1976.
3. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари: Кўлланма. –Т.: “Ўқитувчи”, 2004. 69-бет.
4. Achilova H.M. Adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy asar o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada rivojlantirish uchun qo'llaniladigan interfaol metodlar // Educational Research in Universal Sciences. Volume 1.Issue 1. 2002.
5. Asida Isabayeva. “Develop thinking and communication through active listening”. current research journal of pedagogics, vol. 3, no. 04, Apr. 2022, pp. 57-61, doi:10.37547/pedagogics-crjp-03-04-13.
6. Бабаева Д.Р. Нутқ ўстириш назарияси ва методикаси (Дарслик). –Т.: “Баркамол фойз медиа“, 2018. –Б. 71.
7. Fleer M. Conceptual playworlds: The role of imagination in play and learning // In Early years. 2018.
8. Sevda B. Preschool Teachers' Inferential Questions during Shared Reading and Their Relation to Low-Income Children's Reading Comprehension at Kindergarten and First Grade // Early Childhood Education, Ohio State University 2014, 157 p.
9. Isabayeva Asida Yusufjonovna. (2022). Participation in teaching preschool children learning speech, thinking and communicating. World Bulletin of Social Sciences, 10, 70-71. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/994>

UO'K 378

TEKNOLOGIYA FANIDAN O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLARNI YARATISHGA QO'YILADIGAN DIDAKTIK VA USLUBIY TALABLAR

F.M.Yusufxodjayeva, o'qituvchi, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon

Annotatsiya. Ushbu maqolada Texnologiya fanidan o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratishga qo'yiladigan didaktik va uslubiy talablarga oid pedagogik qarashlar keltirilgan. Ta'lim jarayonida pedagoglarning adabiyotlar yaratishda ma'lum muammolarni xal etish va ularni bartaraf etishga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, texnologiya, fan, o'quv-uslubiy, adabiyot, didaktika, talablar, shaxs, shakllantirish.

Аннотация. В данной статье представлены педагогические взгляды на дидактико-методические требования к созданию учебно-методической литературы в области техники. В ходе обучения представлена информация о решении и устранении некоторых проблем педагогов при создании литературы.

Ключевые слова: педагогика, технология, наука, учебно-методическая, литература, дидактика, потребности, личность, формирование.

Abstract. This article presents pedagogical views on the didactic and methodological requirements for the creation of educational and methodical literature in the field of technology. In the course of education, information on solving and eliminating certain problems of pedagogues in the creation of literature is given.

Key words: pedagogy, technology, science, teaching-methodology, literature, didactics, requirements, personality, formation.

O'tgan asrning 90 yillariga qadar o'quv adabiyotlari pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan yagona uslubiy talablar va qabul qilingan tuzilmalar hamda tamoyillar asosida yaratilib kelinmoqda. Bu hol esa Texnologiya fani darsliklarining mazmuniga o'quvchilarning yosh xususiyatiga, ularning matnlarni qabul qilish imkoniyatlariga mos kelmaydigan nazariy jihatdan murakkab o'quv materiallarining majburiy tarzda kiritilishiga asos bo'ldi. Shuning uchun ham respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab darsliklarning yangi avlodini yaratish, ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari doirasi kengayib bordi.

Jumladan, umumiy o'rta maktablar darsliklari yangi avlodini sifatini oshirishda ularga qo'yiladigan talablar va yondashuvlar A.A.Abduqodirovning, darsliklar yangi avlodini yaratish muammolariga qaratilgan bir qator talablar, darsliklarda pedagogik texnologiyalar ifodalanishi yoki o'z aksini topishi masalalari U.K.Musaevning ilmiy maqolalarida yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.

Darsliklarning yangi avlodini yaratishda Davlat ta'lim standarti talablari va o'quv dasturi hajmida me'yorlangan o'quv yuklamasining modeli va taqdim etilayotgan o'quv materiallarining ta'limiy-tarbiyaviy qiymatligini ta'minlash parametrlariga, o'quvchilarni yangi bilim va axborotlar bilan qurollantirishning didaktik va texnologik asoslariga tayanish maqsadga muvofiqdir.

B. A. Almuxambetovning fikricha muallif yaratayotgan darslik mazmunini uslubchilar va amaliyotchi o'qituvchilar bilan chuqur tahlil etish, o'quv materialining didaktik talablarga va o'quvchilar yoshiga mos kelishiga e'tiborni qaratishlari kerak.

Darsliklar quyidagi asosiy talablarni bajarishi kerak: ta'limiy-metodologik tamoyillar asosida o'quvchilarga bilim berish, tarbiyaviy o'quvchilar ma'naviy didaktikalarini shakllantirish, ilmiy bilimlarga munosabatni rivojlantirish, rivojlantiruvchi-bilim olish va ijodiy faoliyatlarni rivojlantirishdan iboratdir.

L.Tyurina sifatli darslik yaratish uchun amal qilinishi lozim bo'lgan quyidagi asosiy talablarni keltiradi:

- ilmiy fikr rivojlanishining asosiy yo'nalishi va natijalariga, uning zamonaviy holatiga mos kelishi;

- fanga oid majburiy bilimlar yig'indisini belgilab beruvchi oliy ta'lim standartlari talablariga mos kelishi;

- ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni mustahkamlash, mustaqil ishlashni rag'batlantirishi;

- mavzularning aniq belgilanishi, zarur ma'lumot yig'indisi va adabiyotlar;

- darslik hech qanday qiyinchiliksiz o'qituvchining ilmiy va pedagogik konsepsiyasiga kiritilishi hamda o'quv jarayoni grafigi va ishchi rejasi bilan mos keluvchi vosita bo'lishi lozim;

- darslik mavjud o'quv jarayonini tashkil etish tizimi va istiqbolni qoniqtirishi lozim.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlardan o'quv adabiyotlarini yaratish jarayonini o'qitish modellari bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqish lozimligi ko'rinib turibdi.

Uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'ini uchun belgilangan o'quv adabiyotlariga psixologik-pedagogik, uslubiy–didaktik, sanitariya-gigienik va boshqa talablar qo'yiladi.

«Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi»ga muvofiq ta'lim turlarining xususiyatlaridan va nashr shaklidan qat'iy nazar barcha o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan talablardan tashqari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi o'quv adabiyotlariga:

- kasbga qiziqishni kuchaytirish, uni mustahkam egallashga va zamonaviy bilimlar asosida raqobatbardosh mutaxassislar chiqishini ta'minlashi;

- mustaqil va erkin fikr yuritish, ma'suliyatli qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan shaxslarni tarbiyalanishi;

- qaysi fanga tegishliligidan qat'iy nazar nazariy bilimlar amaliyot bilan keng bog'liqligining ta'minlanishi;

- o'quv materialidagi barcha ma'lumotlar mantiqiy bir tizimda berilishi;

- muayyan fan sohasiga xos xususiyatlardan kelib chiqib, estetik va dizayn ko'rsatkichlarda ilm-fan yutuqlarini tasvirlaydigan ko'rgazmali ma'lumotlar-qurilma, jihozlar yoki ularning ma'lum qismlari va boshqalar turli rangda berilishiga e'tibor qaratilishi kabi qo'shimcha talablar qo'yiladi.

Texnologiya fani darsligi o'quv dasturida talab etilgan mavzularni to'liq qamrab olishi, o'quv materiali matni esa o'quv dasturida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan nomutanosibliklarga aniqlik kiritish va ularni hal qila olishi kerak. Maxsus fan darsligining mazmunida qonunlar, nazariyalar, tamoyillar, jarayonlar, ob'ektlar tuzilishi, atamalar va boshqa bilimlarning bir xil yondashuvda yoritilishi; fundamental ta'limga yo'naltirilishi, fikrlar va xulosalarning qo'yilishi; o'quvchilar olgan bilimlarini kasbiy faoliyatga qo'llashni o'rganishga yo'naltirilganligi; bo'limlar va boblar orasidagi o'zaro bog'liqlikning ta'minlanishi; ishlab chiqarish jarayonlarining turli jihatlarini yorituvchi bilimlarning o'zaro bog'lanishining ta'minlanishi; abstrak-ilmiy bilimdan aniq kasbiy bilimga va amaliy ko'nikmaga o'tishni ta'minlashi kerak.

Shuningdek zamonaviy darslikda:

- bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va o'z-o'zini baholash uchun savollar va testlar berilishi;

- mashqlar, topshiriqlar, tajriba va amaliy ishlar, mustaqil ishlar bo'yicha topshiriqlar berilishi kerak;

- boblarda mavzularning tizimlilik, butunligini va o'quvchida yaxlitlikni idrok qilish hissi shakllanishi uchun barcha ma'lumotlar mantiqiy bir tizimda ya'ni, oddiydan-murakkabga, mavhumdan–aniqlikka kabi taqdim etilishi ta'minlanishi kerak:

- darslikda amaliy va tajriba mashg'ulotlarni bajarish va mashqlarni yechish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berilishi, matn, illyustratsiya va grafiklar yordamida bilim olish orqali kengaytirilgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyati bo'lishi lozim.

Biz tomondan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida maxsus fanlardan yoziladigan yangi darsliklarga qo'yiladigan quyidagi didaktik va uslubiy talablar ishlab chiqildi:

- o'quv dasturiga to'la mos keladigan va undagi mavzularni to'laigicha qamrab oladigan shaklda yozish;

- maxsus fanning yetakchi komponenti bo'lgan "Faoliyat usullari"ning o'quv maqsadlari va vazifalarining aniq yoritilishi;

- «Faoliyat usullari»ning yoritilishida nazariy va amaliy mazmunning o'zaro maqbul va bog'liq holda taqsimlanishi;

- matnni tushunarli va mantiqiy usulda tuzish, o'rganish jarayonini osonlashtirish uchun rasmlar, sxemalar va chizmalarni qo'shib joylashtirish;

- mavzularning soddadan murakkabga tomon o'sishini, hamda o'zaro bog'liqligini ta'minlash;

- o'quv matni fan dasturida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan tushunmovchilik va nomutanosibliklarga aniqlik kiritish kerak;

- rasmlar, grafiklar, jadvallar, sxema va diagrammalar berilgan ma'lumotlar va tushuntirishlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak;

- darslikda o'rganiladigan mavzu va mashg'ulotlar guruhda o'quvchilarning turlicha qobiliyatli ekanliklarini inobatga olgan holda berilishi lozim;
- o'quv materialida o'quvchilarni faol bo'lishga va tanqidiy fikrlashga undovchi va ularning qiziqishlarini o'ziga jalb qiladigan jihatlarining mavjud bo'lishi;
- fanlararo va fan ichida o'zaro bog'liqlikni ta'minlanishi;
- mazmun juda ishonchli va salohiyat bilan yoritilishi kerakki, unda mualliflarning fan, texnika va texnologiyalar so'nggi yutuqlaridan foydalanganligi ko'rinib tursin;
- mazmun dalillardan namunalariga, namunadan-farazga, farazdan-izlanishga, izlanishdan-amaliy qo'llashga, abstrakt-ilmiy bilimdan-aniq kasbiy bilimga, bilimdan-amaliy ko'nikmaga o'tishni ta'minlanishi;
- O'zbekistonning turli hududlaridagi o'quvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini va milliy xususiyatlar, turli madaniyatlarning hisobga olinishi;
- o'quvchilar yoshi, saviyasi va psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olinishi, o'g'il va qizlarning qiziqishlarini teng ravishda va to'la darajada hisobga olish kabi ongli tarzda tuzilgan misollar va dalillar mavjudligi;
- o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini tekshirishlari uchun nazorat savollari va testlar bilan ta'minlanishi;
- o'quvchilar mustaqil ishlari uchun amaliy topshiriqlar, mashqlar, loyihalar bilan ta'minlanishi;
- fanni o'qitish texnologiyasi yoki metodikasiga mos kelishi;
- matnda atrof-muhit, uning ifloslanish va jamiyat salomatligi muammolari hamda ularni hal qilish yo'llari aks ettirilishi;
- topshiriqlar va vazifalar keng ko'lamli o'quvchilar bajaradigan amaliy ishlarni juftlikda yoki kichik guruhlarda tashkil etish imkoniyatini berish;
- darslikdagi takrorlanuvchi tushunchalarga va rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalarga e'tiborni jalb etish maqsadida maxsus belgilardan foydalanish zarur.

Olib borilgan izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, maxsus fan darsliklaridan yaratiladigan zamonaviy darslik muvofiqlashtiruvchi, tizimlovchi, axboriy, kasbga yo'naltirilish, bilimlarni mustahkamlash va o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil bilim olishga qiziqtirish, o'quvchilarni ijodkorlikka undovchi, rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi funksiyalarni bajarishi kerak.

Ushbu keltirilgan didaktik va uslubiy talablar bajarilganda va funksiyalar ro'yobga chiqarilganda maxsus fan darsliklarining zamonaviy avlodini yaratish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yusufxodjaeva, F. M. (2018). Tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ta'lim jarayonidagi ahamiyati. *Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan)*, (1), 52-59.
2. Mukhtorovna, Y. F. (2022). Learning the technology of collective creative work in practice. *Open Access Repository*, 9(11), 175-179.
3. Mukhtorovna, Y.F. (2022). Teaching of technology using interactive methods. *Open Access Repository*, 9(11), 169-174.

УДК 37.02

МЕТОДЫ И ПОДХОДЫ ОБУЧЕНИЯ ГОВОРЕНИЮ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

С.Б.Абдуллаева, старший преподаватель, PhD, Самаркандский государственный институт иностранных языков, Самарканд

Аннотация. В статье рассматриваются способы эффективного проведения урока говорения в старших классах и в высших учебных заведениях. В результате формируются не только речевые навыки, но и развиваются ораторские способности, критическое мышление, формируются навыки дискуссии и диалога, уважительное отношение к собеседнику, умение использовать аргументацию и доказательную базу при публичных выступлениях.

Ключевые слова: метод, способ, говорение, дебаты, ролевая игра

Annotatsiya. Maqolada o'rta maktab va oliy o'quv yurtlarida gapirish ko'nikmalari darsini samarali o'tkazish yo'llari muhokama qilinadi. Natijada nafaqat nutq qobiliyatlari, balki notiqlik mahorati, tanqidiy fikrlash, munozara va dialog ko'nikmalari, suhbatdoshni hurmat qilish, ommaviy nutqda argument va dalillardan foydalanish ko'nikmalari shakllanadi.

Kalit so'zlar: usul, yo'l, nutq, bahs, rolli o'yin

Abstract. The article discusses ways of effective conducting of speaking lessons in high school and in higher educational institutions. As a result, not only speech skills are formed, but also oratory skills, critical thinking develop, discussion and dialogue skills, respect for the interlocutor, the ability of using argumentation and evidence during public speeches are formed.

Key words: method, way, speaking, debate, role play

Введение. В настоящее время существуют немало методов и подходов для эффективного обучения учащихся интегрированным курсам иностранного языка. Отечественные и зарубежные преподаватели предлагают различные техники, способы подготовки студентов к будущей профессиональной деятельности. По программе языковых высших учебных заведений предполагается комбинированное обучение языковых навыков: говорение, аудирование, чтение, письмо. Практическая грамматика и практическая фонетика прилагаются к данным аспектам и изучаются на раннем этапе обучения. Данный подход по мнению многих ученых-педагогов и психологов показывает положительные результаты, нежели методы применяемые несколько десятилетий назад.

Методы. Продуктивным методом исследования в педагогической отрасли является наблюдение, хотя он зависит от цели и задачи, которые ставит перед собой исследователь. Скрытое наблюдение за учащимися, комплексно обучающимися главным навыкам иностранного языка (говорение, аудирование, чтение, письмо) демонстрирует, что уровень знания этих студентов выше, чем те, которые обучались традиционным методом. Более того, опрос учащихся показывает, что рейтинг преподавателей, обучающих их интегрированным способом, занимает значительно высокую позицию.

Говорение является одним из навыков, трудно достигающимся для обучающихся, и даже для учителей. Научиться говорить плавно и легко требует должной практики и преподавания. Здесь принимается во внимание произношение, грамматика, тематический подход. Неправильно произнесённая речь может вызвать непонимание у окружающих и носителей языка. Было бы уместным напомнить, что в первую очередь изучающие иностранные языки должны стараться говорить на нем не только в учебном заведении, во время урока, перемены, со своими однокурсниками, но и вне него. Естественно, не у всех получится говорить должным образом, но учителю необходимо объяснить, что такой способ достаточно эффективен. Имеется множество заданий, упражнений, игр, способствующих развитию речевых умений для студентов, изучающих иностранные языки. Главной целью уроков речевого навыка является то, чтобы речь учащихся была понятна носителям языка.

Издано много отечественных и зарубежных учебников, способствующих эффективному обучению говорения. Также в цифровую эру гаджетов, интернета создано множество приложений для мобильных телефонов, различные курсы можно найти на просторах интернета. И все же уроки с реальными учителями не утратили своей актуальности до нынешних дней. Учитель имеет индивидуальный подход к каждому ученику, исходя из индивидуального характера и темперамента, социального положения, уровня знания и т.д.

Обсуждение. Ролевые игры — это высокоэффективный способ улучшения речевых навыков. Существует несколько видов ролевой игры, использующихся на уроках иностранного языка. Первый способ, учитель заранее задает прочитать короткий рассказ на обучаемом иностранном языке, в классе студенты разделяются на группы по 3-4 человек и выбирают различные эпизоды из рассказа, через некоторое время каждая команда показывает ролевую игру, пародируя героев рассказа. Конечно, условия задания могут меняться в зависимости от смысловости учителя. Например, ролевую игру можно подготовить заранее, внеурочное время, а на уроке показать. Так можно сэкономить дорогостоящее время занятия.

Второй способ, один и тот же эпизод подготавливается всеми командами, учитель оценивает какая команда лучше справилась с заданием, т.е. реальнее исполнила роли. Студентам будет весьма интересно посмотреть на игру однокурсников, вызовет смех, улыбку, любопытство на их лицах. В результате командной работы студенты лучше узнают друг друга, вдобавок будет вырабатываться навык работы в коллективе, в команде. Во время ролевой активности учащиеся могут нарядиться в костюмы героев произведения. Третий способ, ролевую игру снимают на видео, можно добавить музыку и различные спецэффекты. Данный вариант ролевой игры можно сделать как для одного эпизода для всех команд, также различные отрывки рассказа по усмотрению учителя. Участники могут выбрать место, где будет сниматься видео, к примеру, в парке, у реки, и т.д., по тому, где происходит сцена. Студенты с интересом посмотрят себя и своих однокурсников в разных ролях, и что немаловажно поймут свои ошибки и недостатки в речи на иностранном языке.

Дебаты другой способ повышения навыка говорения. Другими словами, это интеллектуальная игра для школьников, которая станет прекрасной идеей для урока. Для обсуждения выбирают интересные и значимые проблемы, пригодные для спора.

У данного задания имеются несколько способов. Дебаты логично проводить на уроке обобщения материала. Подойдет любая тема, где есть плюсы и минусы, например, командная экономика, положительные и отрицательные последствия (безработица). Первый способ, учитель на уроке делит группу на две команды, и дает задание по пройденному материалу. Дается некоторое время для обсуждения вопроса, проблемы или задачи внутри каждой команды, затем группы вступают в обсуждение вопроса. Определенно, дискуссия происходит на иностранном языке, студенты активно аргументируют проблемы и приводят доказательства. Аргументы — теоретические, помогают рассмотреть проблему с разных сторон. Доказательства — фактические, со ссылками на источники. Каждая сторона, опровергая мнение собеседника, находит тезисы в защиту своей позиции и обязательно претендует на достижение цели.

Второй способ, группа делится на две команды, и готовит задание внеурочное время. Можно подготовить плакаты, презентации, буклеты, дать название команде, подготовить значки для членов команды, и представить на уроке.

Игра КВН на изучаемом иностранном языке ещё одна привлекательная игра для студентов. Учитель делит группу на команды, заранее готовит вопросы, и действует исходя из правил известной игры. Классную мебель лучше переставить в круглую или овальную форму для каждой команды.

Другой метод – повторение фразы или предложения при просмотре фильма, мультфильма или видео, удаляя при этом оригинальный звук и читая субтитры. Слушающий повышает и понижает голос при необходимости, так же как произносится на видеоматериале. Он как бы озвучивает персонажа своим голосом придавая выразительность и экспрессивность своей речи. Удалив звук с видеоматериала, несколько студентов могут озвучивать беседу героев фильма. Более того, такое задание можно задать на дом, учащиеся должны будут снять озвучивание на видео, а потом можно посмотреть его всей группой и обсудить.

Следующий способ – чтение рассказа, статьи, параграфа и пересказывание прочитанного вслух на уроке. Прочитав материал, тут же необходимо его пересказать. Разумеется, при таком способе будут ошибки в произношении, остальные учащиеся после прослушивания однокурсника могут исправить замеченные ими ошибки. Этот способ помогает улучшить не только речевую способность, но и память, увеличивается объем лексики.

Караоке – подпевание популярных песен, следующий метод развития говорения. Студент будет стараться соблюдать акцент певца, соответственно улучшается произношение. В свою очередь, если изучаемый язык английский, то песни рекомендуется выбирать с британским или американским диалектом. Имитирование певца однокурсником вызовет бурю эмоций у учащихся. Такое задание можно задать как домашнее или подготовить одну песню с несколькими учащимися, например, припев поют несколько студентов, а куплеты один студент.

Заключение. Итак, нами рассмотрены несколько способов, которые можно использовать на уроке говорения для улучшения речевого навыка у студентов в старших классах и высших учебных заведениях. Эти игры привлекают и мотивируют даже слабых и пассивных учащихся. Такие задания способствуют развитию у студентов ораторских способностей, критического мышления, формируются навыки дискуссии и диалога, уважительного отношения к собеседнику, умения использовать аргументацию и доказательную базу при публичных выступлениях. Кроме того, развивается навык командной работы, сплачивает учащихся. Креативность, высокое мастерство, интеллект, талант, трудолюбие, человеколюбие – главные черты хорошего педагога. Каждый урок искусного преподавателя становится незабываемым, увлекательным, ярким для учащегося.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Рахматова О. К., Рахимов А. Р. Прагматический концепции феномена речевого поведения и речевого дискурса
2. Рубинштейн М.М. Проблема учителя: Учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений / Под ред. В.А. Сластенина. М.: Издательский центр «Академия», 2004.
3. Alievich M.H., Nigmatovna U.F. Ways of formation of culture of free thinking among pupils of professional colleges in training to English language on extracurricular lessons //Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2014. – Т. 1. – №. 1-2. – С. 182-185.
4. Abdulvosieva K. F., Nabieva N. F. The factors accelerating the innovative activity of teachers //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 1090-1094.
5. Muminov O.N. Possibilities of using the language game in internet communication //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 861-865.
6. <https://skyteach.ru/2022/07/27/how-to-conduct-a-class-debate/>
7. <https://gbou42.ru/p57aa1.html>
8. <https://magazine.skyeng.ru/speaking-alone/>

УДК 331.442-057.3

ПРОФИЛАКТИКА ИНФОРМАЦИОННОГО СТРЕССА У БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ

*О.М.Володько, к.п.н., доц., Белорусский национальный технический университет,
Минск, Беларусь*

Annotatsiya. Maqolada axborot stressing mohiyati ortiqcha va qarama-qarshi axborotlarga inson organizmining reaksiyasi sifatida ko'rib chiqilgan. Talabalarni axborot stressing oldini olishga tayyorlash mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot stressi, profilaktika, stress menejment, stressga qarshilik.

Аннотация. В статье рассматривается сущность информационного стресса как реакции организма на перенапряжение из-за избыточной и противоречивой информации. Излагается содержание подготовки студентов к профилактике информационного стресса.

Ключевые слова: информационный стресс, профилактика, стресс-менеджмент, стрессоустойчивость.

Abstract. The article deals with the essence of informational stress as the body's response to overexertion due to excessive and conflicting information. The content of preparing students for the prevention of information stress is outlined.

Key words: information stress, prevention, stress-management, stress resistance.

Информационный стресс – это ответная реакция организма на перенапряжение, созданное избыточной и противоречивой информацией. Для адекватного восприятия потока разнообразных сведений, и недопущения информационного стресса, студенты – будущие руководители должны пройти в ходе профессионального обучения соответствующую профилактическую подготовку.

Содержание подготовки будущих менеджеров к профилактике информационного стресса состоит в следующих составляющих:

- *знание* особенностей современного информационного пространства;
- *устойчивость* в своих жизненных и профессиональных убеждениях;

